

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

ANDIJON MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

“MOLIYA” KAFEDRASI

Oliy ta'limning 5340600 – «Moliya»
yo'nalishi talabalari uchun

“Bank ishi” fanidan

Ma'ruzalar kursi



Andijon - 2009

«TASDIQLAYMAN»
Andijon muxandislik iqtisodiyot instituti O'quv-uslubiy
Kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan

Kengash raisi: _____ A. Xakimov

“ _____ ” _____ 2009 y.

“MA'QULLAYMAN”
“Moliya” fakulteti Kengashida muxokama
qilingan va ma'qullangan

Kengashi raisi: _____ dots. N. To'ychiboev

“ _____ ” _____ 2009 y.

“TAVSIYA ETILGAN”

“Moliya” kafedrasi majlisida muxokama
qilingan va tavsiya etilgan

Kafedra mudiri: _____ dots. M-A. Eshonov

(Kafedra majlisining ____ - sonli bayonnomasi
« _____ » _____ 2009 y.)

Taqrizchilar:

1. A. Qodirov - i.f.n., dots. And MII «Moliya» kafedrasi,
2. Qayumov I. - i.f.n., prof. And MII «Buxgalteriya hisobi, audit va statistika» kafedrasi

Tuzuvchi: ass. Umarov L. A. “Bank ishi” fani (ma'ruzalar kursi)- A.: And MII, 2009 yil

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilan mustaqil fan-texnika taraqqiyotini ta'minlashga katta e'tibor berilmoqda. Fanning biz uchun jumboq bo'lgan sohalarini o'rganish va u bo'yicha ma'lum bilimga hamda mavjud muammolarning echimiga ega bo'lish mamlakatimiz uchun xususiyatli bo'lgan bozor iqtisodiyotining tamoyillarini to'la bajarishga asos yaratishi mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida banklarda bozor talablariga mos keluvchi xizmat turlarini tatbiq qilish, mijozlarning talab va takliflarini hisobga olish, ularga xizmat ko'rsatishning yangi usullarini joriy etish, yangi kredit vositalarini qo'llash, turli kredit institutlarini tashkil etish bilan bog'liq jarayonlarini yuzaga keltirdi.

O'z navbatida, bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning tutgan o'rni hamda ahamiyatining muhimligi, bank tizimini takomillashtirib borishi ushbu sohada yuqori malakali xodimlarni tayyorlashni taqozo etadi.

Shunga ko'ra, bu fanning maqsadi va vazifalari talabalarni bank tizimida mustaqil ishlashga tayyorlashdan iborat. Shuningdek, qo'yilgan masala echimining asosi talabalarni faqatgina bank operatsiyalarini o'tkazishning texnik tomoni bilan tanishtirish bo'lib qolmasdan, balki ularni kredit hisob-kitoblar mexanizmini bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalariga asoslangan holda olib borishni o'rgatishga qaratilgan. Bular bo'lajak xodimlarni bankning aktiv va passiv operatsiyalarni amalga oshirishda, bank amaliyotidagi mavjud kamchiliklarning bartaraf etish yo'llarini topish, hamda bank ishini takomillashtirishga qarata faoliyat olib borishga asos yaratadi.

"Bank ishi" fanidan tayyorlangan ushbu ma'ruzalar kursi hozirgi kunda bank amaliyotida qo'llanilayotgan O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar Maxkamasi qarorlari, Prezident farmonlari, Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy xujjatlar va bank ishi faoliyati bilan bog'liq zamonaviy adabiyotlarga asoslangan xolda tuzildi.

Ushbu ma'ruzalar kursida bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning tuzilishi, ularni tashkil qilish va faoliyatini olib borishning me'yoriy va huquqiy sohalarini, tijorat banklarining resurslari, passivlari va aktivlari, ular mutanosibligini ta'minlash, banklarning daromadlari va xarajatlari, foydasi, mijozlarni kreditlash asoslari, banklarning likvidligi bilan bog'liq mavzular yoritiladi.

Mazkur ma'ruzalar kursida bayon qilingan mavzular va ulardagi ba'zi muammolar va fikrlar oliy o'quv yurt talabalari, magistratura bo'limi tinglovchilari, bank xodimlari va banklar faoliyatini tashkil qilish va olib borilishi bilan bog'liq faoliyat ko'rsatuvchilar uchun qiziqarli va foydali bo'lishi mumkin.

1-mavzu: BANK ISHI FANINING PREDMETI VA METODI. /2 soat/

Reja:

1. Bank ishi kursining maqsadi va vazifalari
2. Bank tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Banklar, bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari.
4. Bank ishi fanining huquqiy asoslari

Tayanch iboralar: bank, bank tizimi, bankning funksiyalari, ssuda, kredit munosabatlari, ssuda kapitali, kredit tizim, ipoteka, aktsioner bank, xorijiy banklar, universal banklar.

1. Bank ishi kursining maqsadi va vazifalari

Oliy o'quv yurtlarida o'rganiladigan iqtisodiy fanlar ichida «Bank ishi» fani o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, ushbu fanni chuqur va izchil o'zlashtirish natijasida iqtisodchilar, moliyachilar, menejerlar xo'jalik faoliyatini yuritishda va investitsiyalashda banklar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni tashkil etishga harakat qiladilar.

"Bank ishi" fani etakchi ixtisoslik fanlaridan biri bo'lib, unda banklar, ularni tashkil qilish va faoliyatini olib borishning me'yoriy va huquqiy sohalari, tijorat banklarining resurslari, passivlari va aktivlari, ular mutanosibligini ta'minlash, banklarning daromadlari va xarajatlari, foydasi, mijozlarni qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlash asoslari, banklarning kredit, investitsiya portfellarini boshqarish, bank risklari va ularni boshqarish bilan bogliq mavzular yoritiladi.

«Bank ishi» kursi amaliy fan sifatida iqtisodiy yo'nalishda ta'lim olayotgan Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, mazkur fanda bank faoliyati bilan bog'lik aniq masalalar ko'rib chiqiladi. Fanni o'rganish davomida O'zbekistonda banklarning tarkib topishi va ikki pog'onali bank tizimini vujudga kelishi, tijorat banklarining rivojlanishi kabi nazariy va amaliy mashg'ulotlar bilan bir qatorda asosiy e'tibor bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning faoliyati bilan bog'lik bo'lgan masala va muammolarni o'rganishga qaratiladi.

"Bank ishi" fanini o'qitishning maqsadi talabalarni bank tizimida mustaqil ishlashga tayyorlashdan iborat bo'lib, bank tizimida mukammal faoliyat ko'rsata oladigan xodimlarni tayyorlashdan iboratdir. Ushbu kursni o'rganish davomida talabaga bank operatsiyalari bo'yicha ko'rsatma va yo'riqnomalar bilan tanish bo'lishigina talab qilinmay, balki u bozor xo'jaligida kredit hisob-kitob mexanizmini tashkil etish va amal qilish qonuniyatlarini o'rganish va aniqlash darajasidagi bilimlarga ega bo'lishini ham taqozo etadi.

Ushbu fanni o'rganish jarayonida talabalar tegishli bilimga, ko'nikma va maxoratga ega bo'lishlari lozim.

Talabalar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda moliyaviy qonunchilik sohasidagi yangiliklardan, ommaviy axborot vositalaridagi kundalik moliyaviy o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari lozim. Mazkur fanning asosiy g'oyalarini to'la va muvaffaqiyatli o'rganish uchun talabalar bank tizimi va uning

tarkibiy tuzilishi, banklarda pul ekvivalentlarining aylanishi, naqd pulsiz hisob-kitob shakllari, kredit mexanizmi, qarzdorning to'lovga layoqatliligi kabi ma'lumotlarni bilishlari lozim.

“Bank ishi” fanidan olingan bilimlar talabalarni oliy o'quv yurtini tamomlagandan so'ng kundalik faoliyatida uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni echishda hamda zamonaviy bank tizimiga oid adabiyotlarni o'rganib o'z malakalarini oshirishda qo'l keladi.

Ushbu fanni talabalar tomonidan o'zlashtirish imkoniyati bo'lishi uchun ular “Pul-kredit va banklar” fani bo'yicha bilimga ega bo'lishlari lozim.

Shuningdek, “Bank ishi” fani qator maxsus fanlar, jumladan, “Davlat byudjeti”, “Soliq va soliqqa tortish”, “Monetar siyosat” kabi fanlarni o'zlashtirish uchun nazariy uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Hozirda Respublikamiz bank tizimini rivojlantirish, moliya tizimini barqarorlashtirish dolzarb masalalardan xisoblanganligi sababli ushbu fanni jaxon tajribasiga asoslangan xolda chuqur urganish muxim ahamiyatga ega. Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni uning doirasida olingan bilimlar va amaliy ko'nikmalar moliya- kredit institutlarining bozor operatsiyalari bilan bog'lik professional faoliyatda bevosita qullanilishi bilan belgilanadi.

«Bank ishi» fani bakalavriatning “Iqtisodiyot” yo'nalishi 2-kursining 1-semestrida o'qitiladi. Fan ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlar bilan bir qatorda o'qitiladi.

Barcha turdagi o'quv mashg'ulotlarini olib borish jarayonida namunaviy o'quv dasturida keltirilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashqari yangi qabul qilinayotgan O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, mamlakatimiz Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, turli qoidalar hamda yo'riqnomalardan va o'tiladigan mavzularga tegishli adabiyotlardan ham foydalanish zarurdir.

Fanni o'rganishda mamlakatimizdagi va jaxon mamlakatlaridagi zamonaviy bank tizimdagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlardan keng foydalanish lozim. Bunda Xalkaro Internet tizimi, va boshqa kuplab xalkaro iqtisodiy va gumanitar tashkilotlarning materiallaridan foydalanish ijobiy natijalar beradi.

2. Bank tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

Markaziy banklarning tarixan paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishiga e'tibor qiladigan bo'lsak, ularning tijorat banklaridan ancha kech paydo bo'lganligiga amin bo'lamiz. Markaziy banklarning yuzaga kelishiga asosiy sabab bank tizimining butunlay ishdan chiqishi darajasiga etishi, ya'ni xar bir bank o'zicha va o'zi belgilagan miqdorda muomalaga turli xildagi, hamda turli nominaldagi pul belgilari chiqarishi bilan yuzaga kelgan. Bu o'z navbatida bevosita muomalada tovar va moddiy qimmatliklarga nisbatan pulning bir necha barobar ko'payishiga va oqibatda nafaqat bank tizimining, balki butun iqtisodiyotning izdan chiqishiga olib kelgan. Bu esa emission banklarning markazlashtirilishiga olib kelgan. Natijada, emissiya qilish xuquqini qo'lga kiritgan bankning boshqa banklarga nisbatan barqaror va mustaxkam bo'lishi ma'lum bo'ldi. Bu orqali bank tizimida mavjud bo'lishi kerak bo'lgan sof raqobat

yo'qotilib, ko'zlangan natijaga erishilmadi. Shundan so'ng, iqtisodchi olimlar tijorat banklari faoliyatini boshqaradigan va faoliyati jixatdan ulardan farq qiladigan bankni vujudga keltirish zarurligini anglab etdilar. Shu tariqa markaziy banklarning vujudga kelishiga va ularning faoliyatiga zaruriyat tug'ildi. Shunday qilib, birinchi Markaziy bank 1656 yilda SHvetsiyada, undan so'ng 1694 yilda Angliyada vujudga keldi.

Odatda Markaziy banklar aktsionerlik jamiyati sifatida tashkil etiladi. Tartibga asosan uning kapitali davlatga tegishli hisoblanadi (Frantsiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gollandiya va Ispaniya). Agar davlat kapitalning ma'lum qismigagina egalik qilsa (Belgiya, Yaponiya) yoki Markaziy bankning aktsionerlari tijorat banklari bo'lsa (masalan AQShda) yoki boshqa moliyaviy muassasalar (Italiya) shunga qaramay Markaziy bankning boshqaruv organini tashkil qilishda davlat asosiy rol o'ynaydi.

Markaziy bank iqtisodiyotni boshqarish va bank tizimini nazorat qilishda juda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli uning faoliyati maxsus Ustavga nisbatan ham yuksak kuchga ega.

Qonun bilan tartibga solinadiki, bu hol butun dunyoda qabul qilingan umumiy amaliyotdir. U alohida maqom berilgan muassasa sifatida butun bank tizimini nazorat qiladigan davlat organidir. U oddiy tijorat faoliyati doirasidan ancha keng qamrovli bo'lgan vazifalar hamda javobgarlikka ega.

Markaziy bank pul-kredit siyosatini samarali amalga oshirish uchun uning bir yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi. Bu yo'nalishlar Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangandan keyin harakat dasturi sifatida qabul qilinadi.

Markaziy bankning vazifalari, tabiiyki, g'oyat xilma-xil bo'lib, bu hol qonunda aks ettirilgan. Xalqaro amaliyot nuqtai nazaridan qaraganda mazkur tashkilotning vazifalari g'ayrioddiy emas. U o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga vakolatli bo'lishi bilan birga unga ma'lum harakatlarni amalga oshirish taqiqlangan.

"O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida: "Markaziy bankning asosiy maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlashdan iborat" deb yozib qo'yilgan.

"Valyuta barqarorligi" atamasi pul massasi, narx-navo va milliy valyuta almashuv kursining barqaror bo'lishi tushunchasini o'z ichiga oladi. Bu esa Markaziy bankning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini aks ettiradi. Albatta, pul massasiga, narxlarga, almashuv kurslariga ta'sir ko'rsatadigan omillar ko'p bo'lib, shulardan ayrimlari Markaziy bankning bevosita nazorati va ta'siridadir.

Markaziy bankning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- monetar siyosat va valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish hamda amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;

- bank faoliyatini tartibga solish va banklar ustidan nazorat o'rnatish;

- O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini, shuningdek, hukumat zaxiralarini kelishuvga ko'ra saqlash va boshqarish;

-Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat byudjetining kassa ijrosini tashkil etish.

Markaziy bankka tijorat maqsadlarida investitsiyalash bilan shug'ullanishga ruxsat berilmaydi, bu ish uning vazifalarini bajarishni to'g'ridan-to'g'ri engillashtiradigan hollar bundan mustasno.

Ayrim bank yoki tashkilotga, xatto u hukumat muassasasi bo'lsa ham, moliyaviy yordam ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi. Buning sababi shundaki, Markaziy bank tizimning boshqa unsurlari uchun kreditor emas, balki u tartibga solish siyosatini belgilab beradi. U o'z vakolatlaridan ayrim tashkilotlarni boshqalardan ajratib maxsus qo'llab-quvvatlash uchun emas, balki barcha yuridik shaxslarga nisbatan birday foydalanishi shart.

Qonunda Markaziy bank maqomi moliyaviy jixatdan milliy byudjetdan mustaqil bo'lgan yuridik sub'ekt va davlat organi deb belgilangan. Mustaqillik unga o'z faoliyatini amalga oshirish hamda milliy iqtisodiyot masalalarni hal qilish uchun pul siyosatida zarur tashabbus ko'rsatish imkonini beradi.

Markaziy bank yuridik shaxs sifatida biron-bir davlat organi yoki tashkiloti tomonidan boshqaga olib bera olmaydigan ko'chmas mulk va moliyaviy aktavlarni o'z ichiga qamragan mulkka ega. Bu ham uning mustaqilligini kuchaytiradi va pul siyosatini samarali olib borish imkoniyatini ta'minlaydi.

Markaziy bankni boshqarishning yuqori organi Boshqaruv kengashi bo'lib, u monetar siyosatni hamda o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishida boshqa davlat organlarining bevosita yoki bilvosita aralashuvidan xoli. Boshqaruvga Rais boshchilik qiladi, u ayni vaqtda Markaziy bank Raisi ham bo'lib, ijro etuvchi organ (direktor) vazifasini bajaradi.

Markaziy bank mustaqilligining kafolati juda muhim bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi va o'z vakolatlari doirasida qarorlarni mustaqil qabul qiladi.

Markaziy bank vazifalari

Emissiya - eng qadimgi va eng muhim vazifalardan biridir. Banknot emissiyasi hamon o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda, chunki naqd pul hali ham chakana savdodagi to'lovlar va zarur qarz majburiyatlarini uzul-kesil to'lashga ham mablag'ga ega bo'lish lozim bo'lgan kredit tizimi likvidligini ta'minlash uchun zarur, kerak.

Tijorat banklari kassa zaxiralarini jamlash va saqlash vazifasi tijorat banklarining zaxira hisob-varaqlarida ularning omonatlari miqdoriga muayyan nisbatda zaxiralar saqlashdan iborat.

Rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini saqlash vazifasi xalqaro hisob-kitoblarda zaxira aktivi va kafolat-sug'urta fondi rolini bajarishdan iborat.

Tijorat banklarini kreditlash vazifasi tarixan markaziy banklar qog'oz pul emissiyasini yakka hoqimligi bilan bogliq. Kredit muassasalari depozitlarni to'plash, kredit operatsiyalarini kengaytirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Hukumat uchun kreditlar berish va hisob-kitob operatsiyalarini bajarish vazifasi shundan iboratki, Markaziy bank hukumat muassasalari va tashkilotlarining, xazinaning hisob-varaqlarini yuritadi, ushbu hisob-varaqlarda mablag'larni to'playdi va ulardan pul beradi; davlat qimmatli qog'ozlari bilan

operatsiyalarni amalga oshiradi, davlatda bevosita qisqa muddatli va uzoq muddatli qarzlar yoki davlat obligatsiyalarini sotib olish uchun kredit beradi; hukumat organlari topshirig'iga muvofiq oltin hamda chet el valyutasi bilan bo'ladigan operatsiyalarni bajaradi.

Hisob-kitoblarni va pul o'tkazish operatsiyalarini amalga oshirish vazifasi o'zaro talablar va majburiyatlarni surishishga asoslangan naqd pulsiz hisob-kitoblardan iboratdir.

Iqtisodiyotni pul-kredit jihatidan tartibga solish vazifasi ishlab chiqarishning jami hajmini, ish bilan bandlikni va narxlar darajasini barqarorlashtirish maqsadida pul taklif qiliishni o'zgartirishdan iboratdir. Pul-kredit siyosati ishlab chiqarish pasayganida uning o'sishini rag'batlantirish uchun pul taklif qilishni ko'paytiradi, inflyasiya davrida esa, aksincha pul taklif qilishni cheklaydi.

Markaziy bankning nazorat qilish vazifasi tijorat banklari ishida muammolar vujudga kelish ehtimolini aniqlashdan iborat. Banklarni nazorat qilish litsenziyalash, iqtisodiy me'yor (normativ)larni nazorat qilish, tijorat banklar faoliyatini tekshirish hamda taftish qilish shaklida amalga oshiriladi.

Keyingi yillarda Markaziy bankning iqtisodiyotdagi urni va ahamiyati hamda uni mamlakat xududida bulayotgan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishdagi xakida munozarali baxslar bir necha marotaba uzining rivojlanish yo'nalishlarini uzgartirdi va buning oqibatida iqtisodiyotdagi bank tizimining birinchi pogonasida real uzgarishlar bo'lishiga sabab bo'ldi, bu esa birinchi navbatda davlat boshqaruv organlariga bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ldi.

Bu muammoni tahlil etishda asosiy jixat – mamlakat Markaziy banki siyosatining davlat iqtisodiy siyosati yo'nalishiga tobeligi, ya'ni aniqrogi bu tobelikning darajasiga bog'liq. Qachonki, mamlakat Markaziy banki siyosati davlatning iqtisodiyotni tartibga solish siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, bunday bog'liqlikni samarali deb hisoblash muin. Lekin, shu narsa katta ahamiyatga egaki, bu ittifoq Markaziy bank tomonidan qanchalik ixtiyoriy ravishda tuzilgan va kimga hisobdor va bank tizimida pul-kredit siyosatini tartibga solishdagi usullarni va yo'nalishlarni tanlashda hamda qonun bo'yicha Markaziy bank mustaqilligi darajasi va bunga xaqiqatda erishilganligiga ahamiyat berish lozim.

Markaziy bankning kapitalida va foydasini taqsimlashda davlatning ishtiroki omili Markaziy bank iqtisodiy mustaqilligining qanchalik darajadaligini ko'rsatadi. Lekin, bu qaramlik ikkilamchi rol o'ynaydi, chunki Markaziy bankning kapitali to'g'ridan-to'g'ri davlatga tegishli bo'lmasa ham, qonunchilikda ma'lum sharx mavjud buladi. Agar mavjud bo'lmasa, davlat egri usullardan foydalanadi. Misol qilib, Avstriya Milliy banki xakidagi konunni olaylik. Ushbu faoliyat ko'rsatayotgan bank xuddi xissadorlik jamiyati shaklida tuzilgan (Markaziy bankning 50 % kapitali Federatsiyaga, kolgan 50% kapitali Avstriyalik yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli). Markaziy bank kapitaliga faqat Moliya vazirligidan ruxsat olgan yuridik va jismoniy shaxslargina ulush ko'sha olish xuquqiga egadirlar. Pay (ulush) meros (vorislik) orqali o'tishi yoki Moliya vazirligi ruxsati bilan sotilishi mumkin. Bundan tashqari, Markaziy bankning funksiya va vazifalari qonunda ko'rsatilgan. SHu sababli ulush egalari yig'ilishi chegaralangan

masalalarnigina echa oladi. Albatta, bu masalalar bankning iqtisodiy siyosati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bulmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankini ham Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Gollandiya, Daniya va Rossiya kabi davlatlarning Markaziy banklari guruxlari katoriga kiritish mumkin. Chunki bu guruxlar kapitalining 100 foizi davlat mulki hisoblanadi. Quyida ayrim Markaziy banklar kapitalida davlatlarning ishtirokini aks etuvchi jadvalni keltiramiz.

1-jadval

Markaziy banklar kapitalida davlatlarning ishtiroki

Mamlakatlar	Mulkdagi ulushi, foizda
Buyuk Britaniya	Davlat mulki – 100%
Daniya	Davlat mulki – 100%
Gollandiya	Davlat mulki – 100%
Rossiya	Davlat mulki – 100%
Germaniya	Davlat mulki – 100%
Frantsiya	Davlat mulki – 100%
Shveytsariya	Yuridik shaxslar mulki – 43%; Kanton (ma'muriy bulinma) lar mulki – 57%
Italiya	Banklar va sugurta kompaniyalarining mulki – 100%
AQSh	Federal rezerv tizimiga a'zo banklarning mulki – 100%
Yaponiya	Davlat mulki – 55%; yuridik shaxslar mulki – 45%
Avstriya	Federatsiya mulki – 50%; Yuridik va jismoniy shaxslar mulki – 50%

Germaniya, AQSh, Buyuk Britaniya va Italiya kabi rivojlangan mamlakatlar Markaziy banklarining mamlakat xukumatiga nisbatan mustaqilligi turli darajada bulib, ushbu davlatlarda inflyasiya sur'ati ham turli darajadadir. Professor Alesinaning tadqiqot-lariga asosan 1973-1986 yillarda rivojlangan 17 ta davlatlar guruxi ichida eng past o'rtacha yillik inflyasiya sur'ati Germaniya va AQShda hamda eng yuqori ko'rsatkich Italiya va Buyuk Britaniyada kuzatilgan.

Shuningdek, Markaziy bankning mustaqilligi darajasini belgilovchi keyingi omillardan biri bank raxbarining saylanish tartibi hisoblanadi. Markaziy bankning siyosiy mustaqilligini ko'rsatuvchi uchinchi omil, unin konunda ko'rsatilgan faoliyati darajasi va maqsadlari hisoblanadi. Bu omil Markaziy bank faoliyatining erkinligini chegaralasada, uning konunda ko'rsatilgan vakolatlarini aniqlab beradi.

Markaziy bankning yuridik shaxs sifatida mamlakat ijrochi xukumatidan mustaqilligi uning zimmasiga yuklatilgan vazifalarida belgilanadi, ya'ni Markaziy bankning eng asosiy vazifasi bu, narx-navo barqarorligini ta'minlashdir. SHu bilan birga Markaziy bankning xukumat oldidagi mustaqilligi ikki xil ya'ni, siyosiy va iqtisodiy shaklni uz ichiga oladi.

Siyosiy mustaqillik – bu, Markaziy bankning pul massasini maqsadli yo'nalishlarini belgilashdagi mustaqilligi (avtonomiya) va iqtisodiy mustaqillikka - Markaziy bankning pul-kredit siyosatini olib borishda vositalarni mustaqil tanlash imkoniyati kiradi.

Markaziy bank siyosiy mustaqilligining shartlari bulib, uning boshqaruv organi a'zolari va boshqaruv raisini (prezidenti) belgilash, bank tomonidan qabul

kilingan masalalarni xukumat yoki parlament tomonidan ma'kullanishi hisoblanadi. Iqtisodiy mustaqillik esa uning xukumatga davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun yoki kreditlar berish uchun majburiyatni zimmasiga olmaslikda ifodalanadi. Bundan tashqari Markaziy bankning iqtisodiy mustaqil bo'lishida uning kredit tizimi ustidan olib boradigan nazoratida xukumatning aralashish darajasi ham muxim rol o'ynaydi.

Markaziy bank mustaqilligi deganda:

birinchidan, Markaziy bank hukumat iqtisodiy siyosatining umumiy doirasida ish olib borishi kerak. U xukumat siyosatidan farq qiladigan o'z mustaqil siyosatini amalga oshirishi mumkin emasligiga hech qanday shubha yo'q;

ikkinchidan, Markaziy bank o'zining pul-kredit siyosatini tezkor (operativ) amalga oshirishda mustaqil bo'lishi kerak. Bu siyosat hukumat iqtisodiy siyosatini qo'llab-quvvatlashi va iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlashi shart. Bu foiz stavkalari, likvidlikning bank nisbatlari hamda almashuv kurslaridagi texnik o'zgarishlarni Markaziy bank tizimning barqarorligini taminlash talabi darajasi asosida mustaqil belgilashi lozim degan ma'noni bildiradi.

Ana shu nuqtai nazardan u iqtisodiyotni boshqarishga mas'ul boshqa organlar bilan hamkorlikda muhim qarorlar qabul qiladi. Markaziy bank hukumat bilan munosabatlarga kirishadi hamda jahon amaliyotiga muvofiq uning bankiri, fiskal (xazina) agenti (vakili) hamda o'z vakolatlariga kiruvchi hamma muammolar yuzasidan maslahatchisi vazifalarini bajaradi, shuningdek iqtisodiy hamda moliya masalalari yuzasidan daalat byudjetini tayyorlashga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan ma'lumotni hukumatga taqdim etadi.

Markaziy bankka mazkur vakolatlarining berilishi ikki bosqichli bank tizimining unumli ish yuritishni ta'minlash imkonini beradi. Quyida sanaladigan vazifalarni samarali bajarish uchun Markaziy bank mintaqaviy muassasalarning keng tarmog'i va markaziy apparatga ega.

4. Bank ishi fanining huquqiy asoslari

Bank deb pul mablag'larini yig'uvchi, saklab beruvchi, kredit-hisob va boshqa xar-xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasalarga aytiladi.

Banklar paydo bo'lishining asosi bo'lib tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Tovarpul munosabatlarining bo'lishi va ularning rivojlanib borishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda banklarning xam bo'lishini takozo kiladi.

Bank so'zi italyancha "banca" so'zidan olingan bo'lib "stol", banknota "pullik stol" degan ma'noni anglatadi. O'rta asrlarda italiyalik puldorlar xamyonlaridagi, idishlardagi monetalarini stol ustida qo'yib hisob-kitob qilganlar.

Banklar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni yig'ish va kapitalga aylantirish;
- kredit munosabatlarida vositachilik qilish;
- to'lov jarayonlarida vositachilik qilish;
- muomalaga kredit vositalarini chiqarish.

Banklar o'z faoliyatlarida quyidagi bank operatsiyalarini amalga oshiradilar:

- jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, vakil banklarning hisob-

varaqlarini ochish va yuritish, hisob-varaqlar bo'yicha hisob-kitob qilish;

- omonatlarni jalb etish;
- kreditlarning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kreditlar berish.

Banklar boshqa turdagi operatsiyalarni ham amalga oshirishlari mumkin, chunonchi:

- mablag' egasi yoki mablag'ni tasarruf etuvchi bilan tuzilgan shartnomaga binoan pul mablag'larini boshqarish;
- chet el valyutasini naqd pul va naqd bo'lmagan pul shakllarida yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish;
- pul mablag'lari, veksellar, to'lov va hisob-kitob hujjatlarini inkasso qilish;
- uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish;
- uchinchi shaxslardan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish;
- qimmatli qog'ozlar chiqarish, xarid qilish, sotish hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;
- bank faoliyati yuzasidan maslahat va axborot xizmati ko'rsatish;
- *jismoniy va yuridik shaxslarga hujjatlar va boshqa boyliklarni saklash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi po'lat sandiqlarni ijaraga berish;*

Tijorat banklari xar kanday yuridik shaxslar singari uyushgan tashkilot bo'lib, uzining ichki tuzilishiga, uzviy alokador tarkibiy kismmlarga ega.

Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi aksioner jamiyat tuzilishiga o'xshashdir. Tijorat bankining oliy organi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Bu yig'ilishlarda aksiyadorlarning vakillari va aksiyador korxonalarning rahbarlari ishtirok etadilar. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ko'rib chiqishga qo'yilgan masalalar bo'yicha qaror qabul qilish uchun aksiyadorlarning kamida 3/4 qismi ishtirok qilishi lozim.

Bankning boshqaruvini direktorlar kengashi amalga oshiradi. Unga qo'shimcha tarzda bank boshqaruvini kuzatish va nazorat qilish mas'uliyati ham yuklatilgan. Direktorlar kengashi a'zolarining tarkibi va saylanish muddati tijorat banknig nizomi bilan belgilanadi.

Bank kengashi bank faoliyatining asosiy yo'nalishini, kredit siyosati va bankning boshqa rejalarini ko'rib chiqish, daromad, xarajatlar, foyda rejalarini tasdiqlash, shu'balarni ochish yoki yopish masalalarini ko'rib chiqish kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

Bank boshqaruvi bank faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi. Bank boshqaruvi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va direktorlar kengashi oldida javobgardir. Bank boshqaruvi boshqaruv raisi, rais o'rinbosari va boshqa xodimlardan tarkib topgan. U o'z faoliyatini nizom va yo'riqnomalarga asoslangan holda amalga oshiradi.

Aksionerlarning umumiy yig'ilishi, bank kengashi va boshqaruvi bankning boshqaruv organlari hisoblanadi.

Bank kengashi omonatchilar va aksiyadorlarni himoya qilish maqsadida bank faoliyatini, shu jumladan, kreditlash va mablag'larni investitsiyalashning to'g'riligini nazorat qilish:

- bank rahbarlarini ishga tayinlash va ishdan bo'shatish;
- bank kapitalining bir tekis o'sib borishini ta'minlab turish;
- bank siyosatini ishlab chiqish;
- qonun hujjatlariga rioya qilishni ta'minlash va boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Bank kengashi a'zolari kamida besh kishidan iborat bo'lishi lozim. Aksiyadorlardan tashqari bank sohasi olimlari va mutaxassislari ham bank kengashi a'zosi bo'lishlari mumkin.

Bankga operativ raxbarlik qiluvchi va uning faoliyati uchun javob beruvchi bank boshqaruvi bankning ijroiya organi hisoblanadi. Boshqaruv bank Kengashi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi oldida hisobdordirlar.

Biz xisobga olayotgan struktura bank faoliyatini tashkil qilishni ta'minlovchi eng umumiy tarkib hisoblanadi. Lekin bank tarkibiga bankning xususiyatini aks ettiruchi turli xil prinsiplarga asoslangan bevosita bo'limlar ham qo'shilishi mumkin.

Halqaro bank amaliyotida hizmatlar taklifi bilan shug'ullanuvchi bank qismini «**front office**» deb ataladi. Ularning vazifalari bo'lib, bank maxsulotlarini taklif etish, mijozlarni jalb qilish va x.k. hisoblanadi. Bank operatsiyalari muhitini amalga oshiruvchi qism esa «**back office**» deb ataladi. Uning vazifalariga operatsiyalar va loyihalar tahlili, ularni baholanishi, belgilangan loyihalar yoki operatsiyalar bo'yicha qarorlar qabul qilish va ularni bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish kiradi.

Bank turli xil muayyan hizmatlarni ko'rsatuvchi pul-kredit instituti ekanligini hisobga olib ushbu ikki tarkibiy bo'linmalar hususiyatini mutaxassislarning bajaradigan vazifalari bo'yicha ham yaqqolroq ajratib olish mumkin. Bunda bank mijozlariga bevosita hizmat ko'rsatuvchi mutaxassislar bo'lib, «front office» va barcha tarkibiy bo'linmalar va umumiy bankning normal vaziyatda ish olib borishini ta'minlovchi mutaxassislar «back office» hisoblanadi.

Bank, shu jumladan, chet el banki O'zbekiston Respublikasida o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi. Litsenziyada bank bajaradigan operatsiyalar ro'yxati ko'rsatiladi.

Litsenziyasiz amalga oshiriladigan bank faoliyati g'ayriqonuniy deb hisoblanadi va bunday faoliyat natijasida olingan daromad davlat byudjetiga olib qo'yilishi lozim.

Banklarni litsenziyalash jarayoni ikki bosqichdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqichda bank ochish uchun Markaziy bankning dastlabki ruxsatini olish hamda bankni ro'yxatdan o'tkazish va ikkinchi bosqich bank operatsiyalarini bajarish huquqini beruvchi litsenziyani olishdan iborat.

Dastlabki ruxsatnomani berish tug'risidagi qaror ariza va u bilan birga barcha zarur xujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab ko'pi bilan uch oy ichida qabul

qilinadi. Dastlabki ruxsatnomani berish yuzasidan qaror qabul qilishda asosiy omillar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- muassislarning moliyaviy imkoniyatlari va xolati;
- biznes-rejaning maqbulligi;
- kapitalning tuzilishi;
- daromadlilikning kelgusi istiqbollari;
- ko'zda tutilayotgan raxbarning malakasi va obro' e'tibori;
- bankni ochish uchun taqdim etilgan xujjatlarning amaldagi qonunchilikka muvofiqligi;
- tegishli bosh binosi va uskunalar bilan ta'minlanganligi;

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish uchun muassislar dastlabki ruxsatnoma olingan kundan boshlab uzog'i bilan olti oy muddatda qonun hujjatlarida belgilangan talablarni bajarishlari kerak.

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish haqidagi qaror Markaziy bank talablari bajarilgan kundan ko'pi bilan bir oylik muddatda chiqariladi.

Eng kam ustav kapitali bank muassislari tomonidan uni ro'yxatga olish paytigacha to'lanishi kerak. Ustav kapitali uchun to'lanadigan mablag'lar O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki yoki boshqa banklarda ochilgan jamg'arish hisob-varag'iga o'tkaziladi. Ko'rsatilgan mablag'lardan depozit sifatida foydalanishi xam mumkin.

Banklar ustav kapitalining eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Yangi ochilayotgan banklar ustav kapitalining eng kam miqdori quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- Aksiyadorlik tijorat banklarini ochish uchun 5.0 mln. Evro.;
- Xususiy tijorat banklarini ochish uchun 2.5 mln. Evro ekvivalentida.

Yuridik va jismoniy shaxslar, jumladan, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar bank muassislari va aksiyadorlari bo'lishi mumkin.

Xususiy tijorat banklari tashkil etilgan paytdan boshlab ikki yil mobaynida byudjetga daromad solig'i to'lashdan ozod qilinadi, bunda bo'shaydigan mablag'lar ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga va infrastrukturani rivojlantirishga yo'naltiriladi;

Nazorat uchun savollar:

1. Markaziy bank faoliyatining iqtisodiyotni boshqarishdagi roli.
2. Markaziy bankning asosiy vazifalari.
3. Markaziy bankga ta'qiqlangan faoliyat turlari.
4. Markaziy bank mustaqilligi tushunchasining mohiyati.
5. Markaziy bank kapitalida davlatning ishtiroki.
6. Markaziy banklarning tarixan paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi.
7. Bankning mohiyati.
8. Bankning funksiyalari.
9. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining tuzilishi.
10. Bank kengashining tuzilish va vazifalari.
11. Bank boshqaruv kengashining tuzilish va vazifalari.

12. Tijorat banklari faoliyatini litsenziyalashning maqsadi va vazifalari.
13. Tijorat banklari faoliyatini litsenziyalashning birinchi bosqichi vazifalari.
14. Tijorat banklari faoliyatini litsenziyalashning ikkinchi bosqichi vazifalari.
15. Tijorat banklari faoliyatini litsenziyalashda minimal ustav kapitalini belgilashning maqsadi va vazifalari.
16. Tijorat banklari faoliyatini litsenziyalashda hisobga olinadigan asosiy omillar.

2-mavzu: TIJORAT BANKLARI VA ULARNING TASHKILIY TUZILISHI. /2 soat/

Reja:

1. Bank faoliyatini tashkil etishning umumiy vazifalari.
2. Bank faoliyatini tashkil qilish printsiplari.

Tayanch iboralar: mexnat taqsimoti, bank rezervlari, bank boshqarmalari, departamentlar, bank kengashi, boshqaruv kengashi, bankning tijorat faoliyati, bankning moliyaviy faoliyati.

1. Bank faoliyatini tashkil etishning umumiy vazifalari.

Bank ishining asosiy vazifalaridan biri bu pul-kredit institutlari faoliyatini tashkil etishdir. «Tashkil etish» termini mexnat taqsimoti sharoitida xarakatlar tizimini ko'llashni anglatadi.

Bank va uning bulinmalari faoliyatini tashkil etishdan asosiy maqsad eng avvalo yuqori rentabellik, likvidlik va xavfsizlikka erishish kabi muxim vazifalar amalga oshirilishni talab qiladi. O'z-o'zidan ma'lumki, bankning boshqa maqsadlari xam bo'lishi mumkin, (masalan operatsiyalar xajmining miqdori va sifatini oshirish, xususiy kapital va bank rezervlarini ustirish), lekin birinchi aytib utilgan maqsadlar tijorat banklari uchun eng muxim vazifalar hisoblanadi.

Kupincha yuqori samaradorlik xarajatlarni daromadlarga nisbati hisobiga baxolanadi, bundan, bank faoliyati jarayonida xarajatlarni tejash yoki iktisod qilish g'oyasi vujudga keladi. Bank faoliyatida xarajatlar tarkibiy kismi qanchalik kam bo'lsa, oxirgi natijalar shunchalik sezilarli va ijobiy bo'ladi. Daromadni tejashga, fakat xarajatlar tarkibiy kismini qisqartirish orkaligina emas, balki bankning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish va ularning ish olib borish faoliyatini yaxshilash orkali natijaga erishish ham mumkin. SHuningdek, kredit berish jarayonini ya'ni kredit berish va uni kaytarish texnologiyasini takomillashtirish, orkali yuqori ijobiy natijaga erishish ham mumkin.

Amaliyotdan ma'lumki, bank bulinmalarining uzaro munosabatlarini yaxshilash, qaror va echimlarni qabul qilish jarayonini tezlashtiradi, kuzatuv va nazoratni kuchaytiradi va bank faoliyatini mukammallashtirishga yordam beradi. Xattoki boshqaruv apparatini oddiy bir kaytadan tashkil etish, ya'ni ortikcha bulinmalarni soddalashtirish evaziga xarajatlarni tejashda uzining ijobiy natijasini kursatadi. Bir nechta markazlarni tashkil qilish, (masalan likvidlikni boshqarish) xatoliklarni oldini olish va tugridan-tugri resurslarni yukotish xavfini kamaytiradi.

Bank faoliyatini tartibga solishning vazifasi, mexnat taqsimoti orkali tashkiliy tuzilmalarni yaratish (bulimlar, gurux, boshqarmalar, departament va boshqalar) bank maqsadlarini amalga oshirishda yordam beradi. SHuningdek tashkil etishning vazifasi shundan iboratki, bankning yulga kuyilgan maqsadlari va muvofiqlashtirish hisobiga kadrlarning tashkiliy va tuzilmaviy ishlarini yaxshilash lozim. SHunday kilib, bank faoliyatini tashkil etishning funktsiyalari turli xil maqsadli tuzilmalarni yaratish orkali bank faoliyati samaradorligiga erishishdir.

Bank faoliyatini tashkil qilishning uziga xos jixatlari mavjud. Bu jixatlar bankning uz tabiatiga kura ijtimoiy muxitdagi bir korxona sifatida yaratadigan maxsulotidan kelib chikadi. Bank maxsulotlariga to'lov vositalari, pul kapitallari va turli xil bozor xizmatlari kiradi. Ushbu vazifalar bankni yaratadigan maxsulotlariga nisbatan boshqa tadbirkorlik faoliyatlaridan ajratib turadi, yana bir tomondan esa bank faoliyati boshqa xar kanday faoliyat turlari bilan uzviy alokador va bog'liq tarzda ish olib boradi.

Banklar o'z faoliyatida moddiy ishlab chikarish texnologiyalari yordamida emas, balki pul mablag'larini jalb qilish va jamg'arish, kredit shaklidagi turli xil sxemalar orkali kayta tasimlash, kimmatbaxo-kogozlarni sotib olish va sotish, xarakatdagi sanoat va savdo korxonalari kapitalida ishtirok etish kabi funktsiyalar yordamida o'z ishini olib boradilar.

Bank faoliyatini tashkil qilishning yana bir ajralib turuvchi jixati bu bank xarajatlari tarkibida xodimlarga to'lanadigan mexnat xaki kismi boshqa ishlab chikarish faoliyati bilan shugullanayotgan korxonalar xarajatlariga nisbatan yuqoriligidadir. Bank faoliyatini tashkil qilishda menejmentning ob'ekti, ishlab chikarish muxitdagi korxonalardan farkli tarzda kadrlar faoliyatiga, ya'ni shaxs faoliyatiga karatiladi

2. Bank faoliyatini tashkil qilish printsiplari.

Tijorat banklari xar kanday yuridik shaxslar singari uyushgan tashkilot bo'lib, uzining ichki tuzilishiga, uzviy alokador tarkibiy kislmlarga ega. Xar kanday bank faoliyati turli xil bugin va xizmat kursatuvchi bulimlardan tarkib topadi va odatda bularga: bank kengashi, boshqaruv kengashi, umumiy boshqaruv masalalari, ya'ni tijorat, moliyaviy va avtomatlashtirish faoliyatlari bilan shugullanuvchi tarkibiy bulinmalar kiradi.

Bank kengashiga koidaga kura bank muassislari kiradi va ular kupchilikni tashkil kilib, ularning soni ba'zi bir banklarda bir necha unlab shaxslardan iborat bo'ladi. Bank muassislari sifatida davlat, yuridik va jismoniy shaxslar ishtirok etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida xususiy banklar xam mavjud va ularning muassislari bo'lib yakka shaxslar hisoblanadilar. Xalkaro amaliyotda banklar uchun mulkchilikning kuprok mos keladigan shakli bu aktsiyadorlik shaklidir va bunda muassis, ya'ni aktsionerlar xam yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadilar. Bank kengashi bankning yillik hisobotlarni tasdiklaydi, muassis va xissadorlarning yillik majlisini tashkil kiladi, bank faoliyatining strategik savollarini xal qilishda ishtirok etadi yoki ishtirok etishi mumkin.

Bank boshqaruv kengashi (direktorlar kengashi) bankning umumiy boshqaruviga javob beradi va uning strategik yunalishlarini beliglaydi va

tasdiklaydi. Boshqaruv kengashi tarkibiga bankning asosiy boshliklari, menejerlar, shuningdek urinbosarlar va bankning asosiy bulim boshliklari kiradi. Bankning ma'lum yoki tulik kismiga ega bo'lgan shaxslar bank kengashiga kirishi va xatto boshqarishi xam mumkin.

Boshqaruvning umumiy masalalariga rejalashtirish, bank faoliyatini prognozlashtirish (oldindan belgilash), uslubiyotlarni tayyorlash va ishlab chikish, yuridik va xavsizlik xizmatini yulga kuyish kabi vazifalar kiradi. Boshqaruv tarkibiga boshqaruvchilar (menejerlar), bank raisi (prezidenti, boshqaruvchisi) va uning urinbosarlari, bankning asosiy bulim boshliklari kiradi. Boshqaruv kengashiga bankga kisman yoki tulik egalik kiluvchi shaxslar kirishi va xatto boshqarishi xam mumkin.

Umumiy boshqaruv bloki vazifalariga rejalashtirishni tashkil qilish, bank faoliyatini prognozlashtirish (oldindan belgilash), uslubiyotlarni (metodika) tayyorlash va ishlab chikish, yuridik va xavfsizlik xizmatlari kiradi. Ushbu blokda bankning maqsadli yunalishlar buyicha rivojlanishi, oldiga kuyilgan vazifalarni bajarishi, daromad va xarajatlarni tartibga solish, kerakli resurslar bilan ta'minlash, asosiy faoliyat yunalishlari buyicha Markaziy bankning talablarini bajarish, ya'ni (aktivlar sifati, kapitalning etarliligi, likvidlik v.b.) kabi xizmatlar bajariladi. Odatda bunday masalalar iktisodiy-rejalashtirish boshqaruvi doirasida amalga oshiriladi. Uning faoliyati joriy faoliyatni, ya'ni (daromadlar, xarajatlar, foyda, likvidlik) kursatkichlarini, ustav fondini kayta tashkil qilish, bankning bosh boshqarmalari va filiallar faoliyatini rejalashtirish va uslubiyotlar ta'minotini taxlil qilishga karatiladi.

Tijorat faoliyati (moliyaviy blok) turli xil mijozlarga tijorat asosida xizmat kursatish bilan bog'liq bank xizmatlari, ya'ni kreditlash, investitsiyalash, valyuta, trast va boshqa aktiv operatsiyalarni tashkil kishni uz ichiga oladi. Bu blok bank daromadlarini shakllantiruvchi markaziy bugin hisoblanadi.

Bu blokka odatda, kredit boshqaruvi, operatsion boshqaruv, kimmatli-kogozlar va valyuta bilan bog'liq operatsiyalar boshqaruvi v.b.kiradi.

Kredit boshqaruvi kredit portfelini shakllantirish buyicha barcha ishlarni, ya'ni mijozlarni kreditlash, kredit ta'minoti nazorati, filiallarning kredit faoliyati nazorati, kredit operatsiyalari taxlili va uslubiy ta'minotlarni amalga oshiradi.

Birok bank daromadlari fakat kredit amaliyoti hisobigagina shakllanmaydi. Bank xizmatlari ichida hisob-kitob operatsiyalari ham salmokli uringa ega va shu hisobiga banklar mijozlardan komission xizmat to'lovlarini oladilar. Hisob-kitoblar muxitida bank ishini tashkil kiluvchilar bu amaliyot boshqarmalaridir.

Bunda bank xodimlarining asosiy funktsiyalariga mijozlardan, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslardan to'lov xujjatalarini qabul kilib ularning hisob-rakmlaridan pul mablag'larini yunaltirilgan hisob rakamlarga kuchirish; hisob cheklarini qabul qilish yoki berish va oxirida mijozlarning hisob-rakamiga o'tkazib kuyish, akkreditiv operatsiyalarini amalga oshirish; turli xil to'lov xujjatlarini tugri tuldirish buyicha maslaxatlar berish v.b. kabi vazifalar kiradi.

Tijorat blokida bankning kimmatli-kogozlar buyicha operatsiyalar bulimi xam mavjud va ushbu bulimning kimmatli-kogozlarni qabul qilish, saklash va hisobga olish vazifalari hisobiga bank belgilangan komission xizmat to'lovlarini olishiga

sharoit yaratadi. Afsuski, kimmatli kogozlar bozori rivojlanmaganligi hisobiga ushbu operatsiyalar O'zbekiston banklarida kullanilmaydi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining yana bir xususiyati shundaki, ularning tijorat bloki tarkibida rivojlanmagan bank xizmatlari xam mavjud, bularga: maxsus xalkaro kredit-hisob-kitob operatsiyalari, mijozlarning mulkini boshqarish va axoliga xizmat kursatish v.b. kabi operatsiyalar kiradi.

Moliyaviy blok bank faoliyatining tijorat korxonasi sifatida shaxsiy daromadlari va xarajatlari hisobini yuritish va ta'minlash vazifalari bilan shugullanadi. Bu blokka buxgalteriya, ichki bank hisob-kitoblari va korrespondentlik munosabatlari bulimi va kassa kiradi. Ba'zi xolatlarda ushbu bulimga yana inkassatsiya bulimi xam kiritiladi (naqd pullarni muomaladan yigishga ruxsati mavjud inkassatsiya bulimlari).

Tijorat banklari strukturasiining muxim elementi bo'lib, avtomatlashtirish bloki hisoblanadi. Xozirgi kunda zamonaviy banklar orkali o'tayotgan pul okimlarini (kreditlash, hisob-kitob va boshqa operatsiyalar) qo'lda ishlab tayyorlab bo'lmaydi, bunga texnik vositalarning kompleksi talab qilinadi (kompyuter, modem, faks v.b.), va shunga muvofik tijorat banklarida elektron ma'lumotlarni kayta ishlashini ta'minlovchi maxsus texnik blok xam bo'lishi kerak.

Ma'muriy blok kadrlar bulimini (kadrlar boshqaruvi) uz ichiga oladi va bo'lim vazifalari bo'lib, xodimlarni qabul qilish, belgilangan lavozimlarga nomzodlarni saralash, xodimlarning malakasini oshirish, ishga qabul qilish, xizmat darajasi buyicha lavozimini ko'tarish va ishdan bushatish, sekretariat, kontselyariya, shuningdek, bank binosiga xujalik va sotsial talablar bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi xujalik bulimlari kiradi.


Biz ko'rib chiqqan ushbu struktura bank faoliyatini tashkil qilishni ta'minlovchi eng umumiy tarkib hisoblanadi. Lekin bank tarkibiga bankning xususiyatini aks ettiruchi turli xil printsiplarga asoslangan bevosita bulimlar ham qo'shilishi mumkin.

Halqaro bank amaliyotida hizmatlar taklifi bilan shug'ullanuvchi bank kicmini «front office» deb ataladi. Ularning vazifalari bo'lib, bank maxsulotlarini taklif etish, mijozlarni jalb qilish va x.k. hisoblanadi. Bank operatsiyalari muhitini amalga oshiruvchi qism esa «back office» deb ataladi. Uning vazifalariga operatsiyalar va loyihalar tahlili, ularni baholanishi, belgilangan loyihalar yoki operatsiyalar bo'yicha qarorlar qabul qilish va ularni bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish kiradi.

Bank turli xil muyyan hizmatlarni ko'rsatuvchi pul-kredit instituti ekanligini hisobga olib ushbu ikki tarkibiy bo'linmalar hususiyatini mutaxassislarining bajaradigan vazifalari bo'yicha ham yaqqolroq ajratib olish mumkin. Bunda bank mijozlariga bevosita hizmat ko'rsatuvchi mutaxassislar bo'lib, «front office» va barcha tarkibiy bo'linmalar va umumiy bankning normal vaziyatda ish olib borishini ta'minlovchi mutaxassislar «back office» hisoblanadi.

Tijorat banklari bank tiziminiing muhim bo'g'ini bo'lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig'iladi va bu banklar xuquqiy, jismoniy shaxslarga o'z xizmatlarini ko'rsatadilar.


Bank bu shunday korxonaki, unda xom ashyo bo'lib depozit va qo'yilmalar hisoblansa, oxirgi tovar - bu berilgan ssudalardir. Depozit va qo'yilmalar jalb qilingan qarz mablag'lari, berilgan ssudalar esa - joylashtirilgan mablag'lar bo'lib hisoblanadi.



Har xil jismoniy shaxslar va tashkilotlardan pul mablag'larini jalb qilish uchun, qarz hajmiga qarab ma'lum summani foizlar shaklida to'lash kerak. Bo'lmasa mablag' qo'yuvchilar, yoki boshqa bankni tanlaydilar, yoki pul saqlashni boshqa shakllariga o'tadilar: masalan, oltin sotib olish, valyuta sotib olish yoki boshqa moliyaviy vositachilar xizmatlaridan foydalanish va boshqalar. Pul saqlash shaklini tanlashda mablag' qo'yuvchini ikkita muhim omil qiziqtiradi: moliyaviy vositachilarning ishonchliligi va daromad olish darajasi (qarzga to'lanadigan foizlar)dir.

2 - chizma

Bozor munosabatlarida tijorat banklarining turli sub'ektlari bilan o'zaro aloqasi



Boshqa tomondan, bank ssuda berganda uning summasiga qarab ssuda foizi shaklida to'lov undiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining bozor munosabatlarining sub'ektlari bilan aloqasi yanada kengayadi va chuqurlashib boradi. Bank bu holda barcha mablag'lari harakatini boshqarib boradi. Bu ikkita

foiz stavkalari o'rtasida farq - bank daromadining asosiy manbasi bo'lib, iqtisodiy adabiyotlarda u "marja" nomi bilan yuritiladi.

Shunday qilib, marja - bu jalb qilinuvchi va joylashtiriladigan qarz va ssuda foiz stavkalari o'rtasidagi farqdir.

Banklar mablag'larni jalb qilish va joylashtirish yo'li bilan barcha pul mablag'lari harakatini boshqarib boradi.

Bankning asosiy faoliyati vositachilik bilan bog'liq bo'lib, u pul mablag'larni qarz beruvchidan qarz oluvchilarga o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni bajarishdan iborat.

Banklar bilan bir qatorda pul mablag'lari harakatini boshqa moliyaviy va kredit tashkilotlari, investitsion fondlar, sug'urta kompaniyalari ham amalga oshiradilar. Biroq, bankning moliyaviy risklarning sub'ekti sifatida yuqorida keltirilgan boshqa sub'ektlar faoliyatidan farq qiladigan ikkita o'ziga xos xususiyati mavjud:

birinchidan, banklar faqat ular uchun xos bo'lgan qarz majburiyatlarini (depozitlar, omonat sertifikatlari va boshqalar) chiqaradilar va bu yo'l bilan yig'ilgan mablag'larni boshqa sub'ektlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar va qarz majburiyatlariga joylashtiradilar. Bankning bu xususiyati moliyaviy broker va dillerlar faoliyatidan farq qiladi, chunki ular moliya bozorida o'z qarz majburiyatlarini chiqarmasdan faoliyat ko'rsatadilar;

ikkinchidan, banklar jismoniy va yuridik shaxslar oldida mijozlarning pul mablag'larini hisobvaraqlariga qo'yish va jamg'arma o'tkazish, depozit sertifikatlarini chiqarish va boshqalar orqali qat'iy belgilangan qarz majburiyatlarini oladilar. Qat'iy belgilangan qarz majburiyatlar bilan faoliyat ko'rsatish banklar uchun riskli hisoblanadi, chunki banklar o'z kreditorlari oldida olgan majburiyatlarini to'liq bajarishlari lozim. Investitsion fondlar esa o'z aktivlari va passivlarining qiymati o'zgarishi bilan bog'liq risklarni o'z aktsiyadorlari zimmasiga yuklaydilar.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarini tashkil etish va ularning faoliyatini olib borish "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga asoslanadi. Yuqorida qayd etilgan qonunga asosan O'zbekiston Respublikasida banklar universal faoliyatni amalga oshiradilar. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, turli xilda kreditlar berish, qimmatli qog'ozlar va xorijiy valyuta oldi - sotdisi bilan shug'ullanish, bo'sh turgan pul mablag'larni jalb etish, hisob - kitoblarni amalga oshirish, kafolat va garantiyalar berish va hokazolar tijorat bankining asosiy faoliyat turlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy banklar va har qanday mulkchilik shakliga asoslangan banklar faoliyat ko'rsatishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari va ularning mulkchilik shakli to'g'risidagi ma'lumotlar 1 - ilovada keltirilgan bo'lib, ular turli mulkchilikka asoslangandir.

Odatda O'zbekistonda banklar aktsionerlik jamiyat ko'rinishida tashkil etiladi. Aktsionerlar bankning ustav fondiga qo'shgan hissalariga qarab bankning majburiyatlariga javobgardirlar. Aktsionerlar bank faoliyatini boshlang'ich bosqichida bankdan bank ta'sis qilingandagi qo'shgan hissalarini qaytarilishini

talab qilish huquqiga ega emaslar (ba'zi hollar mustasno). Bu holat bank barqarorligini, ishonchliligini tartibga solishda yordam beradi.

Bankning ustav fondini shakllantirish uchun davlat organlarining mablag'lari, jamoa birlashmalar va fondlarining mablag'lari, garov va kreditga olingan mablag'lardan foydalanish mumkin emas.

Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi aktsioner jamiyat tuzilishiga o'xshashdir. Tijorat bankining oliy organi aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Bu yig'ilishlarda aktsiyadorlarning vakillari va aktsiyador korxonalarning rahbarlari ishtirok etadilar. Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi ko'rib chiqishga qo'yilgan masalalar bo'yicha qaror qabul qilish uchun aktsiyadorlarning kamida 3/4 qismi ishtirok qilishi lozim.

3 - chizma

Aktsionerlik tijorat bankining boshqaruv organlari



Bankning boshqaruvini direktorlar kengashi amalga oshiradi. Unga qo'shimcha tarzda bank boshqaruvini kuzatish va nazorat qilish mas'uliyati ham yuklatilgan. Direktorlar kengashi a'zolarining tarkibi va saylanish muddati tijorat banknig nizomi bilan belgilanadi.

Bank kengashi bank faoliyatining asosiy yo'nalishini, kredit siyosati va bankning boshqa rejalarini ko'rib chiqish, daromad, xarajatlar, foyda rejalarini tasdiqlash, shu'balarni ochish yoki yopish masalalarini ko'rib chiqish kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

Bank boshqaruvi bank faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi. Bank boshqaruvi aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi va direktorlar kengashi oldida javobgardir. Bank boshqaruvi boshqaruv raisi, rais o'rinbosari va boshqa xodimlardan tarkib topgan. U o'z faoliyatini Nizom va yo'riqlarga asoslangan holda amalga oshiradi.

Aktsionerlarning umumiy yig'ilishi, bank kengashi va boshqaruvi bankning boshqaruv organlari hisoblanadi (3 - 4 ilovalar va 2 - chizma).

Bank kengashi omonatchilar va aktsiyadorlarni himoya qilish maqsadida bank faoliyatini, shu jumladan, kreditlash va mablag'larni investitsiyalashning to'g'riligini nazorat qilish:

- bank rahbarlarini ishga tayinlash va ishdan bo'shatish;
- bank kapitalining bir tekis o'sib borishini ta'minlab turish;
- bank siyosatini ishlab chiqish;
- qonun hujjatlariga rioya qilishni ta'minlash va boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Bank kengashi a'zolari kamida besh kishidan iborat bo'lishi lozim. Aktsiyadorlardan tashqari bank sohasi olimlari va mutaxassislari ham bank kengashi a'zosi bo'lishlari mumkin.

Bankga operativ raxbarlik qiluvchi va uning faoliyati uchun javob beruvchi bank boshqaruvi bankning ijroiya organi hisoblanadi. Boshqaruv bank Kengashi va aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi oldida hisobdordirlar.

Tijorat banklarning tashkiliy tuzilishini Respublika aktsiyadorlik tijorat banki misolida quyidagi chizmada ko'rish mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Bank faoliyatini rivojlantirishda bankning ichki strukturasini tashkil etishning maqsadi va vazifalari.
2. Bank bo'linmalarini tashkil etishning bank rentabelligiga ta'siri va ahamiyati.
3. Bank kengashining tuzilish va vazifalari.
4. Bank boshqaruv kengashining tuzilish va vazifalari.
5. Bankning tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi bo'linmalari va ularning vazifalari.
6. Bankning moliyaviy faoliyati bilan shug'ullanuvchi bo'linmalari va ularning vazifalari.
7. Bankning ma'muriy bloki vazifalari.
8. Halqaro amaliyotda bank ichki tuzilmasining tarkibiy bo'linishi.

3-mavzu: TIJORAT BANKLARINI TASHKIL ETISH VA TUGATISHNING HUQUQIY ASOSLARI. /2 soat/

Reja:

1. Bank tashkiliy tuzilmasining tasniflanishi.
2. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish tartiblari.

Tayanch iboralar: bankning ma'muriy bloki, sho'ba banklar, asossatsiyalashgan banklar, bank vakolatxonalari, emission banklar, bankning minimal ustav kapitali, litsenziya;

1. Bank tashkiliy tuzilmasining tasniflanishi.

YUqorida bank faoliyatini tashkil qilish buyicha aytib o'tilgan bank strukturasini yagona struktura deb hisoblab bo'lmaydi. Ko'p omillar bank oldida turgan konkret maqsadlar va vazifalar, ixtisoslashuvning turi va xususiyati, tashkil qilishning mohiyatiga bog'liq hisoblanadi. Bank jamg'arma banki, ipoteka banki, trast banki, mayda kredit uyushmalari sifatida tashkil qilinishi mumkin va ushbu bank ixtisosliklari-ning har biri o'zining konkret afzalliklari va yo'nashiga ega bo'ladi.

Bank turlarining tasniflanishi.

Tasnif kriteriyalari	Bank turlari
Mulkchilik turlari bo'yicha	Davlat, aktsiyadorlik, kooperativ, xususiy, qushma, chet el
Tashkil etishning huquqiy shakllari bo'yicha	Ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati, yopiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati, ma'suliyati cheklangan jamiyat
Funksional vazifalari	Emission, depozit, tijorat
Operatsiyalarni olib borish xususiyati bo'yicha	Universal, ixtisoslashgan
Tarmoqlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha	Ko'p tarmoqli, monotarmoqli
Filiallar hisobi bo'yicha	Filiatsiz, ko'p filiali
Faoliyat masshtablari bo'yicha	Katta, o'rta, kichik
Maxsus vazifalari bo'yicha	Rivojlantirish, munitsipal, ipoteka
O'zaro tobelik darajasi bo'yicha	Bosh bank (materinskiy), sho'ba banklari (docherniy), asossatsiyalashgan banklar.
Alohida vakolatlarni olib borish darajasi bo'yicha	Agent banklar, vakil qilib yuborilgan banklar
Faoliyat samaradorligi bo'yicha	Moliyaviy qiyinchilik belgilari yo'q banklar, faoliyatida alohida kamchiliklarga ega banklar, jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan banklar, moliyaviy krizis xolatida turgan banklar.

YUqoridagi bank turlariga nisbatan bank bulinmalarining tarkibiy tuzilishi keskin o'zgaradi deb aytib bo'lmaydi, bank o'zining umumiy xususiyatga ko'ra bank deb hisoblanadi va uning umumiy strukturasini ham o'zgarmaydi. Lekin kredit tashkilotining faoliyat yo'nalishiga asosan xar bir ixtisoslik, boshqaruv apparati strukturasiga o'zining alohida xususiyatlarini olib kiradi. Masalan, aktsiyadorlik banklarida xususiy banklarga nisbatan aksionerlarning qiziqishlarini umumlashtiruvchi bank kengashining roli ahamiyatliroq hisoblanadi, ipoteka bankida ko'chmas mulklarni baholash bo'yicha spetsifik bo'limlar muhimligi, investitsion banklarda loyihalarni moliyalashtirish bo'limlari, trast bankida esa mijozlarning turli xil mulklarini boshqarish bo'limlarining vazifalari asosiy o'ringa chiqadi.

Bankning u yoki bu tashkiliy strukturasini belgilangan meyoriy talablarga ham bog'liq bo'ladi. Ma'lumki bank faoliyatini nazorat qilish organlari bankni ro'yhatdan o'tkazish va litsenziya berish jarayonida qator hujjatlarni taqdim etilishini talab qiladi, bunda muassislik shartnomalari, bankning asosiy boshqaruv

organlarini belgilovchi bank ustavi, yangi ochilayotgan kredit institutining xususiyatlaridan kelib chiquvchi tashkiliy tuzilmasi. Huquqiy meyorlarga asosan qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslar kequsida ustavdagi barcha uzgarishlar, dastlab faoliyat muhitidagi o'zgarishlar qismi, ya'ni bank kapitalida yoki ichki o'zgarishlar haqida bank faoliyatini nazorat qiluvchi organlarga habar etkazishlari lozim. YAngi bank tashkil qilinayotganda uning muassislari mulkchilik shakli (aktsiyador, kooperativ, xususiy v.b.) va qanday tarkibiy bo'linmalar (boshqarmalar, bo'limlar, sektorlar) yaratilishi kerak ekanligini aniq belgilab olishlari lozim.

2. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish tartiblari.

Bank, shu jumladan, chet el banki O'zbekiston Respublikasida o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi. Litsenziyada bank bajaradigan operatsiyalar ro'yxati ko'rsatiladi.

Litsenziyasiz amalga oshiriladigan bank faoliyati g'ayriqonuniy deb hisoblanadi va bunday faoliyat natijasida olingan daromad davlat byudjetiga olib kuyilishi lozim.

Banklarni litsenziyalash jarayoni ikki bosqichdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqichda bank ochish uchun Markaziy bankning dastlabki ruxsatini olish hamda bankni ro'yxatdan o'tkazish va ikkinchi bosqich bank operatsiyalarini bajarish huquqini beruvchi litsenziyani olishdan iborat.

Dastlabki ruxsatnomani berish tug'risidagi qaror ariza va u bilan birga barcha zarur xujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab ko'pi bilan uch oy ichida qabul qilinadi. Dastlabki ruxsatnomani berish yuzasidan qaror qabul qilishda asosiy omillar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- muassislarning moliyaviy imkoniyatlari va xolati;
- biznes-rejaning maqbulligi;
- kapitalning tuzilishi;
- daromadlilikning kelgusi istiqbollari;
- ko'zda tutilayotgan raxbarning malakasi va obro' e'tibori;
- bankni ochish uchun taqdim etilgan xujjatlarning amaldagi qonunchilikka muvofiq-ligi;
- tegishli bashs binosi va uskunalar bilan ta'minlanganligi;

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish uchun muassislar dastlabki ruxsatnoma olingan kundan boshlab uzog'i bilan olti oy muddatda qonun hujjatlarida belgilangan talablarni bajarishlari kerak.

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish haqidagi qaror Markaziy bank talablari bajarilgan kundan ko'pi bilan bir oylik muddatda chiqariladi.

Markaziy bank quyidagilarga asosanib bankni ro'yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etishi mumkin:

- bankni ro'yxatga olish uchun zarur bo'lgan xujjatlar topshirilmagan-ligi;
- ta'sis xujjatlarining qonun xujjatlariga nomuvofikligi;

- bir yoki bir necha muassisning moliyaviy axvoli konikarsizligi;
- muassislarning moliyaviy mablag'larining manbalari e'lon qilinmaganligi;
- bankni ro'yxatga olish paytigacha eng kam ustav kapitalining tulamaganligi;

- bank raxbari va bosh buxgalteri lavozimlariga nomzodlarning bu kasbga nomuvofikligi;

Bankning ustav kapitali muassislarning va aksiyadorlari to'lagan pul mablag'laridan tashkil topadi.

Kreditga va garovga olingan mablag'lardan hamda boshqa jalb etilgan mablag'lardan bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun foydalanishga yul kuyilmaydi. Aloxida hollarda qonun xujjatlariga muvofik bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun byudjet mablag'laridan foydalanilishi mumkin.

Eng kam ustav kapitali bank muassislari tomonidan uni ro'yxatga olish paytigacha to'lanishi kerak. Ustav kapitali uchun to'lanadigan mablag'lar O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki yoki boshqa banklarda ochilgan jamg'arish hisob-varag'iga o'tkaziladi. Ko'rsatilgan mablag'lardan depozit sifatida foydalanishi xam mumkin.

Banklarning ustav kapitalining eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Aksiyadorlik tijorat bank ustav kapitalining eng kam miqdori 5 mln. evro ekvivalentiga teng bo'lgan summada belgilanadi.

Xususiy bank ustav kapitalining eng kam miqdori 2,5 mln. evro miqdorida belgilanadi va faoliyatining dastlabki uch yili davomida o'zgartirilmaydi.

Yuridik va jismoniy shaxslar, jumladan, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar bank muassislari va aksiyadorlari bo'lishi mumkin.

Bir aksiyadorning tijorat banki ustav kapitalidagi ulushi 2000 yilning 1 yanvaridan boshlab - ustav kapitali umumiy miqdorining 20 foizi, 2001 yilning 1 yanvaridan boshlab - 13 foizi va 2002 yilning 1 yanvaridan boshlab 7 foizidan oshmasligi lozim (davlat ulushi, shuningdek, chet el kapitali ishtirokidagi banklar va xususiy banklardan tashkari).

Banklarning boshqa banklarning ustav kapitalida ishtirokiga ruxsat etilmaydi. Chet el kapitali ishtirokidagi banklar va sho'ba banklari (docherniy banklar) tashkil etish xollari bundan mustasno.

Bir yuridik yoki jismoniy shaxs yoxud bitim orkali yozaro bog'langan yoki bir-birining mol-mulkini nazorat qiluvchi bir guruh yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bir yoki bir necha bitim natijasida bank aksiyalarining 5 fozidan ortig'i sotib olinsa, bu xakda Markaziy bankka xabar berilishi, 20 fozidan ortig'i sotib olinsa, Markaziy bankdan oddindan rozilik olinishi lozim.

Shaxs bankni boshqarish yoki uning siyosatiga katta ta'sir o'tkazish imkoniyatiga quyidagi xollarda ega bo'ladi:

- mazkur yuridik shaxs (bank)ning yirik ishtirokchisi bo'lsa;
- aksiyadorlar, raxbariyat yoki ishtirokchilar rasmiy ravishda bitim tuzib yoki boshqa tarzda shaxs faoliyatiga raxbarlik qilish yoki uni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lsa;

Nazorat uchun savollar:

1. Bankning mulkchilik turlari bo'yicha tasniflanishi.
2. Bankni tashkil etishning huquqiy shakllari bo'yicha tasniflanishi.
3. Bankning funktsional vazifalari bo'yicha tasniflanishi.
4. Bankning operatsiyalarni olib borish xususiyatlari bo'yicha tasniflanishi.
5. Bankning filiallar hisobi bo'yicha tasniflanishi.
6. Bankning faoliyat masshtablari bo'yicha tasniflanishi.
7. Bankning maxsus vazifalari bo'yicha tasniflanishi.
8. Bankning o'zaro tobelik darajasi bo'yicha tasniflanishi.
9. Bankning alohida vakolatlarni olib borish darajasi bo'yicha tasniflanishi.
10. Bankning faoliyat samaradorligi bo'yicha tasniflanishi.
11. Tijorat banklari faoliyatini litsenziyalashning maqsadi va vazifalari.
12. Tijorat banklari faoliyatini litsenziyalashning birinchi bosqichi vazifalari.
13. Tijorat banklari faoliyatini litsenziyalashning ikkinchi bosqichi vazifalari.
14. Tijorat banklari faoliyatini litsenziyalashda minimal ustav kapitalini belgilashning maqsadi va vazifalari.
15. Tijorat banklari faoliyatini litsenziyalashda hisobga olinadigan asosiy omillar.

4-mavzu: TIJORAT BANKLARINING RESURLARI VA BANK KAPITALI. /2 soat/

Reja:

1. Tijorat banklarining resurslari tuzilishi va tarkibi
2. Tijorat banklarining o'z mablag'lari.
3. Jalb qilingan mablag'lar haqida tushuncha.

Tayanch iboralar: resurslar, depozit, ustav fondi, rezerv fondi, maxsus fondlar, o'z mablag'lar, jalb qilingan mablag'lar, bo'sh rezervlar.

1. Tijorat banklarining resurslari tuzilishi va tarkibi.

Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari hisoblanadi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarining passiv va aktiv-passiv hisob raqamlaridagi pul mablag'larining salmog'i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo'lgan kredit resurslarini tashkil qiladi.

Bankning passiv operatsiyalarini to'rtta asosiy bo'limlarga ajratish mumkin, bular:

1. Qimmatli kog'ozlarni muomalaga chiqarish yo'li bilan resurslar yig'ish;
2. Foyda hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish;
3. Boshqa yuridik shaxslarning kreditlari, zayomlari va mablag'larini jalb qilish;
4. Depozit operatsiyalarini amalga oshirish;

Tijorat banklarining resurslari bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lari hisobiga shakllanadi.

Yuqorida kelgirilgan passiv operatsiyalarning birinchi va ikkinchi shakllarida banklarning o'z mablag'lari, ya'ni xususiy kapitali yuzaga keladi va qolgan oxirgi ikki shaklida kredit resurslarining ikkinchi qismi, jalb qilingan resurlar yuzaga keladi.

2. Tijorat banklarining o'z mablag'lari.

Banklarning o'z mablag'lariqa bankning ustav kapitali, rezerv kapitali, maxsus fondlar, moddiy rag'batlantirish fondi va boshqa xar xil tashkil qilingan fondlar va taqsimlanmagan foydasi kiradi. Amaliyotda bank passivlarining 20 foizi banklarning o'z mablag'lariqa to'g'ri keladi.

Banklarning o'z mablag'lari ichida asosiy o'rinni bankning o'z kapitali egallaydi. Bankning o'z kapitali tarkibiga biz yuqorida keltirib o'tgan kapitalning bir qismi, ya'ni ustav kapital, risklarni qoplash uchun tashkil qilingan rezerv fondlari va taqsimlanmagan foyda kiradi. Banklarning o'z kapitali bank kreditorlarining manfaatlarini ximoya qilish, bank faoliyatining barqarorligini ta'minlash, bank faoliyatini boshqarish kabi funksiyalarni bajaradi.

Bankning ustav kapitali summasi bank ustavida ko'rsatiladi va bank ishini boshlashning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Banklarni tashkil qilishning shakllariga qarab bankning ustav kapitali ham xar xil tashkil topadi. Agar bank aktsiyadorlik jamiyati tariqasida tashkil qilinadigan bo'lsa, ustav fondi aktsiyalar chiqarish va joylashtirish yo'li orqali tashkil topadi. Banklarning ustav kapitali summasi qonun yo'li bilan chegaralanmaydi. Banklarning barqaror faoliyatini ta'minlash maqsadida uning minimal miqdori belgilab beriladi.

Bank ustav kapitali miqdorining o'zgarishi ustav kapitali miqdorining oshirilishi yoki kamaytirilishi shakllarida amalga oshirilishi mumkin. Bank ustav kapitali miqdorining oshirilishi qo'shimcha aktsiyalarni joylashtirish yoki aktsiyalar nominal qiymatini oshirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Aktsiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan bank ustav kapitalini oshirish quyidagi usullar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- moliyaviy yil yakuni bo'yicha ko'rilgan foydaning bir qismini yoki hammasini aktsiyalar nominal qiymatini oshirishga yo'naltirish;
- aktsiyadorlar tomonidan aktsiyalar nominal qiymati oshirilgan qismining to'lanishi;
- moliyaviy yil ya'kuni bo'yicha ko'rsatilgan bank foydasini aktsiyalar nominal qiymatini oshirishga yo'naltirish va aktsiyadorlar tomonidan aktsiyalar oshirilgan nominal qiymatining etishmaydigan qismining to'lanishi.

Aktsiyalar chiqarish yoki ularning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan bankning ustav kapitalini ko'paytirish Markaziy bankning litsenziyalash departamenti ro'xsati bilan amalga oshiriladi.

Bankning o'z kapitali hissasining kamayishi ba'zi hollarda banklarning sinishiga olib keladi.

AQShda kattaligi bo'yicha yigirmanchi o'rinda turuvchi "Franklin neshnl bank"ni sinishining sabablaridan biri - bankning o'z kapitali hissasining bank

balansida keskin qisqarishi bo'lgan. Xuddi shu sabab, 1979 yil aktivida 250 mln. AQSH dollari va 44 ming omonatchisiga ega bo'lgan AQSHdagi "Dnuverz neshnl benk of CHikago" bankining sinishining asosi hisoblanadi.

Iqtisodiy yoki bank inqirozlari davrida passivlar va ularni joylashtirish sohasida etarli darajada o'ylab chiqilmagan siyosat banklarning sinishiga olib keladi.

1980 yillarning ikkinchi yarmida AQSHda banklarning bankrotlik soni o'sdi. 1984 yilda AQSHda birinchi o'nlikda turuvchi yirik banklardan biri bo'lgan "Kontinental Illinoys" bankining sinish holatining, xukumatning maxsus dasturi orqali oldi olindi.

Federal rezerv sistema bo'lgan AQSH Markaziy banki o'z ixtiyoriga olgan bir necha milliard AQSH dollarini muvofiqlashtiribgina qolmay, balki depozitlarni sug'urtalash Federal uyushmasi va AQSH Moliya ministrligi bilan birga bank to'lash qobiliyatini mustaxkamlash sohasida kafil sifatida chiqdi.

Tijorat banklari sinishlarining eng ko'pi 1988 yilga to'g'ri kelgan. Iqtisodiy ko'tarilish tufayli AQSH da tijorat banklari sinishing soni o'zining avvalgi holiga tushgan. Shunga ko'ra 1994 yilda faqatgina 13 ta tijorat banklari singan.

Ustav kapitali bank buxgalteriya balansining passivida ko'rsatiladi. Ustav fondi summasining oshirilishi bank aktsionerlari tomonidan umumiy yig'ilishda xal qilinadi. Qarz mablag'lar hisobiga bank ustav kapitalini tashkil qilish mumkii emas. Banklar tashkil qilinganda ustav kapitalining tarkibi moddiy mablag'lardan va pul mablag'laridan tashkil topadi. Bank faoliyatining boshlang'ich boskichlarida bankning o'z mablag'lari hisobidan birinchi navbatdagi bank xarajatlari (er. bino, asbob uskuna, ish xaqi) qoplanadi. Banklarning o'z mablag'lari uzoq muddatli aktivlarga qo'yilmalar qilishning asosiy manbai hisoblanadi.

Odatda Markaziy bank tijorat banklari uchun banklarning o'z mablag'lari bilan chetdan jalb qilingan resurslar o'rtasidagi chegarani belgilab beradi. O'zbekistonda bu nisbat $\frac{1}{20}$ miqdorda belgilangan.

Bankning aktsionerlik kapitali quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi, bular:

a) o'z aktsionerlik kapitali, bu kapital oddiy va imtiyozli aktsiyalar chiqarish va sotish hisobidan, taqsimlanmagan foyda hisobidan yuzaga keladi;

b) har xil ko'zda tutilmagan xarajatlarni va to'lanmagan qarzlarni qoplash uchun tashkil qilingan rezervlar;

v) bankning uzoq muddatli majburiyatlari (uzoq muddatli veksel va obligatsiyalar) bo'lishi mumkin.

Banklarning rezerv kapitali yoki rezerv fondi foydadan ajratmalar hisobiga hosil bo'ladi va ko'zda tutilmagan zararlar hamda qimmatli-qog'ozlar kursining tushishi natijasidagi yo'qotishlarni qoplash uchun mo'ljallangan.

Taqsimlanmagan foyda - rezerv fondiga ajratmalar to'langanidan so'ng qoladigan foydaning bir qismidir.

Banklarning o'z mablag'lari tijorat banklari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi va banklarning o'z kapitali xissasining kamayishi ba'zi xollarda banklarning sinishiga olib keladi.

Bankning o'z mablag'lari uning faoliyatining asosini tashkil qiladi, chunki ular jalb qilayotgan depozitlar, ya'ni real kredit resurslari hajmini pirovard natijada aktiv amaliyotlar hajmini belgilab beradi. Bankning o'z mablag'lari tijorat banklarining faoliyatini boshqaruvchi va ular ustidan nazoratni amalga oshiruvchi Markaziy bank uchun muhim ma'lumot manbai hisoblanadi.

Bankning o'z mablag'lariga ustav fond (kapital) rezerv fondi va bank foydasi hisobiga tashkil topadigan bank fondlari, hamda yil davomida taqsimlanmagan foyda kiradi. Amaliyotda bank passivlarining 20 foizi banklarning o'z mablag'lariga to'g'ri keladi. Bankning o'z mablag'lari ichida asosiy o'rinni ustav kapitali egallaydi.

Bankning ustav kapitali - bu bank ishini tashkil qilishning asosiy tayanch nuqtasi hisoblanadi.

Markaziy bankning me'yoriy talablariga muvofiq bank kapitali asosiy (birinchi daraja kapital) va qo'shimcha (ikkinchi daraja) kapitalidan iborat. Birinchi daraja kapital hisob - kitob qilingan kapital yig'indisining 50 foizidan kam bo'lmasligi lozim. Tartibga solish funksiyasini asosan, birinchi daraja kapital bajaradi, chunki u doimiyroq hisoblanadi.

Bank kapitali uning faoliyat yuritish chegaralarini belgilab beradi, investorlar hamda aktsiyadorlar va qolaversa, bankning o'zi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy barqarorlik darajasini ko'rsatib beradi.

Bankning tashkil topish shakliga qarab, ustav kapitalining shakllantirilishi turlicha bo'ladi. Agar bank aktsionerlik jamiyati ko'rinishida shakllanayotgan bo'lsa, ustav fondi aktsiyalarining nominal qiymati ko'rinishida tashkil topadi. Bunda aktsiyalar ochiq obuna qilish yo'li bilan yoki ta'sischilarning ustav fondidagi ulushlariga qarab tarqatilishi mumkin.

Agar bank ma'suliyati cheklangan jamiyat ko'rinishida tuzilgan bo'lsa, ustav fondi ulushlarga bo'lingan holda bo'ladi. Ularning hajmi ta'sis hujjatlari bilan aniqlanadi. Bunda bank ishtirokchilari o'zlarining ulushlari me'yori chegarasida majburiyatlarni o'z zimmalariga oladilar.

Bankning tashkiliy - huquqiy shakliga qaramay, uning ustav fondi huquqiy va jismoniy shaxslarning to'lovlari orqali shakllanadi va ta'sischilarning majburiyatlarini bajarish uchun xizmat qiladi. Ustav fondi faqat bank ishtirokchilarining xususiy mablag'lari hisobiga tashkil topishi mumkin. Jalb qilingan kredit, garovga olingan, boshqa yo'llar bilan jalb qilingan mablag'lar hisobidan ustav fondini shakllantirishga yo'l qo'yilmaydi. Bankning ustav fondi faqat pul mablag'lari va moddiy aktivlar hisobiga tashkil topishi mumkin.

Respublika byudjeti mablag'lari, davlat nobyudjet fondlari mablag'lari va O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv va mahalliy hoqimiyat organlari ixtiyoridagi bo'sh pul mablag'lari va boshqa ob'ektlar banklarning ustav kapitali shakllanishida qatnashmaydi. Qonunda ko'rsatilgan xolatlarda bank ustav kapitalini shakllantirish uchun byudjet mablag'laridan foydalanish mumkin.

Agar aktsiyadorlar ustav kapitalini shakllantirishda qarz mablag'idan foydalansa, ustav fondiga qo'shilgan mablag' aktsiyadorga qaytarib beriladi va aktsiyalar kelgusida sotish uchun bankka qaytariladi.

Tashkil etilayotgan bank kapitalini eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Markaziy bank faoliyat shartlari, biznes - rejada ko'rsatilgan operatsiyalar turi va hajmiga qarab, bank ustav kapitali miqdoriga qo'shimcha talablar qo'yish mumkin. Ustav fondining minimal miqdori bankning barqaror faoliyatini ta'minlash uchun o'rnatiladi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat bankining ustav fondining minimal miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar oldingi paragraflarimizda keltirilgan edi.

Tashkil etilayotgan bank kapitalining etarlilik darajasini belgilashda quyidagi asosiy talablarga rioya qilinadi.

- Markaziy bank belgilagan ustav kapitalining eng kam miqdori yuzasidan talablarga muvofiqligi;

- Ko'zda tutilayotgan o'sishni qo'llab - quvvatlash darajasi;

- Ko'zda tutilayotgan daromadlar va asosiy foizlar darajasi;

- Muassislarning zarur hollarda qo'shimcha kapitallar kirita olish qobiliyati va boshqalar.

Faoliyat ko'rsatayotgan banklar ustav kapitaliga talablar iqtisodiy ahvol va bankning moliyaviy holatidan kelib chiqib markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Bank ustav kapitali miqdorini o'zgarishi va o'zgarishni ro'yxatga olish tartibi Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi.

Banklarni ustav kapitalining minimal miqdorini belgilanishi banklarni har xil risklardan saqlash maqsadida belgilanadi. Chunki bank ustav fondi qancha katta bo'lsa, uning resurslari ham ko'p bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi xududida o'z shu'ba bankini ochish yoki bu erdagi bank ustav kapitalida ishtirok qilish istagini bildirgan norezident bank ustav kapitali 30 mln. AQSH dollari ekvivalentiga teng summadan kam bo'lmasligi kerak.¹

Bankning tashkiliy shakliga qarab, ustav kapitali oshishi mumkin. Aktsionerlik jamiyati ko'rinishidagi tijorat banklar o'z ustav kapitalini oshirishlari uchun qo'shimcha miqdorda aktsiyalar chiqarishlari va ularni yuridik va jismoniy shaxslar orasida tarqatishi mumkin. Qo'shimcha mablag'larni jalb qilishda bu banklarga o'z qarz majburiyatlari - obligatsiyalar chiqarish xuquqi berilgan. Obligatsiyalar barcha aktsiyalar to'la to'lanib bo'lgach, ustav fondining 20% dan oshmaydigan qiymati hajmida chiqarilishi mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ko'rinishida tashkil topgan banklar o'zlarining ustav kapitallarini yoki qo'shimcha ishtirokchilarni ulushini oshirish orqali ko'paytirishlari mumkin.

Har yili har bir bank aktsioneri (ishtirokchisi) o'zining ustav kapitalidagi ulushiga mos ravishda bank foydasining bir qismini dividend ko'rinishida oladi.

Devidendlar hajmi va uni hisoblash tartibi aktsiya turi va chiqarilishi shartlariga bog'liq bo'ladi (oddiy yoki imtiyozli aktsiyalar).

Tijorat banklari aktiv operatsiyalari natijasi bo'lmish rezerv fondlar bank etarli foyda olmagan paytda bank obligatsiyalari bo'yicha foiz bo'lib xizmat qiladi. Rezerv fond foydadan ajratmalar hisobiga shakllanadi.

Rezerv fond bilan bir qatorda tijorat banklarda ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish fondlari foyda hisobiga tashkil topish mumkin. Ularni shakllantirish va

ishlatish tartibi tijorat hisob - kitoblari to'g'risidagi bank yo'riqnomalarida belgilanadi.

Bankning mijozlari oldidagi majburiyatlarini ta'minlash - bank mablag'larining asosiy funksiyasi bo'lib hisoblanadi. Ularga o'z majburiyatlari bo'yicha javobgarlikni ta'minlovchi kattalik sifatida qaralishi mumkin. Bank amaliyotida kapital resurslarni yo'qotish natijasida zarar ko'rilganda bank to'lov qobiliyatini saqlab qolish uchun resurslar rezerv bo'lib hisoblanadi. Chunki bank kapitali aktsionerlarga qaytarilmasligi ham mumkin. Bankning o'z resurslari miqdori uning faoliyat qo'lamiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki mablag'lari hajmidan kelib chiqadi. Bankning o'z mablag'lari uning moddiy bazasini rivojlantirish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Bank amaliyotida o'z kapitalning netto va brutto turlari farqlanadi. Bankning o'z kapitali - brutto - bankning barcha fondlari va balans bo'yicha taqsimlanmagan foydasi yig'indisiga teng. Bankning o'z kapitali - netto - bu kapital bruttodan o'z mablag'laridan kapital harajatlarning oshgan qismini, yo'l qo'yilgan va potentsial zararlar, sotib olingan xususiy aksiyalar va muddati 30 kundan ortiq bo'lgan debitor qarzlarni chegirib tashlangandan qolgan summaga teng. Shunday qilib, kapital - netto naqd mavjud bo'lgan bank o'z kapitalini o'zida aks ettiradi.

Tijorat bankning o'z kapitali miqdori ko'pgina omillarga bog'liq bo'ladi. Bu omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risidagi qonunga muvofiq, bankning o'z kapitali hajmi uning aktiv operatsiyalarini chegaraviy hajmini belgilab beradi. Shuning uchun ma'lum miqdor mijozlarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan bank (misol uchun, tarmoq banki) belgilangan normativlarga rioya qilgan holda, o'zlik kapitalining shunday miqdoriga egalik qilishlari kerakki, o'z doimiy mijozlarining asoslangan qarz mablag'lariga bo'lgan talablarini qondirishlari lozim.

Ikkinchidan, bank uchun zarur bo'lgan o'zlik kapitalining miqdorining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Mayda, lekin son jihatdan ko'pchilikni yirik kredit oluvchi korxonalarni tashkil qiluvchi bankda o'z mablag'lari nisbatan ko'p miqdorda kerak bo'ladi. Chunki yirik mijozlarga xizmat qiluvchi banklarda kreditning qaytarilmaslik riski katta bo'ladi.

Uchinchidan, tijorat bankining o'z kapitali miqdori, uning aktiv operatsiyalari xarakteriga bog'liq bo'ladi. Bank olib borayotgan operatsiyalari katta risklar bilan bog'liq bo'lishi, o'z mablag'larining nisbatan ko'p bo'lishini taqozo etadi. Bu hol, xususan, innovatsion banklarga tegishlidir. Agar bankning kredit portfelida minimum riskli ssudalar ko'pchilikni tashkil qilsa, bankning mablag'lari nisbatan kam bo'lishi mumkin. Bankning aktiv operatsiyalari xarakteriga qarab, bank kapitali va uning turli darajadagi riskli aktivlari o'rtasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki o'rnatgan normativlari bankning o'z kapitali miqdorini aniqlashga bir qancha yo'nalishlar belgilab beradi.

Bank kapitali hajmini aniqlayotganda banklar bu mablag'lar olinadigan foyda miqdorini aniqlanmasligini ham e'tiborga olishadi. Bu faqatgina, bankning aniq mijozlar doirasiga xizmat ko'rsatish imkonini ochib beradi.

To'rtinchidan, bankning zaruriy xususiy kapital miqdori kredit resurslari bozorining rivojlanganlik darajasiga va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki olib borayotgan pul - kredit siyosatiga bog'liq. Rivojlangan bozor sharoitida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining erkinlashtirilgan kredit siyosatini olib borishga yo'l ochib berishi natijasida tijorat bankining kredit resurslariga talabini qondirish osonlashadi va bankning zaruriy o'z mablag'lari darajasi kamayadi. Etarli darajada moliya bozorining rivojlanmaganligi, kredit siyosatining qattiq qo'lligi banklarning o'z mablag'larini doimiy tarzda oshirishni talab etadi.

Banklarning o'z mablag'lari miqdorini oshirishda 2 - usul ishlatilishi mumkin: qo'shimcha aktsiyalar chiqarish va ularni joylashtirish yoki chiqarilgan aktsiyalarning nominal qiymatini oshirish. Birinchi usul bilan foydani jamg'arish bankning rezerv va boshqa fondlarini jadallashtirilgan tarzda shakllantirish va ularni keyinchalik kapitalga aylantirish shaklida ro'y beradi. Bunda yil oxirigacha foydaning bir qismi to'g'ri kapitalga aylanishi ham mumkin. Bu usul ancha arzon, yangi paychilar jalb qilish yoki aktsiya chiqarish borasidagi qo'shimcha harajatlarni talab etmaydi. Lekin foydani jamg'arish joriy yilda aktsionerlarga to'lanadigan dividendlar miqdorini kamayishiga olib keladi. Bu esa bankning bozorda tutgan mavqeiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aktsiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan bank ustav kapitalini oshirish quyidagi usullar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- moliyaviy yil yakuni bo'yicha ko'rilgan foizning bir qismini yoki hammasini aktsiyalar nominal qiymatini oshirishga yo'naltirish;
- aktsiyadorlar tomonidan aktsiyalar nominal qiymati oshirilgan qismining to'lanishi;
- moliyaviy yil yakuni bo'yicha ko'rilgan bank foydasini aktsiyalar nominal qiymatini oshirishga yo'naltirish va aktsiyadorlar tomonidan aktsiyalar oshirilgan nominal qiymatining etishmaydigan qismining to'lanishi hisobidan amalga oshiriladi.

Bankning ustav kapitali aktsiyalar nominal qiymatini pasaytirish yoki aktsiyalar umumiy sonini qisqartirish, jumladan, keyinchalik ularni to'lash sharti bilan sotib olish orqali kamaytirilishi mumkin.

3. Jalb qilingan mablag'lar haqida tushuncha.

Jalb qilingan mablag'lar aktiv operatsiyalarni, avvalo kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun pul resurslariga bo'lgan ehtiyojni qoplaydi. Ularning roli juda katta bo'lib, bank resurslarining 70%dan ortig'ini tashkil qiladi. Yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo'sh mablag'laridan foydalanish orqali, tijorat banklari ular yordamida xalq xo'jaligining va aholining qo'shimcha aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, pullarni kapitalga aylanishiga yordam beradi.

Banklar mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, barcha mamlakatlarda bu jarayon Markaziy bank tomonidan tartibga solinib turadi. Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank kapitali bilan jalb qilingan mablag'lar orasidagi nisbatni bir qator zaruriy me'yorlar yordamida tartibga soladi. Bu quyidagi normativlar: kapital etariligi, bir kredit oluvchiga to'g'ri keladigan maksimal risk miqdori, aholidan jalb qilingan depozitlarning maksimal miqdori va boshqalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yo'riqnomasiga muvofiq, aholidan pul omonatlarini jalb qilish miqdori bankning o'z kapitali miqdori bilan chegaralanadi.

Hozirgi kunda banklar amaliyotida mavjud me'yoriy hujjatlarga asosan:

- davlat ixtisoslashtirilgan banklar bazasida tashkil topgan tijorat banklari uchun jalb qilinadigan mablag'lar hajmi o'z kapitalining 25 barobaridan oshmasligi kerak;

- yopiq turdagi aksioner banklar uchun 20 barobardan oshmasligi;

- ochiq turdagi aksioner banklar uchun 15 barobardan oshmasligi kerak.

Rejali iqtisodiyot davrida banklarda bo'sh turgan mablag'larini jalb qilishdan manfaatdorlik yo'q edi, chunki banklarning aktiv operatsiyalari miqdori jalb qilingan mablag'lar miqdoriga qarab emas, balki kredit qo'yilmalar bo'yicha o'rnatilgan limitga qarab aniqlanar, jalb qilingan mablag'lar bo'yicha rag'batlantirish bilan banklar shug'ullanmas edilar. Aksariyat hollarda yirik loyihalarni amalga oshirish uchun bank ssudalari o'rniga ko'proq byudjet mablag'lari jalb qilinardi. SHu bois muddatli omonatlarni o'rta va uzoq muddatli kredit manbalari sifatida jamg'arishga ehtiyoj bo'lmagan.

Ikki pog'onali bank tizimiga o'tilishi, iqtisodiy mustaqil tijorat banklarining tashkil topishi, banklarning o'z - o'zini moliyalashtirish tamoyiliga o'tishi, passivlar va aktivlar muvofiqligiga erishish muammosi bank faoliyatida dolzarb masalalarga aylandi. Bozor munosabatlarining rivojlantirish bank resurslarining ham turli - tumanlashuviga olib keldi.

Banklar jalb qiladigan mablag'lar tarkibi turlicha bo'ladi. Ularning asosiy turlariga quyidagilar kiradi: bank mijozlar bilan ishlash jarayonida jalb qilgan mablag'lar (depozitlar), o'z qarz majburiyatlarini chiqarish yo'li bilan mablag'larni to'plash (depozit va jamg'arma sertifikatlarini, veksellar, obligatsiyalar) va banklararo kredit vositasida boshqa kredit tashkilotlaridan olinadigan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olinadigan ssuda mablag'lari va boshqalar kiradi. Xalqaro bank amaliyotida jalb qilingan resurslar ularni yig'ish usuliga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- depozitlar;

- nodepozit resurslar.

Jalb qilingan mablag'larni asosiy qismini depozitlar tashkil qiladi.

Banklarda maqsadlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larini qo'yilmalarga jalb qilish operatsiyalari depozit operatsiyalari deyiladi.

Depozitlar faqatgina omonatchiga emas, shu bilan birga bankka ham manfaatlidir. Ko'pgina depozitlar orqali bankning ssuda kapitali shakllanadi, keyinchalik esa bank turli xo'jalik sohalarini qulay shartlar asosida kreditlaydi. Depozit va kredit foizlari orasidagi farq bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va ssuda kapitalini joylashtirish borasidagi bank marjasi (mukofoti) bo'lib hisoblanadi.

Bankning "Oltin qoidasi"ga ko'ra, bank moliyaviy talablarining hajmi va muddati bank majburiyatlari miqdori va muddatiga mos kelishi kerak. Bu qoidaga rioya qilib, banklar joriy schetlar bo'yicha qoldiqlarni kredit resursi sifatida ishlata olmaydilar, chunki mijozlar ularni xohlagan vaqtda talab qilib olishlari mumkin. Vaholanki, mijozlar, odatda, o'z mablag'larining hammasini birdaniga olishmaydi, shuning uchun, bankning naqd pul rezervi omonatlarga nisbatan shakllanadi.

Bundan tashqari, aksariyat bank operatsiyalari naqd pulsiz ko'rinishda amalga oshiriladi. Kassa zahiralari ko'rinishida bo'lmagan naqd pullar bank likvidligini oshiradi va u boshqa mijozlarga yoki bankka kredit sifatida yo'naltirilishi mumkin. Kassa zahiralariidan tashqari tijorat banklari tomonidan depozitlardan kredit resursi sifatida foydalanishda boshqa cheklovlar bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatiladigan majburiy zaxiralar shaklida ifodalanadi.

Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklarining resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini 90%gacha qoplashi mumkin, shuningdek aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda (eng avvalo kredit operatsiyalarini) muxim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklari yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini qo'yilmalar sifatida joylashtirib, ular yordamida halk xo'jaligining qo'shimcha oborot mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi va pul mablag'larining kapitalga aylanishiga imkon yaratadi, shuningdek axolining istemol kreditiga bo'lgan talabini kondiradi.

O'z mablag'lar va jalb qilingan mablag'lar bankning Markaziy bankda ro'yxatga olingan korrespondentlik hisob raqamida o'z aksini topadi va bu hisob-raqam aktiv hisoblanadi.

Bank majburiyatlariga nisbatan korrespondentlik hisob raqamining qoldig'i yuqoriligi maqsadga muvofiq sanaladi va ushbu ortiqcha mablag'lar bankning bo'sh turgan resurslari hisoblanadi. Bush turgan resurslarning salmog'i yuqori bo'lishi bankning barqarorligini anglatadi, lekin shunga nisbatan, resurslar bo'sh turganligi sababli bank foydasi kamroq bo'ladi. Endi ushbu jarayonni teskarisini olib qarasaq, ya'ni bo'sh turgan resurslar miqdori qanchalik kam bo'lsa, shunchalik bank faoliyati barqaror hisoblanadi va shunga nisbatan ko'p foydaga ham erishiladi. SHuning uchun hozirgi zamonaviy bank tizimida tijorat banklari korrespondentlik hisob raqamidagi qoldiqdan imkon darajada optimal foydalanishga ingilishlari lozim.

Nazorat uchun savollar.

1. Bank resurslarining mohiyati.
2. Bank resurslarining vazifalari.
3. Bankning xususiy kapitali haqida tushuncha.
4. Jalb qilingan mablag'larning tuzilishi va ahamiyati.
5. Bank ustav fondining tuzilishi va vazifalari.
6. Bank rezerv fondining tuzilishi va vazifalari.
7. Bankda maxsus fondlarni tashkil etishning maqsadi va vazifalari.
8. Taqsimlanmagan foyda haqida tushuncha va uning vazifalari.

5-mavzu: BANK AKTIVLARI, ULARNING MOHIYATI VA TARKIBI. /2 soat/

Reja:

1. Bank aktivlari haqida tushuncha.
2. Bank aktivlarni sifati va ularning tasniflanish tizimi.
3. Bank aktivlarini boshqarish.

Tayanch iboralar: *aktiv, investitsiya, nostro, vostro, kredit portfel, tendentsiya, aktivlar sifati, kredit ta'minoti, garov ob'ekti;*

1. Bank aktivlari haqida tushuncha.

Aktiv operatsiyalar bankning umumiy faoliyatida muxim va belgilovchi o'rinni tashkil etadi. Aktiv operatsiyalar deganda, bank daromad olish maqsadida resurslarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalari tushuniladi.

Bank aktivlariga bank buxgalteriya balansining aktiv bo'limini tashkil etuvchi barcha aktivlar kiradi. Tijorat banklari aktivlarini to'rtta bo'limga ajratish mumkin, bular:

- kassadagi naqd pullar va unga tenglashtirilgan mablag'lar (korschyot);

- qimmatli-qog'ozlarga investitsiya sifatida qo'yilgan mablag'lar;

- ssudalar;

- bino va inshootlar, transport vositalari, san'at asarlari, orgtexnika, mebel, jixozlar va bankning boshqa aktivlari;

Bankning moliyaviy xolatini ifodalovchi hisobotlarda birinchi darajali aktivlar bo'lib, bank kassasidagi naqd pullar va "nostro" hisob raqamlaridagi depozitlar, ya'ni bankning boshqa bank va moliyaviy tashkilotlarga qo'ygan muddatli depozit mablag'lari tushuniladi. Aktivlarning ushbu turi bankning birinchi darajali "mudofaa liniyasi" hisoblanib, depozitlar bo'yicha hisob kitoblarda yoki ularning butunlay, bankdan chiqib ketish xolatlarida asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Ikkinchi bo'lim aktivlariga, bankning likvid qimmatbaho-qog'ozlarga investitsiya sifatida qo'ygan pul mablag'lari kiradi. Ushbu bo'lim aktivlari bankning ikkinchi "mudofaa liniyasi"ni tashkil qilib, qimmatli-qog'ozlar o'z tabiatiga ko'ra naqd pulga bo'lgan talabni tezda kondiradi va tez daromad olish uchun safarbar qilinuvchi mablag'lar hisoblanadi. Ushbu bo'lim aktivlarini bankning "ikkilamchi rezervlari" deb ham atash mumkin.

Investitsiya sifatida qo'yilgan mablag'lar deganda davlatning qisqa muddatli qimmatbaxo qog'ozlari va obligatsiyalari, maxalliy xoqimiyat tashkilotlarining qisqa muddatli qimmatbaho-qog'ozlari va obligatsiyalari, shuningdek ikkilamchi bozordagi likvid hisoblangan qimmatbaho-qog'ozlarga qo'yilgan mablag'lar tushuniladi. Qimmatbaxo-qog'ozlar bank daromadining salmoqli qismini ta'minlab beradi va ularni naqd pulga konvertatsiyalash ham oson. SHuning uchun ushbu aktivlar mavkei umumiy aktivlar miqdorida yuqori o'ringa ega.

Bank aktivlarining eng ulkan qismini, shubxasiz bank kreditlari tashkil qiladi va ular jami aktivlar ichida 50% dan 75% gacha bo'lishi mumkin.

Tijorat banklarining kredit faoliyati O'zbekiston Respublikasining «Bank va banklar faoliyati to'g'risida Qonun», Fuqarolik kodeksi, Markaziy bankning Adliya vazirligi tomonidan 2000 yil 2 martda 905-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan «Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida Nizom (yangi taxriri)», Adliya vazirligi tomonidan 2000 yil 2 martda 906-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan «O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit xujjatlarini yuritish tartibi to'g'risida» Nizom, hamda Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilib Adliya vazirligida 902, 903, 907, 1074-raqamlar bilan davlat ro'yxatiga olingan tijorat banklari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar, kichik va o'rta biznes sub'ektlarini mikrokreditlash va kreditlash tartiblari to'g'risidagi Nizomlar asosida amalga oshiriladi.

Markaziy Bank tomonidan tijorat banklari kredit siyosatiga qo'yiladigan talablar Markaziy Bankning Adliya vazirligi tomonidan 2000 yil 2 martda 905-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan «Tijorat banklari kredit siyosatiga talablar to'g'risida Nizom (yangi taxrir)» asosida amalga oshiriladi.

Tijorat banklarining ichki kredit siyosatida berilayotgan kreditlarning xajmi va shakli, qisqa va uzoq muddatli kreditlar o'rtasidagi nisbat, moliyaviy axborotlarni tahlil etish jarayoni, kredit portfeli hamda mablag'larning qaytarib oilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar aks ettirilishi lozim. Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart.

Tijorat banklarining kredit siyosatida quyidagilar o'z ifodasini topgan bo'lishi talab etiladi:

- kredit siyosatining maqsadi va strategiyasi;
- vakolatlar darajasi va mas'uliyatni taksimlash;
- kredit turlari;
- kreditlarning ta'minlanishi;
- kreditlarni qaytarish;
- qarzдорlarga doir moliyaviy axborot;
- garov ta'minotiga nisbatan qo'yiladigan talablar;
- kredit monitoringiga nisbatan qo'yiladigan talablar;
- foiz stavkalari;
- bank bilan bog'liq shaxslarga beriladigan kreditlar;
- ko'zda tutilmagan xolatlar moddolari;
- kredit portfelini audit qilish;
- Bank Boshqaruvi va kengashiga taqdim etiladigan hisobotlar.

Kredit va uni to'lash jarayoni kredit shartnomasida ko'rsatilgan bo'lib, kreditor va qarz oluvchi o'rtasidagi majburiyatlar va huquq (javobgarlik)larni belgilab beradi. Unda kreditning maqsadi va ob'ekti, kredit miqdori, ssudani berish va uni to'lash muddati, kredit ta'minotining turlari, kredit uchun foiz stavkasi va boshqalar ko'rsatiladi. Ssudani to'lashni nazorat qilish bank kredit portfelining muntazam tahlil qilish asosida olib boriladi va kreditlarning sifat darajasi aniqlanadi. Tijorat banklari tomonidan beriladigan barcha kreditlar uning kredit portfelida o'z ifodasini topadi.

Harakatsiz kreditlarning salmog'i ortishi bankning kredit siyosati va ularni boshqarish tizimi zaifligidan dalolat beradi. Kredit portfelining sifati haqida aniq

va vaqtida ma'lumotlarni bosh bankga taqdim etilmaslik bank boshqaruvi uchun o'z vaqtida muxim choralarni tutishga xalaqit beradi.

Va nixoyat, to'rtinchi bo'lim aktivlariga bankning bino va inshootlarining xaqiqiy qiymati kiradi. Ushbu bo'lim aktivlari o'z tabiatiga ko'ra ikkinchi darijali aktivlar hisoblanadi va bankning jami aktivlar miqdorida kichik ulushga ega bo'ladilar, ya'ni 1 -10% gacha.

Endi bank balansi bo'yicha aktivlarni hisoblash formulasini ko'rib chiqamiz:

$$\text{AKTIV} = \text{PASSIV} + \text{AKTSIONERLIK KAPITALI} \quad \text{yoki}$$

$$C + S + L + MA = D + NDB + ES$$

C - kassadagi naqd pullar va boshqa banklardagi depozit qo'yilmalar;

S - davlat, maxalliy va boshqa emitentlarning qimmatbaxo qog'ozlari;

L - bankning kredit qo'yilmalari;

MA - ikkinchi darajali aktivlar;

D - boshqa kreditorlarning jalb qilingan mablag'lari va depozitlar;

NDB - foyda hisobidan tashkil qilingan fondlar;

ES - Aktsionerlik kapital (ustav fondi), ya'ni bankning uzoq muddatli stabil moliyaviy mablag'lari;

Tijorat banklarining aktivlari o'ziga xos belgilariga ko'ra likvidlik va risk darajasiga qarab hamda daromad keltirishiga qarab bir necha guruhlariga bo'linadi.

2.Bank aktivlarni sifati va ularning tasniflanish tizimi.

Bank aktivlarining sifati, xar bir aktivning likvidlik darajasiga nisbatan qo'llaniladigan tasnif (xarakteristika) hisoblanadi. Bank buxgalteriya balansining aktiv bo'limi xatarli aktivlar, mushkul va qadrsiz hisoblangan aktivlar, daromad keltiruvchi aktivlardan iborat bo'ladi.

Aktivlarni tasniflash tizimi barcha turdagi kreditlar, investitsiyalar, qimmatli-qog'ozlar oldi sotdisi va boshqa aktivlarni baholash uchun qo'llaniladi.

Kreditlarni tasniflash tizimi quyidagi mezonlar bo'yicha qarzdorni baxolashdan boshlanadi:

- tendentsiya va tarmoq (iqtisodiy sektor) kelajagi;
- qarzdorning moliyaviy axvoli;
- mijozning kredit tarixi;
- muayyan loyixaning iqtisodiy jixatdan asoslanishi (nizomi);
- korxonadagi raxbarlik va boshqarish sifati (agar kredit korxonaga berilsa);

Kredit tahlili va aktivlar tasnifi natijalari qarz oluvchining moliyaviy axvoli, kreditlarni to'lash tarixi va tegishli tarzda rasmiylashtirilgan garovning mavjudligi kabi omillarga bog'liq. Ushbu omillarni kredit portfeli va boshqa aktiv operatsiyalar bo'yicha mavjud xatarlarni aniqlash va baxolashda qo'llash juda muximdir.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ichida eng ulkan qismni kredit operatsiyalari tashkil qiladi va kredit operatsiyalari quyidagi tartib va toifalar bo'yicha tasniflanadi:

Yaxshi kreditlar. Ushbu kreditlar bo'yicha qarzlarning o'z muddatida to'lanishi shubxa tug'dirmaydi va qarz oluvchi moliyaviy jixatdan barqaror hisoblanadi. Yaxshi toifaga kiruvchi qarzdor, ya'ni bank mijozlari etarli miqdorda kapitalga ega, daromadlilik darajasi yuqori hamda barcha mavjud majburiyatlar bo'yicha, jumladan, mazkur qarzni qaytarish uchun etarli pul mablag'lari oqimiga ega sub'ekt hisoblanadi.

Bunda qarz oluvchi amalda bajariladigan, jumladan, bozorda raqobatlasha olishi, yaxshi maxsulot ishlab chiqarishga doir strategik rejaga ega va o'z maxsulotlari uchun marketing rejasiga ham ega bo'ladi.

Qarzdor mavqeini baholash krediga doir to'lovlar tarixi, garovning bozorda sotilishi (mulk va ko'chmas mulk, kafolat) kabi omillarni o'z ichiga oladi. Garov «yaxshi ta'minlangan» kredit mezonlariga mos keladi. Garov amaldagi Qonunchilikka muvofiq notarial jixatdan puxta tasdiqlangan bo'lishi va zarur xollarda tegishli mol-mulk bitimini ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatga olinishi lozim. Bank kredit qaytarilmagan xolda cheklovlarisiz va erkin ravishda uni garov hisobidan undirib olishi mumkin. Ta'minotga doir taqdim etilayotgan barcha xujjatlar Qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi kerak.

«Yaxshi» deb tasniflangan kreditlarda kreditni qaytarmaslik alomatlari bo'lmaydi. Foizlar muddati o'tgan kreditlar «Yaxshi» deb tasniflanishi mumkin emas.

Standart. Standart toifaga kiritilgan kreditlar berilishida ikkilamchi to'lov manbasi (kafolat yoki garov bilan) puxta ta'minlangan bo'lishi lozim. Umuman olganda, qarzdorning moliyaviy axvoli barqaror hisoblanib, lekin ayrim noqulay vaziyatlar yoki yo'nalishlar mavjud bo'lsa va agarda ular bartaraf etilmasa, qarzdorning kreditni o'z vaqtida to'lash qobiliyatiga nisbatan shubxa uyg'onishi mumkin. Kredit xujjatlarida etarlicha axborot bo'lmagan yoki garov ta'minoti bo'yicha xujjatlari bo'lmagan «Yaxshi» kreditlar (aktivlar) ham «Standart» aktivlar sifatida tasniflanishi mumkin.

Tulanmagan foizlari yangi kreditga aylanadigan (kapitallashtiriladigan) kredit xech bo'lmaganda «Standart» aktiv sifatida tasniflanishi zarur. Qisqa vaqt mobaynida (30 kungacha) kechiktirilgan kreditlar «Standart» aktivlar sifatida tasniflanadi.

«Standart» sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha bank qaytarilmagan asosiy qarz summasining 10 foiz miqdorida zaxiralar tuzishi shart.

Substandart. Substandart kreditlar aniq ifodalangan kamchilik belgilariga ega bo'lib, bu xolat dastlabki shartnomaga muvofiq qarz qaytarilishi shartlarining bajarilishiga shubxa uyg'otadi. «Substandart» sifatida tasniflangan kreditlarda qarz to'lashning dastlabki manbai qarzga xizmat ko'rsatish uchun etarli darajada bulmaydi va bank qarzni qaytarish uchun qo'shimcha manbalar (garovdan undirish va qarzdor tomonidan ssuda qaytarilmaganda garovni sotish, asosiy fondlarni sotish singari manbalar)ni qidirishga majbur bo'ladi.

Substandart aktivlar odatdagiga nisbatan qoniqarli joriy moliyaviy axborotning yo'qligi yoki garov xujjatlarining etarli emasligi bilan bog'liq bo'lgan, tavakkalchilik darajasi ancha yuqori bo'lgan kreditlarni ifodalaydi.

Substandart sifatida tasniflangan kreditlarga foiz yoki asosiy qarz 30 kundan ortiq muddat davomida kechiktirilgan va ta'minlanmagan krsditlar, hamda xech bo'lmaganda 90 kundan ortiq muddat davomida kechiktirilgan ta'minlangan kreditlar kiradi.

«Substandart» sifatida tasniflangan kreditlar bo'yicha bank asosiy qarzning to'lanmagan summasiga nisbatan 25 foizga teng bo'lgan zaxiralarni shakllantirishi lozim.

Shubxali aktivlar. SHubxali kerditlar substandart kreditlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo'lib, mavjud sharoitda kreditlarning to'liq qaytarilishiga shubxa tug'diradi.

Bozorda oson sotiluvchan garovning mavjudligi yoki qarz oluvchining bankrot deb e'lon qilinishi, yaqin kelajakda aktivning kisman to'lanishi extimolining mavjudligi bo'lsa, kredit «shubxali» deb tasniflanishi mumkin. Bunda bank kreditlar bo'yicha ayrim to'lov turlarini yoki xech bo'lmaganda kisman to'lovlarni oladi.

Bank garovni undirib olish bo'yicha xuquqiy hatti harakatlarni ko'llay boshlaydi va ta'minot sotuvini o'z vaqtida amalga oshiradi (90 kun ichida).

«Shubxali» deb tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarz to'lanmagan summasining 50 foizi miqdorida zaxirani tashkil etishi shart.

Umidsiz. Umidsiz deb tasniflangan kreditlarga qaytarilmaydigan kreditlar kiradi. Qiymati juda pastligi tufayli bank aktivlari sifatida ularning hisobini yuritish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblanadi. Bunday tasniflash kreditlarda umuman xech qanday tugatiladigan qiymat mavjud emasligini biddirmaydi. Lekin banklar o'z balanslarida bu qarzdorlikning hisobini yuritishni davom ettirishlari maqsadga muvofiq emas. Bank garovga olingan mulkni sotish orqali bunday qarzdorlikni bartaraf etish choralari ko'rishi yoki uni qaytarish choralari qo'llashi kerak.

Kamida 180 kunga kechiktirilgan aktiv «umidsiz» deb tasniflanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan davr mobaynida aktiv qaytarilmasligidan dalolat beruvchi faktlar va belgilar mavjud bo'lsa, ushbu aktiv «umidsiz» deb tasniflanishi mumkin.

Umidsiz deb tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarzning to'lanmagan summasining 100 foizi miqdorida zaxiralar yaratishi kerak.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning bank amaliyotida aktivlarning sifatini aniqlashning asosiy mezon bo'lib riskka tortilgan aktivlarning kapitalga nisbati maydonga chiqayotir va shunga asosan banklar reytingi belgilanadi. Reyting besh tipdagi baholar turkumiga ega.

1 reyting (kuchli).

Agar tortilgan aktivlarning aksioner kapitaliga nisbati 5 foizdan oshmasa, ba'zi hollarda bu nisbat 5 foizlik chegaradan ozroq oshsa ham, agar bankning iqtisodiy sharoiti baquvvat bo'lsa va boshqaruv organlari o'zlarining muammoli

kreditlar bilan ishlashda bilimdonligini ko'rsatsa, bu aktivni kuchli aktivlar sifatida keltirish mumkin.

2 reyting (qoniqarli).

Rezervning o'rtacha tortilgan miqdori jami kapitalga nisbatan 15 % dan yuqori bo'lmasligi lozim. Bu holda ham ssudalar bo'yicha muammolar bo'lmasa, bankning kredit siyosati talab darajasida olib borilsa shu guruhga kiritish mumkin.

3 reyting (o'rtacha).

Tortilgan aktivlar jami kapitalning 30 foizidan oshmasligi kerak.

4 reyting (muammoli)

Tortilgan aktivlar jami kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak.

5 reyting (qoniqarsiz).

Tortilgan aktivlar jami kapitalning 50 foizidan oshgan holda qo'llaniladi.

Daromad keltirishga qarab bank aktivlari: daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi.

Daromad keltiruvchi aktivlarga quyidagilar kiradi:

a) Barcha berilgan kreditlar (jumladan banklararo kreditlar)

b) investitsiyalar (o'ziniki)

v) xazina veksellari

g) davlat obligatsiyalari

d) qimmatli qog'ozlar.

Daromad keltirmaydigan aktivlarga quyidagilar kiradi:

a) pul aktivlari guruhi

b) asosiy vositalar

v) kapital harajatlar

g) barcha moddiy aktivlar va boshqa aktivlar

d) nomoddiy aktivlar kiradi.

2 guruh aktivlariga bank faoliyatida katta e'tibor berilishi lozim. Chunki bu guruhda aktivlarni sifatini pasaytiruvchi aktivlar, muddati kechiktirilgan, foizsiz ssudalar, muddati o'tgan ssudalar va foizlar to'lanmagan ijara va boshqalar bo'lishi mumkin. Aktivlarning maqsadga muvofiq joylashishi bo'yicha umumiy ko'rsatkich - daromad keltiruvchi aktivlarning umumiy aktivlar summasiga nisbati orqali aniqlanadi. Tijorat banklarining daromad keltiruvchi asosiy aktivlari - mijozlarga berilgan kreditlardir. Banklarning ikkinchi daromad keltiruvchi aktiv turi - davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) ga jalb qilingan banklararo kreditlar va investitsiyalar kichik salmoqni tashkil qiladi.

Muddati o'tgan aktivlarning salmog'i umumiy aktivlar hajmidan 3 foizdan oshmasligi lozim.

Agar bu aktivlar miqdori 2 va undan ortiq marta o'rnatilgan normadan ko'p bo'lsa, bank faoliyati juda muammoli, uning kredit siyosati juda zaif deb baholanadi.

3. Bank aktivlarini boshqarish.

Iqtisodiy rivojlanish bosqichida tijorat banklarining asosiy ish tamoyillaridan biri - yuqori darajada foyda olishga yo'naltirilgan, qaratilgan bo'ladi. Biroq,

bularning faoliyati doimo foyda ko'rish bilan bog'liq bo'lmasdan, ular foyliyatida zarar ko'rish ehtimoli ham uchrab turishi mumkin. Banklar faoliyati ijobiy bo'lgan hollarda, ularning foyda olish va salbiy faoliyat natijasida banklarning zarar ko'rish ehtimoli yuqori darajada bo'ladi. YUqorida aytilgan foyda keltiruvchi rezervlarni amalda tadbiiq qilish jarayonida bankning ish faoliyati iqtisodiy jihatdan risk bilan bog'liq bo'ladi.

Aktivlarni boshqarish deganda o'z va jalb qilingan mablag'larni joylashtirish tartibi va yo'llari tushuniladi. Tijorat banklariga qo'llanilsa - bu naqd pullar, investitsiyalar, ssudalar va boshqa aktivlarga taqsimlashdir. Mablag'larni joylashtirishda asosiy diqqat qimmatli qog'ozlarga, investitsiyalar va ssuda operatsiyalariga qaratiladi. Mablag'larning aniq echimi shunday aktivlarni "sotib olish" kerakki, u bankka eng ko'p daromad olib kelsin. Biroq, tijorat banklarida fondlarni boshqarish qator omillar orqali qiyinlashmoqda.


Bank tomonidan jalb qilingan mablag'larning ko'pchilik qismi mijozlarning birinchi talabi bilan to'lanishi kerak yoki ogohlantirish muddati juda qisqa bo'ladi. SHuning uchun bankni oqilona boshqarishni birinchi darajali shartlaridan biri bu jamg'armachilar talablarini qondirish xususiyatini ta'minlash hisoblanadi. Ikkinchi shart - bank mijozlarining kreditga bo'lgan talabini qondira oladigan etarli mablag'larga ega bo'lish. Bunday kredit bera olish bank tijorat faoliyatining asosiy turidir. Mijozlarning kreditga bo'lgan talablarini qondira olmaslik bank tomonidan foydali operatsiyalarni yo'qotishiga, pirovardida esa sinish ehtimoliga olib keladi.

Banklarning mamlakatning asosiy pul massasini etkazib beruvchi sifatidagi roli ularga jamiyat oldida katta mas'uliyat yuklaydi. Jamiyatning bank sistemasining to'lovga layoqatliligi, likvidliligi va barqarorligi to'g'risida ishonchsizlikka sababi bo'lmasligi kerak, jamg'armachilar esa istalgan bank ishonchli ekanligiga imoni komil bo'lishi kerak, Bank jamg'armachilari va uning aktsiya ushlovchilari maqsadlarini bir - biriga taqqoslab bo'lmaydi. SHuning uchun bank o'z mablag'larini joylashtirayotganida hal etadigan asosiy masalalardan biri bu likvidlilik va foydalilik o'rtasidagi munosabatdir. Bir tomondan bank boshqaruv mablag'larni qimmatli qog'ozlarga joylashtirish orqali yuqori daromad olishga ko'z tutayotgan aktsiyadorlarning bosimini his etsa, ikkinchi tomondan bank boshqaruvi bunday faoliyat bank likvidliligini sezilarli darajada yomonlashtirishini, bu esa jamg'armachilarga o'z mablag'larini ololmasligini va eski mijozlarning kreditga bo'lgan talabini qondira ololmasligini aniq biladi.

Bank mablag'larini turli aktivlarga joylashtirish yuqori likvidlilik darajasini ushlab turish va ma'lum yuqori daromad olish ehtiyojini belgilab beruvchi mavjud qonun va tartibga soluvchi aktlardan kelib chiqadi. "Likvidlik - daromadlilik" dillemmasini echishga urinishlari aktivlarni boshqarishda 3 usulni keltirib chiqardi. Bu metodlardan birortasini ham etuk deb hisoblab bo'lmaydi, chunki ularning har birining diqqatga sazovor va kamchilik tomonlari mavjud. Har bir metodda alohida tijorat bankining aniq muammolarini echish uchun qo'llash mumkin bo'lgan elementlar mavjud. Qo'llanish nuqtai - nazaridan sodda bo'lgan metod - bu umumiy fond mablag'lari metodidir. (rool - of-funds approach). Bu metodni ko'pgina banklar mablag'lar ko'p bo'lgan davrda qo'llaydilar. Tijorat bank

boshqaruvchisi joylashtirilishi uchun javobgar bo'lgan mablag'lar turli manbalardan: talab qilib olinguncha qo'yilmalar, jamg'arma, muddatli qo'yilmalar, shuningdek bank o'z kapitalidan kelib tushadi. Ko'rib chiqilayotgan metod asosida bu resurslarni birlashtirish g'oyasi yotadi. So'ngra mablag'lar to'plami mos hisoblangan aktivlar turlari (ssudalar, davlat qimmatli qog'ozlari, kassadagi naqd pul va hokazo) o'rtasida taqsimlanadi. Umumiy fond mablag'lari metodida ma'lum aktiv operatsiyani amalga oshirishda mablag'lar qaysi manbadan kelib tushganligi ahamiyat kasb etmaydi, agarda ularning joylashtirilishi bank o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishga yordam bersa. Bu metod sxematik ravishda 1 - rasmda ko'rsatilgan.

1 - rasm. Umumiy fond mablag'lari modeli yordamida aktivlarni boshqarish.



Bu metod bank boshqaruvidan likvidlilik va daromadlilik printsiplarini teng amal qilishini talab etadi. SHuning uchun mablag'lar shu printsipga mos keladigan aktiv operatsiyalar turlariga joylashtiriladi.


Mablag'larni joylashtirish orqali operativ bo'lim boshliqlariga likvidlilik va daromadlilik nisbatlari muammolarini hal etishga ko'mak beruvchi ma'lum prioritetlar asosida amalga oshiriladi. Bu prioritetlar bank ixtiyoridagi mablag'ning qaysi qismi daromad keltirish uchun birinchi yoki ikkinchi galdagi rezervlarga joylashtirilish, ssuda yoki qimmatli qog'ozlar sotib olishga ishlatilishini ko'rsatib beradi. Mablag'larni er uchastkalariga, imorat va ko'chmas mulkka investitsiyalash odatda alohida ko'rib chiqiladi.

Ikkinchi metodning vujudga kelishi - aktivlarni taqsimlash yoki mablag'larni konversiyalash (asset allocation or consersion of funds approach) - birinchi metod

ba'zi kamchiliklarni bartaraf etish bilan bog'liq. YUqorida ko'rsatib o'tilganidek, umumiy fond mablag'lari pozitsiyasidan mablag'larni joylashtirishda haddan ziyod diqqat likvidlikka berilib, talab qilinguncha qo'yilmalar va asosiy kapital bo'yicha likvidlikka bo'lgan talab hisobga olinmaydi. Ko'pgina namoyondalar fikrlari bo'yicha, bu kamchilik Amerika tijorat banklarining foyda normasi qisqarishining o'sib borishiga sabab bo'ldi.

Bu vaqt ichida talab qilinguncha qo'yilmalarga nisbatan kamroq likvidlikni talab etuvchi muddatli va jamg'arma qo'yilmalar yuqori templar bilan o'sib bordi. Aktivlarni taqsimlash metodi umumiy fond mablag'lari metodi kamchiligini engish imkonini berdi. Bu metod bankka zarur bo'lgan likvid mablag'lar miqdori fondlarni jalb qilish manbalariga bog'liqligini belgilab berdi. Sxematik ravishda bu 2 - rasmda ko'rsatilgan.

2 - rasm. Aktivlarni taqsimlash modeli yordamida aktivlarni boshqarish.



Bu metod orqali mablag'lar manbalarini majburiy rezervlar va ularning aylanish tezligi normalariga mos chegaralashga harakat qilinadi. Bu metodning asosiy ustun tarafi bu likvid mablag'lar va ssudalar hamda investitsiyalarga qo'shimcha mablag'lar qo'yish qismining qisqartirilishi va bu natijada foyda normasining ko'tarilishiga olib kelishidir. Aktivlarni taqsimlash metodi - ning tarafdorlari foyda normasining oshishi oshiqcha likvid aktivlarni bartaraf etish hisobiga amalga oshiriladi.

Lekin, bu metod ham uning samaradorligini pasayishiga olib keladigan kamchiliklarga ega. Uning kamchiliklaridan biri, bu metod mablag'lar manbalari ularni qaysi yo'lda qo'llashdan qat'iy nazar mstaqil deb taxminlaydi, amalda esa bunday emas. Masalan, bankir amaliyotchilar ishchan firmalardan ko'p qo'yilma

jalb qilishga harakat qiladilar. CHunki, bu firmalar odatda shu bankdan qarz oladilar. Bundan shu kelib chiqadiki, yangi qo'yilmalarni jalb qilish bilan birgalikda bank yangi qo'yilmachilar tomonidan bo'lgan kredit zayavkalarining bir qismini qoniqtirish majburiyatini oladi. Bu esa, yangi qo'yilmalarning bir qismi shu qo'yilma egalari kreditlash uchun yo'naltirilishi kerakligini anglatadi.

Ko'rib chiqilgan 2 metod bir muncha soddalashtirilgandir. Ularning qaror qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiluvchi normativ yo'riqnomalar kompleksi sifatida emas, balki aktivlarni boshqarish bilan bog'liq muammolarni echish usullarini aniqlashda bank boshqaruviga yordam beruvchi umumiy sxema chegarasida qarash kerak. Ko'rib chiqilgan 2 metod aktiv va passivlar turli moddalari o'rtasidagi bog'liqlikni analiz qilishning ilmiy boshqarish sodda usullariga to'g'ri keladi.

Boshqarish va tahlil qilishning 3 usuli ilmiy metod, shuningdek EHMni qo'llash bilan bog'liq. Bu metod nisbatan murakkab matematik metodlar va EHM orqali boshqarish muammolariga yondashishni kasb etadi.

Endi tijorat bankini aktivlari va passivlarini aniq misolda ko'rib chiqamiz.

Tijorat banklari aktivlarini 4 kategoriyaga bo'lish mumkin: kassadagi naqd pul va unga tenglashtirilgan mablag'lar, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar; ssudalar, imorat va uskunalar. Buni 1 - jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

1 - jadval.

**Aksionerlik tijorat banki aktivlari tarkibi.
(01.01.2005 yil mln. AQSH dollarida)**

Aktivlar moddasi	Summa	Umumiy aktivga nisbatan, % da
Kassa va unga tenglashtirilgan mablag'lar	628	17,4
O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi rezerv mablag'lar	326	8,9
Banklararo operatsiyalar	456	12,6
Ssuda va zayomlar	1884	51,9
Ko'chmas mulk va asosiy vositalar	210	5,8
Boshqa aktivlar	125	3,4
Jami aktivlar	3629	100

YUqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, bank balansining aktivida asosiy o'rinni berilgan ssuda va zayomlar egallab turibdi (51,9%). CHunki, bankning asosiy daromad manbai shu modda hisoblanadi. Keyingi o'rinda esa, likvidlik nuqtai nazaridan eng likvid hisoblangan aktiv moddasi: "Kassa va unga tenglashtirilgan mablag'lar" (17,4 %) turibdi va hokazo.

Agar, aktivlar tarkibini bank faoliyatidagi asosiy turlari bo'yicha guruhlashtirsak, u holda quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

Bank aktivlar operatsiyalarida asosiy o'rinni kredit operatsiyalari egallaydi. Ularning ulushi 19,9% dan 83,25% gacha tashkil etadi.

Bank aktivlarida ikkinchi o'rinni qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar egallaydi (2,15% dan 23,87% gacha)

Uchinchi o'rinda - kassa aktivlari (0,2% dan 12,94% gacha)

Boshqa aktivlar ulushi hisob - kitob xususiyatlaridan kelib chiqib bank operatsiyalarida juda ham keng spektrni egallaydi (2% dan 78% gacha).

Aktivlarni boshqarish bankning ko'proq daromad olish maqsadida o'z va jalb qilingan mablag'larini maqsadga muvofiq joylashtirishini anglatadi. Aktiv operatsiyalarni sifatli boshqarish bankning likvidligiga, daromadlilikiga, moliyaviy barqarorligiga zamin yaratadi.

Aktivlarni boshqarishning asosiy printsiplari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- aktivlar strukturasining muvofiqligi;
- aktiv operatsiyalarni diversifikatsiyalash;
- tavakkalchiliklarni oldini olish va rezervlar tashkil qilish;
- aktivlarning daromadlilikini ta'minlash;

Aktivlar strukturasiga bank buxgalteriya balansining aktiv bo'limidagi barcha aktivlari kiradi.

Aktivlarning birinchi navbatdagi qismi, ya'ni naqd pul mablag'lar mutloq likvid hisoblanadi. Bank kassasidagi naqd pullar bank majburiyatlarini qoplashda birinchi darajali rezerv bo'lib xizmat qiladi. Kassa qoldiqlari bank uchun daromad keltirmaydi va ularni sarflash xatardan xoli deb tasniflanadi. Kassa qoldiqlari bilan bank majburiyatlarini etarli tarzda ta'minlab borish likvidlik ko'rsatkichining garovi hisoblanadi.

Banklarda yil davomida korrespondentlik hisob-raqamidagi mablag'larning qoldig'i bo'yicha tebranishlar kuzatiladi. Korrespondentlik hisob-raqamining xolati doimiy nazoratda bo'lishi va uni boshqarish bank uchun juda muxim ahamiyatga ega. Agarda korrespondentlik hisob-raqamida mablag'lar xajmi etarli bo'lmasa, bank banklararo kreditlar sifatida va muddatli depozitlar sifatida resurslar jalb qilishga majbur bo'ladi.

SHuningdek, bank aktivlarining likvid qismini davlat va maxalliy xokimiyat organlarining qimmatli-qog'ozlari tashkil qiladi. Tijorat banklarining qimmatli-qog'ozlarga qo'yilmalari ichida eng likvid qismini xukumatning uzoq muddatli majburiyatlari tashkil qiladi, chunki ular davlat tomonidan kafolatlangan bo'lib, ular bo'yicha yo'qotish riski minimal hisoblanadi.

Mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik xukumat qimmatli-qog'ozlarining xajmini ko'paytiradi va ularni muomalaga chiqarishning maqsadga muvofiqligini ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida banklar uchun likvid aktivlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Bank balansining likvidligiga jiddiy ta'sir etuvchi omillardan yana biri bu, bank tomonidan berilgan kreditlarning o'z muddatida qaytarilishidir. Bundan tashqari kredit portfelini sifatli boshqarish, xar bir individual kredit turi uchun

kredit risklari darajasini belgilash bo'yicha uslublarga ega bo'lish ham ushbu omillar qatoriga kiradi.

Bank tomonidan berilgan kreditlar qaytarilayotganda, kredit operatsiyalariga joylashtirilgan mablag'lar o'zining statusini o'zgartiradi va ushbu mablag'lar kamroq likvid xolatdan pul mablag'larining mutloq likvid shakliga o'tadi. Buning hisobiga aktivlar tarkibida strukturaviy siljishlar sodir bo'ladi, ya'ni korrespondentlik hisob-raqamining qoldig'i ko'payib, ssudalar bo'yicha qarzdorliklar kamayadi.

Muddatida qaytarilgan kreditlarga muvofiq bankning o'z majburiyatlarini bajarish imkoniyati paydo bo'ladi. Agarda berilgan kreditlar muddatida qaytarilmasa yoki muddati uzaytirilsa (prolongatsiya), berilgan kreditlar va jalb qilingan resurslar o'rtasida muvofiqlik buziladi. Bunday xolatda bank qo'shimcha resurslarni jalb qilishiga to'g'ri keladi.

Likvidsizlik riski va bankning kredit portfelini noto'g'ri boshqarishi, ya'ni kreditlar qaytarilmasligi omilidan kelib chiqib, ximoya sifatida, muddatida qaytarilmagan qarzlarni qoplash uchun bank oldindan umumiy, maxsus va yashirin rezervlarni tashkil qilib borishi muxim ahamiyatga egadir.

Ssudalar bo'yicha kutilayotgan yo'qotishlarni qoplash uchun rezervlar extiyotkorlik va aktivlarni tartibga solish printsiplari asosida tashkil qilinishi lozim. Bundan maqsad:

- bank aktivlariga ta'sir ko'rsatish va sifatini yaxshilash;
- aktivlarni noto'g'ri boshqarilganligi sababali balans likvidsizligi bo'yicha risklarni kamaytirish;
- bankning yalpi foydasini taqsimlashdan qochish, ya'ni bu kelgusidagi ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash va bank likvidligi hamda aktivlar sifatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Rezervlar miqdori hisobot davridagi berilgan kreditlar bo'yichagina emas, balki kreditlarning umumiy miqdori va har bir kreditning tavakkalchilik darajasidan kelib chiqqan xolda belgilanadi.

Kredit risklarini qoplovchi rezervlar summasi bank buxgalteriya balansini tuzishda ham hisobga olinadi, ya'ni risk turlari va muddati o'tgan kreditlarning xajmiga muvofiq foizlarda belgilangan har bir risk darajasining koeffitsientlarini kredit risklari shkalasi sifatida balansda aks ettiriladi.

30 kundan ko'proq kechiktirilgan foizlar ham muddati o'tgan karzdorliklar tarkibiga kiradi.

Ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun rezervlar tashkil qilishning iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, tashkil qilingan rezervlar summasi bank faoliyatida iqtisodiy normativlarni hisobga olinayotganda bankning o'z mablag'lari tarkibida hisobga olinmaydi. Bunday xolat aktivlar sifati va bankning likvidlik potentsialini pasaytirib, bank kredit portfelini boshqarishga nisbatan yuqori etiborni talab qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Bankning aktiv operatsiyalari haqida tushuncha.
2. Bank aktiv operatsiyalarining tarkibiy tuzilishi va vazifalari.

3. Kassadagi naqd pullar va unga tenglashtirilgan mablag'larning bank aktivlaridagi o'rni va ahamiyati.

4. Aktiv operatsiyalar tarkibida qimmatli-qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarning roli va ahamiyati.

5. Aktiv operatsiyalar tarkibida kredit operatsiyalarining roli va ahamiyati.

6. Bankning ikkinchi darajali aktivlari haqida tushuncha.

7. Bank aktivlarining sifat darajasi bo'yicha tasniflanishi.

8. Bankning kredit qo'yilmalarida «yaxshi» deb tasniflangan kreditlarning tuzilishi.

9. Bankning kredit qo'yilmalarida «standart» deb tasniflangan kreditlarning tuzilishi.

10. Bankning kredit qo'yilmalarida «substandart» deb tasniflangan kreditlarning tuzilishi.

11. Bankning kredit qo'yilmalarida «shubxali» deb tasniflangan kreditlarning tuzilishi.

12. Bankning kredit qo'yilmalarida «umidsiz» deb tasniflangan kreditlarning tuzilishi.

6-mavzu: TIJORAT BANKLARINING DAROMADLARI /2 soat/

Reja:

1. Bank daromadlarining manbalari.

2. Bank daromadlarining tarkibiy tuzilishi.

Tayanch iboralar: bank rentabelligi, komission to'lovlar, noan'anaviy operatsiyalar

1. Bank daromadlarining manbalari.

Tijorat banklarning daromadlari va ularning manbalarini bank faoliyatiga qarab, ya'ni tijorat banklari amalga oshiradigan operatsiyalar nuqtai nazaridan klassifikatsiya qilish mumkin.

Tijorat banklarining daromadi bank faoliyatining kredit berish, diskont faoliyati, trast (ishonch) xizmati ko'rsatish, banklarning kafolatlash faoliyati, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, depozitlarni qabul qilish va ularning hisobini yuritish bilan bog'liq faoliyat, boshqa banklar bilan vakillik munosabatlariga asoslangan faoliyat, noan'anaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat va boshqa faoliyat turlari natijasida shakllanadi.

Ushbu faoliyatlarning har bir turi bank ushbu operatsiyalarda qanday vaziyatda qatnashishiga qarab ajralib turadi. Yuqoridagi faoliyat turlarining ba'zilar aktiv operatsiyalarga kirsa, ba'zilar esa passiv operatsiyalarga kiradi. Daromadlar har bir faoliyat turidan turlicha kelishi mumkin. Aktiv operatsiyalardan keladigan daromad umumiy daromadlarning asosiy salmog'ini tashkil etadi.

Tijorat banklarning daromadlari va ularning manbalarini bank faoliyatiga qarab, ya'ni tijorat banklari amalga oshiradigan operatsiyalar nuqtai nazaridan klassifikatsiya qilish mumkin.

Bular:

- kreditlash, ya'ni ssuda operatsiyalari;

- qimmatli-qog'ozlar bilan operatsiyalar;

- mijozlarga hisob kitob va boshqa operatsiyalar bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar (komission operatsiyalar);

- noan'anaviy operatsiyalar;

Bankning kredit operatsiyalari - ikki tarkibiy tuzilmalardan iborat, bular:

a) qo'shimcha oborot mablag'lariga muhtoj bo'lgan, bankning o'z mijozlariga (yuridik va jismoniy shaxslar)ga kreditlar berish;

b) bankning bo'sh turgan resurslarini vaqtinchalik boshqa tijorat banklariga kelishilgan foizlar asosida kredit sifatida berish;

Kredit operatsiyalarining ikkinchi usulini banklararo kredit yoki bankning boshqa bankdagi muddatli depozitlari sifatida ham tushunish mumkin.

Banklararo kredit operatsiyalarining rivojlanishi, ya'ni bo'sh turgan resurslar orqali banklar o'rtasida aloqalarning vujudga kelishi uchun quyidagi vazifalar ta'minlangan bo'lishi lozim:

- banklar va kredit muassasalari o'rtasida operativ aloqa liniyalari tashkil etilgan bo'lishi;

- bozorda resurslarni taqsimlashga ixtisoslashgan ishonchli vositachi-larning mavjudligi;

- bankning korrespondentlik hisob raqamini tug'ri va xatosiz boshqarish;

Bankning kredit operatsiyalaridan oladigan daromadlari foiz shaklida namoyon bo'ladi.

Bankning qimmatli-qog'ozlar bilan operatsiyalariga - bank, emitent sifatida chiqargan qimmatli-qog'ozlari va ularning realizatsiyasi hamda ikkilamchi bozorda boshqa emitentlarning qimmatli-qog'ozlari bilan amalga oshiradigan operatsiyalari kiradi. Korxona va tashkilotlarni xususiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar ham ushbu faoliyat turiga kiradi.

Bankning bu turdagi faoliyatdan oladigan daromadlari qimmatli-qog'ozlarning narxlari o'zgarganda va ularning kurslari o'rtasidagi farqlar sifatida shakllanadi.

- mijozlarga hisob kitob va boshqa operatsiyalar bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar (komission operatsiyalar) bank uchun quyidagi daromatlarni olish imkoniyatini yaratadi:

*komission to'lovlar:

a) hisob raqamlarni ochish uchun to'lovlar;

b) hisob raqamlarni yuritish bo'yicha to'lovlar;

*mijozlarning oboroti bo'yicha komission to'lovlar:

a) hisob raqamlarning har bir operatsiyalari bo'yicha xujjatlarning ko'chirma nusxalarini taqdim etilishi uchun to'lovlar;

b) hisob raqamlarni yopilishi uchun to'lovlar;

v) naqd pul berish yoki naqd pul bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish kabi operatsiyalar uchun to'lovlar.

Yuqorida qayd etilgan to'lovlarning barchasi yoki ma'lum bir turi orqali ham bank daromadlarining salmoqli qismi shakllanadi. Komission hizmat turlari bo'yicha to'lovlar bank va mijoz o'rtasidagi tuziladigan dastlabki shartnomada ko'rsatib o'tiladi. To'lovni belgilashda mijozning muayyan davrdagi oborotiga nisbatan kelishilgan ma'lum bir foizlar yoki bajariladigan xizmat turlariga nisbatan eng kam ish xaqi miqdori asos bo'ladi.

Bankning noan'anaviy operatsiyalariga - faktoring, lizing, trast, informatsion va konsalting xizmatlari, xorijiy valyutalar bo'yicha va boshqa faoliyat yuritish davomida amalga oshiriladigan operatsiyalar kiradi.

Bank hisob-varaqlari rejasiga asosan daromadning manbalariga qarab ularni hisobga olib borishda har bir daromad keltiradigan operatsiyalar uchun aloxida xisob-raqamlar ko'zda tutilgan va ular bank buxgalteriya balansining to'rtinchi bo'limida aks ettiriladi.

Ushbu hisob-raqamlar bo'yicha olingan daromadlar bank balansining daromadlar bo'limida passiv qoldiqlar sifatida aks ettiriladi va bank tomonidan noto'g'ri olingan daromadlar hisobi to'g'rilangunga qadar aktiv qoldiqlarda yuritiladi.

Bank balansining daromadlar bo'limiga tegishli barcha hisob-raqamlar yil yakunida moliyaviy natija sifatida yopilib, 31206-(taqsimlanmagan foyda) hisob-raqamiga o'tkaziladi.

Daromadlar bank buxgalteriya hisobida 10101, 20200, 16300 balans hisob-raqamlari orqali olinadi va quyidagi buxgalteriya provodkalari bilan aks ettiriladi:

Debet: 10101, 16300, 20200 va boshqa hisob-raqamlar;

Kredit: daromad hisob-raqamlari;

Yil yakunida daromad hisob-raqamlari yopilganda quyidagi buxgalteriya provodkalari beriladi:

Debet: daromad hisob-raqamlari;

Kredit: 31206;

2. Bank daromadlarining tarkibiy tuzilishi.

Shunday qilib yuqorida keltirilgan va boshqa barcha bank daromatlari uch guruxga bo'linadi:

- 1). Foizli daromadlar;
- 2). Foizsiz daromadlar;
- 3). Boshqa daromadlar;

Foizli daromadlarga:

- a) Markaziy bankdagi hisob-raqamlar bo'yicha foizlar;
- b) boshqa banklardagi hisob-raqamlar bo'yicha foizlar;
- v) ssuda foizlari va boshqa foizli daromadlar;

Foizsiz daromadlarga:

- a) komission va to'lov xizmatlari uchun olinadigan daromadlar;

b) lizing, trast va faktoring operatsiyalaridan olinadigan daromadlar; qimmatli-qog'ozlar bo'yicha brokerlik operatsiyalaridan olinadigan daromadlar;

v) inkassaviy (to'lov talabnomalari) operatsiyalariga xizmat ko'rsatish-dan olinadigan daromadlar;

g) xorijiy valyutada olingan daromadlar;

d) qimmatli-qog'ozlar operatsiyalaridan olinadigan daromadlar;

e) boshqa foizsiz daromadlar, masalan (mujni ijaraga berish va boshqalar);

Boshqa daromadlarga:

a) xorijiy valyutalarning bozor kurslari farqidan olingan daromadlar;

b) sotilgan mulkning balans qiymati va bozor bahosi o'rtasidagi farqdan olingan daromadlar;

v) qimmatli-qog'ozlar nominali va boshqa aktivlarni baholashdan olingan daromadlar;

g) jarima va peniyalar;

Iqtisodiy rivojlanish bosqichida tijorat banklarining asosiy ish tamoyillaridan biri - yuqori darajada foyda olishga yo'naltirilgan, qaratilgan bo'ladi. Biroq, bularning faoliyati doimo foyda ko'rish bilan bog'liq bo'lmasdan, ular foyliyatida zarar ko'rish ehtimoli ham uchrab turishi mumkin. Banklar faoliyati ijobiy bo'lgan hollarda, ularning foyda olish va salbiy faoliyat natijasida banklarning zarar ko'rish ehtimoli yuqori darajada bo'ladi. YUqorida aytilgan foyda keltiruvchi rezervlarni amalda tadbiiq qilish jarayonida bankning ish faoliyati iqtisodiy jihatdan risk bilan bog'liq bo'ladi.

Tijorat banklari faoliyatining pirovard maqsadi olinayotgan foydani maksimallashtirishdan iborat bo'lib, ushbu maqsadga erishish bank aktivlarining daromadliligini barqaror tarzda oshirib borishni taqozo qiladi. Mazkur jarayonda bank aktivlari daromadliligini oshirishning sifat jihatiga e'tibor qaratish muhim amaliy ahamiyatga egadir. Ya'ni, tijorat banklarining yalpi daromadi tarkibida foizli daromadlarning yuqori salmogini ta'minlash va uning barqaror tarzda o'sishiga erishish banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Ayni vaqtda, respublikamiz tijorat banklari aktivlari daromadliligini oshirish borasida bir qator muammolarning mavjudligi kuzatilmokda. Xususan, bank aktivlari tarkibida daromad keltirmaydigan aktivlarni yirik mikdorda to'planib qolishiga yo'l qo'yilmokda. Bundan tashqari, respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalari ham rivojlanmay qolayapti. Respublikamiz tijorat banklari aktivlarining daromadliligini oshirish borasida bir qator tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofikdir.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni hamda iqtisodiyot samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lmog'i lozim.

Bunda mamlakat iqtisodiy saloxiyatining yanada o'sishini hamda uning barqaror rivojlanishini ta'minlash, oqibatida esa tobora globallashib borayotgan jaxon iqtisodiyotida O'zbekistonning nufuzini yanada oshirish pirovard vazifa ekanligi keng ma'noda iqtisodiy siyosatning, jumladan, aktiv operatsiyalarning bosh vazifasi bo'lmog'i zaruriy xoldir.

Ana shu keng miqyosli vazifalarni xal etish tijorat banklarining oqilona daromad keltiruvchi aktiv operatsiyalarini yuritib, o'z mablag'larini yanada ko'paytirish hisobiga noan'anaviy manbalarini izlab topish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy izlanishlarni olib borishni talab etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Bankning daromadlari haqida tushuncha.
2. Bank daromadlarining manbalari.
3. Bank daromadini shakllantirishda kredit operatsiyalarning roli va ahamiyati.
4. Bank daromadini shakllantirishda qimmatli-qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarning roli va ahamiyati.
5. Bank daromadini shakllantirishda komission operatsiyalarning roli va ahamiyati.
6. Bank daromadini shakllantirishda noan'anaviy operatsiyalarning roli va ahamiyati.
7. Bankning foizli daromadlar haqida tushuncha.
8. Bankning foizsiz daromadlar haqida tushuncha.
9. Bankning boshqa daromadlari haqida tushuncha.

7-mavzu: TIJORAT BANKLARINING XARAJATLARI. /2 soat/

Reja:

1. Bank xarajatlari tarkibi va tuzilishi.
2. Bankning foiz marjasi.

Tayanch iboralar: *marja, valyutalarning bozor kursi, peniya, operatsion xarajatlar, moliyaviy koeffitsientlar;*

1. Bank xarajatlari tarkibi va tuzilishi.

Bank xarajatlari- bu bankning faoliyat yuritishini ta'minlovchi operatsiyalar bilan bog'liq xarajatlardir.

Bank hisob-varaqlar rejasida bankning amalga oshiradigan xar bir xarajatlari uchun aloxida hisob-raqamlar tashkil qilingan. Xarajat hisob-raqamlari bank buxgalteriya balansining beshinchi bo'limida aks ettiriladi.

Bank buxgalteriya balansida xarajat hisob-raqamlaridagi qoldiqlar aktiv qoldiqlar sifatida yuritiladi va bank tomonidan notug'ri amalga oshirilgan xarajatlar to'g'rilangunga qadar passiv qoldiqlarda aks ettirib boriladi.

Xarajat hisob-raqamlari bo'yicha barcha qoldiqlar yil yakunida moliyaviy natija sifatida yopilib, 31206 (taqsimlanmagan foyda) hisob-raqamiga provodka berish orqali o'tkaziladi.

Bank buxgalteriyasida hisoblangan va amalga oshirilgan xarajatlar quyidagi buxgalteriya provodkalari bilan aks ettiriladi:

Debet: xarajat hisob-raqamlari

Kredit: 19909,19921,22400 va boshqa hisob-raqamlar

Yil yakunida xarajat hisob-raqamlari yopilganda quyidagi buxgalteriya provodkasi beriladi:

Debet: 31206

Kredit: xarajat hisob-raqamlari

Bank xarajatlari ham shartli ravishda 3 turga bo'linadi va bular:

1. foizli xarajatlar;
2. foizsiz xarajatlar;
3. boshqa xarajatlar;

Foizli xarajatlarga:

a) mijozlarning- muddatli va talab qilib olinadigan depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

b) boshqa banklardan kredit resurslari sifatida sotib olingan depozitlar bo'yicha foizlar;

v) bank tomonidan chiqarilgan qimmatli-qog'ozlar bo'yicha foizlar;

Foizsiz xarajatlarga:

a) Markaziy bankga komission xizmat xarajatlari;

b) chet valyutalari kursidan ko'rilgan zararlar; qimmatli qog'ozlar oldi sotdisidan ko'rilgan zararlar; investitsiyalardan ko'rilgan zararlar;

v) boshqa foizsiz xarajatlar (bank mulkini sotishdan ko'rilgan zararlar); boshqa xususiy mulklarni sotishdan ko'rilgan zararlar;

Foizsiz xarajatlar tarkibida bankning ichki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq xarajatlar ham muxim ahamiyatga ega va ularni operatsion xarajatlar deb yuritiladi.

Operatsion xarajatlarga:

a) xodimlarga qilinadigan ish xaki (ish xaki, sug'urta, mukofotlar, moddiy rag'batlantirish) xarajatlari;

b) ma'muriy (administrativ) xarajatlar (reklama va e'lonlar, kantselyariya, ofis va boshqa jixozlar, pochta, telefon, faks, kitob va gazetalarga qilinadigan obunalar);

v) eskirish xarajatlari (bank binosi eskirishi; transport vositalari eskirishi; mebel, nomoddiy aktivlar va boshqa asosiy vositalarning eskirishi);

g) ijara va ish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar (arenda, suv, elektr va yoqilg'i, remont va qo'riqlash xizmati);

d) komandirovka va transport xarajatlari;

e) taqdimotlar va xayriyalar (prezentatsiya va madaniy dam olish dasturlari, a'zolik badallar, marosim va xayriyalar);

j) sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar (auditor va konsalting xizmati, sug'urta, soliqlar, jarimalar);

z) boshqa operatsion xarajatlar;

Boshqa xarajatlarga:

a) xorijiy valyutalarning bozor kurslaridagi farq bo'yicha yo'qotishlar;

b) sotilgan mulkning balans qiymati va bozor bahosi o'rtasidagi farq bo'yicha yo'qotishlar;

v) qimmatli-qog'ozlar nominalini baholash bo'yicha yo'qotishlar;

2. Bankning foiz marjasi.

Tijorat banklari foiz marjasi - foizli daromadlar va xarajatlarning o'zaro farqi, ya'ni olingan foizlar va to'langan foizlar o'rtasidagi farq hisobiga shakllanadi.

Foiz marjasi bank foydasining asosiy manbai hisoblanib, marja umumbank xarajatlarini, soliqlar va bank xatarlarini qoplash uchun xizmat qiladi.

Marja o'lchovi mutloq miqdorda yoki bir kator moliyaviy koeffitsientlarni hisoblash orqali namoyon bo'lishi mumkin.

Marjaning mutloq miqdori - bankning barcha foizli daromadlaridan foizli xarajatlarni ayirish orqali aniqlanadi, shuningdek aktiv operatsiyalarning aloxida bir turi bo'yicha olingan foizli daromadlar va ushbu operatsiyalarga ishlatilgan resurslar bilan bog'liq bo'lgan foizli xarajatlar o'rtasidagi farq hisobiga aniqlanadi.

Masalan: kreditlardan olingan foizli daromadlar bilan kredit resurslariga to'langan foizli xarajatlar o'rtasidagi farq.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida foizlarni olish va qaytarish standartiga asosan daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish bo'yicha, hisobot davriga tegishli bo'lgan foizlarga faqat ushbu davr hisobotlarida aks etirilishi shart.

Shuningdek tijorat banklari quyidagi xollarda kredit bo'yicha foiz hisoblashni to'xtatadilar:

a) kredit va foiz to'lovi muddati o'tib ketganda, 60 kundan so'ng (muddati 1 yilgacha va yaxshi ta'minlangan kreditlardan tashqari) kreditlar uchun foiz hisoblash to'xtatiladi;

b) kredit va foiz to'lovi muddati o'tib ketganda, 90 kundan so'ng (muddati 1 yildan ortiq va yaxshi ta'minlangan kreditlardan tashqari) kreditlar uchun foiz hisoblash to'xtatiladi;

Bundan asosiy maqsad mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarning rivojlanishiga banklar tomonidan imtiyozlar yaratish va qo'llab quvvatlashdir. Lekin ushbu tartib bankning barcha kreditlariga ham hos emas, chunki hozirgi kunda tijorat banklari kredit resurslarini odatda jalb qilingan mablag'lar hisobiga shakllantiradi va bunda bankning oladigan foizli daromadlari va foizli xarajatlari o'rtasidagi nisbat buzilishi mumkin, demak belgilangan tartib xususiy kapital hisobidan beriladigan kreditlar uchungina tegishlidir.

Marjaning mutloq miqdori dinamikasiga bir necha omillar ta'sir ko'rsatadi va bular:

- foizli daromad keltiruvchi kredit qo'yilmalar va aktiv operatsiyalarning xajmi;

- bank aktiv operatsiyalarining foiz stavkasi;

- bank passiv operatsiyalarining foiz stavkasi;

- aktiv va passiv operatsiyalarning foiz stavkalari o'rtasidagi farq;

- foizli daromad keltiruvchi xatarli aktiv operatsiyalarning ulushi;

- xususiy kapital bilan jalb qilingan resurslar nisbati;

- jalb qilingan resurslarning tuzilishi;

- foiz hisoblash va undirish usuli.

- daromad va xarajat hisoblarini tashkil qilish sistemasi;

- inflyasiya sur'ati;

Foiz marjasi koeffitsientlari bankning xaqiqiy saloxiyat darajasini ko'rsatib beradi. Real foiz marjasi koeffitsienti bank foydasi manbalarining asosiy miqdorini belgilab beradi va quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{\text{marjasi}}^{\text{real foiz}} = \frac{\text{muayyan davrda olingan foizlar} - \text{muayyan davrda to'langan foizlar}}{\text{muayyan davrdagi aktivlarning o'rtacha qoldig'i}};$$

Aktivlarning o'rtacha qoldig'iga bank balansi aktiv bo'limining umumiy miqdori kiradi. Real foiz marjasini bankning daromad keltiruvchi aktivlariga nisbatan ham aniqlash mumkin va uning formulasi quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{\text{foiz}}^{\text{real}} = \frac{\text{muayyan davrda olingan foizlar} - \text{muayyan davrda to'langan foizlar}}{\text{muayyan davrdagi daromad keltiruvchi aktivlarning o'rtacha qoldig'i}};$$

Daromad keltiruvchi aktivlarga - yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan barcha kreditlar, banklardagi depozitlar, qimmatli-qog'ozlarga, faktoring va lizing operatsiyalariga qo'yilgan mablag'lar kiradi. Real foiz foiz marjasini aloxida bir aktiv operatsiyalarda ham hisoblash mumkin, masalan kredit operatsiyalari bo'yicha:

$$K_{\text{foiz marja}}^{\text{ssuda}} = \frac{\text{ssudalar bo'yicha olingan foizlar} - \text{kreditlar bo'yicha to'langan foizlar}}{\text{kredit qo'yilmalarning muayyan davrdagi o'rtacha qoldig'i}};$$

Yuqorida keltirilgan hisob kitoblar prinsipi bankning aktiv operatsiyalari o'rtasida resurslarni taqsimlash tanlovini belgilab beradi.

Real foiz marjani aktiv operatsiyalarning aloxida turlari bilan taqqoslash (ssuda operatsiyalari bilan, banklararo kredit bozorlari bilan, qimmatli-qog'ozlar operatsiyalari bilan) hamda bankning yo'nalishi va rentabelligini baholashga yordam beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Bankning foizli xarajatlari haqida tushuncha.
2. Bankning foizsiz xarajatlari haqida tushuncha.
3. Bankning operatsion xarajatlari haqida tushuncha.
4. Bankning foizli va foizsiz xarajatlaridan tashqari boshqa xarajatlar.
5. Bank uchun foizli marjaning roli va ahamiyati.
6. O'zbekiston Respublikasida kredit operatsiyalari bo'yicha foizlarni hisoblashning prinsiplari va ahamiyati.
7. Foizli marjaning koeffitsientlari.

8-mavzu: TIJORAT BANKLARINING FOYDASI VA UNI HISOBLASH. /2 soat/

Reja:

1. Bank foydasini boshqarishning ahamiyati
2. Tijorat banklari foydasini baholash asoslari.

1. Bank foydasini boshqarishning ahamiyati

Bankning faoliyat yuritishidan asosiy maqsadi, bu maksimal darajada foyda olishdir. Foyda, albatta bank daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farq hisobiga shakllanadi hamda uning modelini yaratish hisob va hisobot tizimlari bilan bog'liqdir. Foyda xajmini bankning ko'proq daromad olishi mumkin bo'lgan riski yuqoriroq operatsiyalar hisobiga ham ko'paytirish mumkin

Bankning foydalilik darajasini baholash tavakkalchiliklarni himoya qilish darajasi taxlili bilan uzviy bog'liq

Bank foydasini boshqarish elementlarini ajratib ko'rsatish mumkin, bular:

- bank daromadlarini boshqarish;
- bank foydasining shakllanishini nazorat qilish;
- bankning daromadlilik va foydalilik darajasini miqdor va sifat pozitsiyalaridan kelib chiqqan holda baholash;
- bank tarkibiy bo'linmalari rentabelligini baholash;
- «foyda markazlari» yoki bankning asosiy yo'nalishlari rentabelligini baholash;

- bank yaratayotgan maxsulot va xizmatlar rentabelligini baholash;

Bank foydasini boshqarishning ikkinchi tarkibiy qismi bo'lib, foydaning shakllanishini nazorat qilishdir.

Bank balansi foydasi xajmining to'g'ri va ishonchliligi quyidagi vazifalar asosida o'z echimini topadi:

- bank daromadlari hisobining analitik hisob-raqamlarda qonuniy tarzda olib borishini tekshirish;
- bank xarajatlari bilan bog'liq operatsiyalarning tuzilishi hamda to'g'riligi va haqqoniyligi taxlili;
- daromad va xarajat hisob-raqamlarining yopilishi hamda qoldiqlar yillik hisobotda foyda yoki zararlar hisob raqamlariga olib borilishi bilan bog'liq operatsiyalarning nazorati;
- boshqa noan'anaviy operatsiyalarning miqdori taxlili;
- turli xildagi jarima va peniyalar bilan bog'liq tushumlar va to'lovlar aks etadigan hisob-raqamlarning yopilishini tekshirish;

Bank daromadlari va xarajatlarning haqqoniyligi balans schyotlari turkumiga kiruvchi shaxsiy schyotlar yordamida tekshiriladi. Bunda taxlil qilinayotgan davrni umumiy yoki tanlanma (ma'lum bir oy bo'yicha) xolda tekshiladi va tekshirishda xujjatlarni rasmiylashtirilishi, operatsiyalar mazmuni, xisob-raqamlar bo'yicha berilgan provodkalar to'g'riligi ko'rib chiqiladi.

Bankning daromadlari va xarajatlarini baholash uchun ularni muntazam srukturaviy taxlil qilib borish muxim ahamiyat kasb etadi. Bankning daromadlilik

darajasi va faoliyati bo'yicha foydaliligi moliyaviy koeffitsientlar hamda strukturaviy taxlil natijalari asosida baxolanadi.

Bank faoliyatini strukturaviy taxlil qilishning vazifasi, ularning asosiy turlarini aniqlash, daromadlar manbaini stabiligi va saqlanib borish barqarorligini baholashdan iboratdir.

Taxlil, bankning o'tgan davrlar mobaynida erishgan asosiy moliyaviy ko'rsatkichlariga asosan olib boriladi. Jaxon amaliyotiga ko'ra taxlil qilish davri minimum 3 yilni o'z ichiga oladi.

Daromadlar stabiligini baholashda, ular ikki guruxga bo'linadi:

- birinchi gurux, stabil daromadlar;
- ikkinchi gurux, nostabil daromadlar.

Birinchi guruxga bankning operatsion daromatlari, ya'ni foizli va foizsiz daromadlar kiradi. Foizsiz daromatlarga bankning komission xizmat to'lovlari kiradi va ushbu daromadlar o'zining tabiatiga ko'ra bankda stabil daromadlar hisoblanadi.

Ikkinchi guruxga bankning qimmatli-qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari, spekulativ xarakterga ega bo'lgan daromadlar, shuningdek, aktivlarni kayta baholashdan ko'riladigan va bankning noan'anaviy operatsiyalaridan oladigan daromatlari kiradi.

Bank xarajatlarini strukturaviy taxlil qilishning vazifasi, xarajatlarning asosiy turlarini o'rganib chiqish, udarning o'sish sur'atini belgilash xamda ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iboratdir.

Strukturaviy taxlilning umumiy xulosasiga asosan bank daromatlari va xarajatlarining asosiy turlari bo'yicha chuqurroq tadqiqotlar olib boriladi. Masalan, foizli daromatlarni taxlil qilishda ularning manbalari tuzilishi o'rganiladi (ichki kreditlar, banklararo kreditlar, qimmatli-qog'ozlar, lizing va boshqa operatsiyalar). Taxlil kilishda berilgan ssudalar va ularning foiz stavkalari darajalari xajmiga kay darajada ta'sir ko'rsatish, operatsiyalarning aloxida turlari foizli daromatlarda tutgan o'rni, foiz marjasining dinamikasi o'rganiladi. Foiz marjasining pasayishi bankni bankrotlikka olib boradi.

Tijorat banklari foyda ko'rsatkichlarini baholash quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

- foyda manbalarini strukturaviy taxlil qilish;
- moliyaviy koeffitsientlir taxlili;
- ta'sir etuvchi omillar taxlili;

Strukturaviy taxlilning vazifasi foydaning asosiy manba'larini aniqlash. manba'larni stabillik nuktai nazaridan baholash va kelgusida barqarorlik istiqbolini o'rganishdan iboratdir.

2. Tijorat banklari foydasini baholash asoslari.

Bankning moliyaviy barqarorligi auditorlar tomonidan tasdiqlanadi va buning uchun moliyaviy koeffitsientlarning natijalari jaxon bank amaliyoti standartlariga to'g'ri kelishi va bank foydasi nostabil manbalar hisobiga shakllanmasligi kerak.

Strukturaviy taxlil qilishda A va B banklarning yillar davomida erishgan asosiy moliyaviy ko'rsatkichlariga tayangan xolda quyidagi modelni taxlil qilib chiqamiz:

jadval-№1. (mln.so'm)da

Ko'rsatkichlar	Bank A			Bank B		
	2000 y.	2001 y.	2002 y.	2000 y.	2001 y.	2002 y.
I. Foydaniq stabil manbalari:						
- foizli daromadlar:	420	510	630	1000	1200	1300
- foizli xarajatlar:	250	340	500	440	510	650
Foiz marja:	170	170	130	560	690	650
- foizsiz daromadlar:	40	45	50	120	150	195
- foizsiz xarajatlar:	50	60	65	140	160	190
- foizsiz daromadlarni foizsiz xarajatlar-dan ortib ketishi (+), kamayishi (-)	-10	-15	-15	-20	-10	+5
Stabil manbalarning jami:	160	155	115	540	670	655
II. Foydaniq nostabil manbalari:						
- qimmatli-qog'ozlar oldi sotdisidan olingan spekuliyativ daromadlar (+), zararlar (-):	+25	+40	+250	+5	-16	+25
- noan'anaviy operatsiyalardan olingan daromadlar (+), zararlar (-):	-	+40	+20	-	-	-
Nostabil mablag'lar jami:	+25	+80	+270	+5	-16	+25
III. Boshqa xarajatlar:						
- ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun ajratilgan rezervlar:	20	30	30	20	10	10
- soliqlar:	20	15	10	50	70	100
Sof foyda:	145	190	345	475	574	570

Jadval ma'lumotlariga ko'ra A va B banklarning foydasi asosan stabil daromadlar hisobiga tashkil topgan. Uch yil davomida A bankning foydasi 145, 0 mln. so'mdan 345, 0 mln. so'mga ortgan, ya'ni 2.4% marttaga ko'paygan, B bankning foydasi esa ushbu davr mobaynida 475,0 dan 570,0 mln. so'mgacha ko'paygan, ya'ni. 37%gagina ortgan xolos. Lekin A bank ushbu davr mobaynida juda yaxshi natijalarga erishgan deb hisoblab bo'lmaydi, chunki 2002 yilda bankning asosiy foyda manbai spekuliyativ operatsiyalar hisobiga tashkil topgan. Foizli daromadlardan foizsiz xarajatlarning ortib ketishi hisobiga foiz marjasi 6% dan -10% gacha kamayishiga yo'l qo'yilgan. Ushbu salbiy ko'rsatkich bo'yicha B bank 2003 yilga kelib ijobiy natijaga erishgan.

Tijorat banklarining foydalilik darajasini baholashda yana bir asosiy usul bu moliyaviy koeffitsientlarni taxlil qilish usulidir.

Moliyaviy koeffitsientlar taxlili quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-Foydaniq aktivlarga nisbati:

-Soliq to'langunga qadar bo'lgan foydaniq aktivlarga nisbati;

-Foydaniq xususiy kapitalga nisbati:

-Foydaniq bir xodimga to'g'ri keladigan ulushi;

Foydaniq aktivlarga nisbati koeffitsienti bank rentabelligini baholash uchun birinchi darajali ko'rsatkich hisoblanadi. Koeffitsientni hisoblash metodi quyidagicha:

Sof foyda

$$K_1 = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Balans aktiv bo'limining jami qoldig'i}};$$

Sof foyda – nostabil daromadlar

$$K_{1,1} = \frac{\text{Sof foyda – nostabil daromadlar}}{\text{Balans aktiv bo'limining jami qoldig'i}};$$

K_1 va $K_{1,1}$ koeffitsientlarning farqi shundan iboratki, $K_{1,1}$ koeffitsientini hisoblashda foyda nostabil daromadlardan tozalanadi va kelgusida ushbu koeffitsient dinamikasini baholashda printsiptial axamiyatga ega bo'ladi. Agarda bank foydasi asosan nostabil daromadlar hisobiga shakllansa, u xolda bankning reytingini yuqori deb hisoblab bulmaydi.

Jaxon banki mutaxassislari tomonidan ushbu koeffitsientlar bo'yicha belgilangan normativ daraja, K_1 uchun 1, 15% dan 0, 35% gacha va $K_{1,1}$ uchun 1% dan 0,6% gacha tebranishi mumkin.

Soliq to'langunga qadar foydaning aktivlarga nisbati — bank foydasi boshqaruvini baholovchi koeffitsient hisoblanib, u o'rganilayotgan muayyan davr uchun quyidagicha aniqlanadi:

Sof foyda + to'langan barcha soliqlar miqdori

$$K_1 = \frac{\text{Sof foyda + to'langan barcha soliqlar miqdori}}{\text{Balans aktiv bo'limining jami qoldig'i}};$$

Foydaning aktivlarga nisbati va soliq to'langunga qadar foydaning aktivlarga nisbati koeffitsientlari o'rtasidagi tafovut. ya'ni farq kanchalik yuqori bo'lsa, bank foydasining boshqarilish saviyasi ham shunchalik pastligidan dalolat beradi.

Foydaning xususiy kapitalga nisbati. Xususiy kapital bankning eng barqaror resurslari hisobdanadi. Bank foydasi xususiy kapital xisobiga ko'payishi bankning rentabellik koeffitsientini saqlanib borishini ta'minlaydi. SHuningdek ushbu koeffitsient ta'sisshilar va aktsionerlarni ham qiziqtiradi.

Xususiy kapitalning foydalilik koeffitsienti quyidagicha hisoblanadi:

sof foyda

$$K_1 = \frac{\text{sof foyda}}{\text{xususiy kapitalning o'rtacha miqdori}};$$

sof foyda

$$K_{1,1} = \frac{\text{sof foyda}}{\text{aktsionerlik kapitalining o'rtacha miqdori}};$$

sof foyda – nostabil daromadlar miqdori

$$K_{1,2} = \frac{\text{sof foyda – nostabil daromadlar miqdori}}{\text{aktsionerlik kapitalining o'rtacha miqdori}};$$

sof foyda + barcha to'langan soliqlar miqdori

$$K_{1.3} = \frac{\text{aktsionerlik kapitalining o'rtacha miqdori}}{\text{muayyan davrdagi sof foyda}};$$

Jaxon amaliyotida tijorat banklari uchun K_1 koeffitsient bo'yicha belgilangan meyor 10% dan 20% gacha, $K_{1.3}$ uchun esa 15% qilib belgilangan.

Foydaning bir xodimga to'g'ri keladigan ulushi. Bu koeffitsient foydani boshqarilishi bilan bank personalini o'rtasida muvofiqlik qay darajada ekanligini baholash uchun imkon beradi. Koeffitsientni hisoblash metodi quyidagicha:

$$K = \frac{\text{muayyan davrdagi sof foyda}}{\text{muayyan davrdari xodimlarning o'rtacha soni}};$$

SHunday qilib mavzuimizni yakunlar ekanmiz bankning foyda ko'rsatkichiga turli xil omillar ta'sir etishi va ularni hisoblash va baxolash ham turlicha olib borilishini kuzatishimiz mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasida kredit operatsiyalari bo'yicha foizlarni hisoblashning printsiplari va ahamiyati.
2. Foizli marjaning koeffitsientlari.
3. Bank foydalilik darajasini baholashning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.
4. Bank foydasini boshqarishning xususiyatlari va ahamiyati.
5. Bankning foydalilik darajasini baholashda moliyaviy koeffitsientlar taxlili.

9-mavzu: TIJORAT BANKLARINING TO'LOVGA LAYOQATLILIGI VA LIKVIDLIGI /2 soat/

Reja:

1. Bankning to'lovga layoqatliligi va likvidligi haqida tushuncha
2. Bank likvidligiga ta'sir etuvchi omillar.

1. Bankning to'lovga layoqatliligi va likvidligi haqida tushuncha

Bank likvidligini boshqarish bankning joriy davrdagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish bilan birga, uning kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan majburiyatlarini ham bajarishini prognozlashtirishni o'z ichiga oladi.

Bank likvidligini boshqarish ta'limoti tijorat banklarining tashkil etilishi davriga to'g'ri keladi. Likvidlikni boshqarish bo'yicha bank amaliyotida hozirgacha uchta ta'limot mavjud, bular:

- tijorat ssudalari ta'limoti;
- kutilayotgan daromad ta'limoti;
- passivlarni boshqarish ta'limoti.

Tijorat ssudalari ta'limoti ildizlari bilan XVIII-asr ingliz banki amaliyotida boshlangan. Bu ta'limot tarafdorlari shunday talqin qiladilarki, tijorat banklari aktivlarini qisqa muddatli ssudalarga joylashtirib, vaqtida qaytarib olishgandagina

o'z likvidligini barqaror saqlab turadi. Hozirgi davrda bu ssudalar tovar zaxiralariga yoki aylanma kapitalni to'ldirishga beriladigan ssudalarga o'hshashdir.

Bank ishi tarixi yo'lida banklar qimmatli qog'ozlar mol mulk, iste'mol tovarlari sotib olishga ssuda berish qishloq xo'jaligiga uzoq muddatli kreditlar berish ahamiyatga molik emas deb hisoblangan. Tijorat ssudalari ta'limoti iqtisodchilari nazorat organlari tamonidan keng targ'ibot etilsada, amaliyotda o'z o'rini topmadi.

Keng ommaning pul kuyish uchun bankga bo'lgan ishonchi shundan iboratki, bank ushbu mablag'lar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajaradi deb hisoblaydilar. Banklar uchun esa ushbu mablag'lar eng asosiy resurslar hisoblanib, bular yana yangi depozitlarni jalb qilish uchun asosiy manba hisoblanadi.

Bank tomonidan mijozga to'lanmay qolingan har bir noto'lovlar bankga bo'lgan yoki pirovard natijada umumiy bank sistemasiga bo'lgan ommaviy ishonchsizlikni yuzaga keltiradi.

Bank likvidligini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining tijorat banklari faoliyati ustidan nazoratini muhim bir jabhasidir. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati» to'g'risidagi qonunda alohida ta'kidlab o'tilgan, ya'ni «Banklar mablag'larning saqlanishi hamda omonatchilar oldidagi majburiyatlarining bajarilishi uchun, shu jumladan to'lovlar bir bankdan boshqa bankga o'z vaqtida o'tishi hamda mablag'larning korxonalar va tashkilotlar hisob-kitob raqamlariga kiritilishi uchun o'z mijozlari va omonatchilari oldida javobgar hisoblanadilar».

Pul kredit siyosatining asosiy monetar maqsadi muomaladagi bo'lgan pul massasini ma'lum bir meyorda saqlab turish, kredit operatsiyalarining huquqiy munosabatlarida ishlatiladigan foiz stavkalarini ma'lum o'lchamda bo'lishi hisoblanadi.

Respublikamiz bank tizimida tijorat banklarining likvidligini muvofiqlashtirishga quyidagi vazifalar kiradi:

- Tijorat banklar vakillik hisoblarida so'm qoldiqlarini kerakli darajada ushlab turish asosida to'htovsiz hisob kitoblarni ta'minlash;

- Pul kredit siyosatining strategik maqsadlarini amalga oshirish uchun pul bozorini stavka darajasiga erishish;

- Qisqa muddatli omillar sababidan kelb chiqqan moliyaviy bozorlar kon'yunkturasi to'liqlanishlarini inqirozlarini oldini olish;

- Moliyaviy bozor turli sigmentlarining rivojlanishiga ko'maklashish;

Bank likvidligining kay mikdorda bo'lishi uni samarali boshqarishga bog'liqdir. Bank likvidligini samarali boshqarish quyidagi omillar bilan ta'minlanadi:

- Bank va uning atrofidagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi, aniq ifodalangan va xujjatlashtirilgan likvidlikni boshqarish siyosati mavjudligi;

- Bank turli bo'linmalari faoliyatining samarali muvofiqlashtirilganligi;

- Bank likvidlik holatini monitoring qilish vazifasi yuklangan bo'linma mavjudligi;

- Ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda bankning aktiv va passiv zholatlarini tahlil qilish uchun axborot tizimi mavjudligi.

Bank likvidligini samarali boshqarish aktivlar va passivlarni boshqarishni ham o'z ichiga olishi kerak. Likvidlikni boshqarishga bo'lgan talablar bank balansining aktiv va passiv qismlarini boshqarishni ham ta'minlashi lozim.

Banklarning aktiv va passivlarini boshqarish jarayonida menejerlar bank likvidligini boshqarish bo'yicha quyidagi vazifalarni hal etishlari lozim:

- Mijozlar aniqasoslangan va tegishli ta'minotga ega bo'lganda ularning kreditga bo'lgan talablarini qondiri;

- Mijozlarning o'z depozitlarini qaytarib olish bo'yicha hoxish istaklarini qondirish;

- Moliya bozorida bankning ishonchliligini namoyish etish;

- Bozorga jalb qilinayotgan resurslar qiymatini chegaralash;

- Bankning yalpi foydasini muvofiqlashtirish.

Bank likvidligini buzish sabablarini uch guruxi mavjud bo'lib: birinchi sabablar guruxi banklar faoliyatidagi utilayotgan xatarlar darajasini baholay olmaslik qaltisligi hisoblanadi. Ikkichi guruxga mijozlar bilan xam, banklar bilan xam bog'liq bo'lmagan, lekin o'z kapitalini qaytarib ololmay kreditor vaziyati kiradi. Uchinchi sabablar guruxi aktiv va passivlarni vaqt bo'yicha tengligini to'g'ri kelmasligi.

Bank likvidligini saqlab turish uchun banklar aktiv va passiv operatsiyalar buyicha maqsadga yo'naltirilgan siyosat olib borishi kerak. Banklarning yuqori likvidligi, samarali ishlayotgan bank muassasalariga talab va taklifning kon'yunkturaviy tebranishlarni oson engishiga yordam beradi. Likvidlik kredit tashkilotlarning moliyaviy holatlarining muhim tavsifnomasidir, shuning uchun bank moliyaviy holatini baholash uchun turli koeffitsentlar qo'llaniladi. Banklar boshqa funktsiyalarni bajarishdan tashqari trast, konsalting va qimmatli qog'ozlar emissiyasi bilan ham shug'ullanadilar. Masalan: AQSH tijorat banklariga Federal boshqaruvi obligatsiyalari va mahalliy xokimiyat organlari qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalar o'tkazishga ruxsat berilgan, lekin aktsionerlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlarini sotib olishga ruxsat berilmagan.

Germaniya, SHveytsariya va Evropaning boshqa davlatlarida banklar, xususi kompaniyalarning qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarini bajarishga haqlidirlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi har qanday tashkilot singari, bank ham tavakkalchilik xatarlaridan, inqirozdan va yo'qotishlardan holi emas. Tabiiyki, daromadni ko'proq olish maqsadida bank rahbariyati zararlarni paydo bo'lish imkonini yo'qotishga xarakat kiladi. Bu ikki maqsad xuddi bank aktsiyadorlari xamda omonatchilari maqsadlariday, ma'lum miqdorda bir-biriga qarama-qarshidir. Ma'lumki, aktsiyadorlar maksimal daromad olish uchun tavakkal qilishadi, omonatchilar esa bankka qo'ygan pul mablag'larini ishonchli saqlanishiga qiziqishadi.

Tavakkalchilik xatari bilan daromadlilikni optimal tengligini ushlab turish-bank boshkaruvini eng og'ir va asosiy muammolaridan biri xisoblanadi.

Tavakkalchilik xatari noma'lumlik so'zi bilan tutash, noma'lumlik esa oldindan ko'ra bilmaslikni taqozo etadi. Bank uchun barcha xatarlarning turlari kredit portfeli tarkibi va moliyaviy aktivlar bilan bog'liq.

Tijorat ssudalarining asosiy kamchiligi, rivojlanayotgan iqtisodiyotning kredit talablarini hisobga olmaganligidadir, chunki, nazariyaga bo'ysunish - bu korxonalar kengayishini moliyalashtirish, uy-joy va er sotib olishga ssuda berishni ta'qiqlagan edi. Bu nazariya bank omonatlarini nisbiy barkarorligini xisobga ololmas edi. Bank omonatlarni birinchi talab qilinganda qaytarishi mumkin, lekin barcha omonatchilar bir kunda olmasliklari haqiqat. Omonatlarning barqarorligi bank resurslarining uzoqroq muddatga, (likvidlikka zarar etmagan xolda) joylashtirish mumkin. Nazariya asoslari normal iqtisodiy jarayonlarida barcha ssudalar o'z vaqtida to'lanishi aytilgan. Haqiqatdan yuqori ish faoliyatidagi savdo va ishlab chikarish o'z majburiyatlarini bajarishda qiyinchilikka uchramaydilar. Lekin iqtisodiy inqirozlarda - «naqd mablag'lar - tovar zapaslari - sotilish - hisoblar bo'yicha debitorlar - «naqd mablag'lar» zanjiri faoliyat ko'rsatmaydi. SHuning uchun firma yoki kompaniyalar bank ssudasini to'lashga imkoni bo'lmay qoladi.

Almashtirish nazariyasi shuni e'tirof etadiki, bank likvidliligiga erishish uchun bank aktivlarini investor va kreditorlarga naqd pulga sotish yoki naqd pulga o'rin almashtirish kerak. Agar kreditlar o'z vaktida qaytmasa ta'minotga berilgan tovar material boyliklar bozorda naqd pulga sotilishi mumkin. Agar qiyinchiliklar tug'ilsa, Markaziy bank qayta moliyalashiga murojaat qilishlari ham mumkin. Konkret bu vaziyatda ayrim tijorat banklarining likvid resurslarining qoplanish sharti bo'lib sotilishi mumkin bo'lgan aktivlar doimo bo'lishi kerak. SHuning uchun bank tizimi likvid bo'lishi Markaziy bankning sarhisob uchun taklif qilinayotgan aktivlarni sotib olishi kerak bo'ladi. Bu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, uzoq vaqtlar tez sotiladigan qimmatli qog'ozlar - likvid rezervlarni ajoyib manbai bo'lib xizmat qilgan (ularni tezda naqd pulga aylantirish mumkin edi). SHuning uchun hozirda ham qimmatli qog'ozlarni II-navbat rezervlari hisoblanadi.

Yuqotishlarsiz va to'htovsiz konvertlashtirish jarayonini amalga oshirish uchun, II-gurux rezervlar uchta asosiy talabga javob berishi kerak. YUqori sifat, tez muddatda sotilishi, qisqa muddatda to'lanishi lozim.

Ular kredit xataridan, bozor iqtisodiyotiga xos foiz stavkalarining o'zgarishidan himoyalangan bo'lishi lozim.

Likvidlikni muvofiqlashtirish tizimini boshqarish, foiz stavkalarini belgilash va bank operatsiyalarini strukturasini belgilashdan iborat.

Kutilayotgan daromad nazariyasiga binoan to'lovlar va kreditlar qaytishi grafigi asosiga mijozlarning bo'lg'usi daromadlarini rejalashtirish kerak. Bu ta'limot yuqoridagi ta'limotlarni inkor qilmaydi, lekin shuni ta'kidlaydiki, mijozlarning daromadlarini ssuda qaytishi bilan bir zanjir hosil qilishi kredit ta'limoti va aktseptdan ko'ra maqsadga muvofiqroqdir. YAna bu ta'limot shuni uqtiradiki, bank likvidligiga kredit va investitsiyalarning qaytarish muddatlari strukturasini o'zgartirishi bilan ta'sir etish mumkin. Ishlab chiqarishga berilgan qisqa muddatli kreditlar, o'rta va uzoq muddatli kreditlardan likvidliroq, xo'jalik

tovarlarini sotib olishga berilgan iste'mol krediti esa uy-joy qurish uchun berilgan ayrim kreditlar turidan ko'ra likvidlidir.

Bank faoliyati tarixida kredit portfelining uch tavanakkalchilik xatari mavjud:

1. Kredit xatari
2. Likvidlik xatari
3. Foiz stavkalarining o'zgarish xatari.

Kredit xatari - bu bank ssudasi yoki qimmatli qog'ozlar bo'yicha mablag' qaytmaslik xataridir. U ssudalar portfeli sifati bilan bog'liq. Kredit xatarining ikki xil ko'rinishi mavjud: suiste'molchilik xatari, to'lovga qobiliyatsizlik.

Suiste'molchilik xatari - bu 80-yillar boshida juda ko'p qaytmagan kreditlarning keng tarqalganligi sababi bo'lgan, masalan: AQSHda banklarining inqirozi shu xatar tufayli sodir bo'lgan. Bu erda gap bank rahbariyati va yuqori mansabdorlari tomonidan do'stlariga, qarindosh urug'lariga kerakli ta'minotsiz va mijoz moliyaviy holatini o'rganmasdan berilgan «do'stona» kreditlar haqida yuritilgan.

CHet el kreditlari xatari - bu 70-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlar mijozlarini kredit to'lovlarini ommaviy kechiktirganligi sabab bo'lgan xatardir. Bu bir qator yirik Amerika banklarining inqirozlariga sababchi bo'lgan. 1974 yilda shu sababdan «Frenklin neshnl bank» inqirozga uchragan. (aktivlari 3.7 mlrd. dollarni tashkil etgan).

Ichki zaymlar bo'yicha to'lovga layoqatsizliklar mijozlarning to'lovga qobilligiga ta'sir etadigan omillarni hisobga olinishi qiyinligi bilan bog'liq. Bu xatar bilan kurash asosan bank ssudalari portfelining diversifikatsiya qilish bilan bog'liqdir.

2. Bank likvidligiga ta'sir etuvchi omillar.

Likvidlik, bu bank faoliyatining mustahkamligi va barqarorligini bildiruvchi umumlashtirilgan sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, bankning likvidlik darajasini ta'minlab turish har qanday bankni boshqarishda muhim vazifa hisoblanadi.

Jalb qilinishi mumkin bo'lgan resurslarni oqilona to'lovlar evaziga va ayniqsa, kerakli paytlarda olish imkoniyatiga ega bo'lgan bank likvid bank hisoblanadi.

Likvidlik darajasining etarli bo'lmasligi bank uchun jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarni tug'diradi. Bunday hollarda, odatda, bank o'z depozitlarini yo'qotishni boshlaydi, ya'ni naqd pul mablag'lari kamayadi va oqibatda likvid hisoblangan qimmatbaho qog'ozlarni ham yo'qotishga majbur bo'ladi. Boshqa moliyaviy institutlar esa, bankrotlik chegarasida turgan bankka qo'shimcha garov ta'minotisiz yoki yuqori foizlarda qarzlarni berishni boshlaydi va bu o'z navbatida bank daromadining ham qisqartirilishiga olib keladi.

Likvidlik - bu bankning o'z kreditorlari oldida majburiyatlarini vaqtida va to'la yo'qotishlarsiz bajarish qobiliyatini bildiradi.

Likvidlikka berilgan ta'rifda ko'rsatib o'tilgan ushbu ikki ko'rsatkich - majburiyatlarni o'z vaqtida va yo'qotishlarsiz bajarilishi bank faoliyati sifatini ifodalovchi juda ko'p ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'ladi.

Bank faoliyati sifatini juda ko'p ichki omillar bilan bog'lash mumkin, ularning eng asosiylari jumlasiga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq sanaladi.

- bankning mustahkam kapital manbai;
- aktivlarning sifati;
- depozitlar sifati;
- tashqi manbalarga tobelik;
- to'g'ri yo'naltirilgan menejment;
- birinchi darajali imidj .

Mustahkam kapital manbai - bu bank kapitalida xususiy kapitalning salmoqli miqdorni tashkil qilishini bildiradi. O'z navbatida xususiy kapital aktivlar xatari uchun asosiy himoya manbai hamda omonatchilar va mablag' qo'yuvchilar uchun ham asosiy kafolat beruvchi manba hisoblanadi. Xususiy kapitalga ustav fondi va bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi hamda turli maqsadlar uchun tashkil qilingan boshqa fonlar kiradi.

Bank likvidligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblangan aktivlar sifati deganda bankning mavjud aktivlari tarkibi va tuzilmasi tushuniladi.

Aktivlar sifati to'rtta mezon asosida belgilanadi, bular:

- likvidlik;
- xatar;
- daromadlilik;
- diversifikatsiyalanganlik.

Aktivlar likvidligi - bu aktivlarni naqd pulga sotish orqali transformatsiyalanish qobiliyatidir yoki karzdor tomonidan majburiyatlarni so'ndirilishidir.

Aktivlarning likvidlik darajasi ularning o'z xizmat doiralaridan kelib chiqadi. Masalan, pul mablag'i ko'rinishidagi bank aktivlari bankning to'lov vazifalarini bajarishga belgilangan; ssudalar esa, mijozlarning qisqa va uzoq, muddatli ehtiyojlarini qondiradi.

SHunga ko'ra, likvidlik darajasi bo'yicha bank aktivlari ham bir necha guruxlarga bo'linadi. Birinchi guruhni birinchi darajali likvid aktivlar tashkil qilib, ular quyidagilardan iborat:

- a) bankning kassasida va korxonalarda mavjud bo'lgan pul mablag'lari;
- b) bank investitsiya portfelidagi davlat qimmatbaho qog'ozlari.

Likvidlik darajasi bo'yicha ikkinchi guruh aktivlari - bu yuridik va jismoniy shaxslarga ajratilgan qisqa muddatli ssudalar, bank kreditlari, faktoring operatsiyalari, aktsionerlik jamiyatlarining qimmatbaho qog'ozlari. Ushbu aktivlarning naqd pulga aylanish qobiliyati ma'lum bir davrga bog'liq bo'ladi va bir guruh aktivlariga nisbatan sekinroq aylanish xususiyatiga ega.

Uchinchi guruhga bankning uzoq muddatli qo'yilmalari, bank investitsiyalari, uzoq muddatli ssudalar, lizing operatsiyalari va investitsiya qimmatbaho qog'ozlar kiritiladi.

Va nihoyat, bank aktivining to'rtinchi guruhiga ikkinchi darajali likvid hisoblanuvchi aktivlar kiradi, ya'ni bular: muddati o'tgan ssudalar, qimmatbaho-qog'ozlarning ayrimlari, bino va inshootlardir.

Aktivlarning xatar darajasi bankning har bir belgilangan faoliyat turining o'ziga xosligi jihatidan juda ko'p omillarga bog'liq bo'ladi. Masalan, kredit xatari - qarzdorning moliyaviy holati, kredit xajmi, kreditni berish va qaytarish tartibi va h.k. kabi omillar bilan bog'liq. Qimmatbaho qog'ozlarga mablag' qo'yish esa, emitentning moliyaviy holati barqarorligi, qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish va sotish mexanizmi, ularni birjada kotirovkalanish qobiliyati va h.k. kabi omillar bilan bog'likdir.

Bank aktivlari xatar darajasi bo'yicha ham bir necha guruxlarga ajratiladi.

Aktivlarni xatar darajasi bo'yicha tasniflanishi har bir aktivlar guruhining xatar saviyasi turli mamlakatlarda har xil maqsadlar uchun turlicha olib boriladi. Xalqaro amaliyotda kapitallarning etarlilik darajasi Bazeldagi bitimning tavsiyalariga asosan baholanadi. Ushbu bitimga asosan, aktivlar o'zining xatar darajalaridan kelib chiqib, 4 ta guruhga ajratilib tavsiflanadi,

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tavsiyasiga ko'ra esa, kreditlar portfelining sifatini muntazam taxlil etishda, har bir kreditning xatar darajasidan kelib chiqib, ularni 5 ta tasnif razryadlariga ajratiladi, ya'ni bular:

- a) yaxshi;
- b) qoniqarli;
- v) substandart;
- g) gumonli;
- d) umidsiz..

Bank bo'limlari qoniqarli deb tasniflangan kreditlar bo'yicha - 10 foiz substandart kreditlar bo'yicha - 25 foiz; gumonli kredtlar bo'yicha - 50 foiz; umidsiz kreditlar bo'yicha - 100 foiz mikdorda zarur mablag'larni rezervga ajratma sifatida o'tkazib, ssudalar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun rezerv tashkil etishlari shart.

Aktivlarning daromadlilik sifati ularning samaradorligi va daromad keltirish qobiliyatlari, shuningdek bankni rivojlantirish hamda kapital bazasini mustahkamlash kabi vazifalarini bildiradi.

Aktivlar daromadlilik jihatidan 2 guruhga bo'linadi:

- daromad keltiruvchi;
- daromad keltirmaydigan.

Daromad keltiruvchi aktivlarning ulushi yuqoriligi bankning daromadi ko'pligini, shuningdek o'z kapital bazasini mustahkamlab olish imkoniyati yuqoriligini bildiradi. Bu esa, bankning mavjud xatarlarga nisbatan mustahkamligini bildiradi.

Aktivlar sifatini tasniflashda ularni diversifikatsiyalash ham muhim ahamiyatga ega. Aktivlarni diversifikatsiyalash umumiy qilib aytganda, bu bank resurslarini turli sohalarga joylashtirishdagi taqsimlash darajasini bildiradi.

Aktivlarni diversifikatsiyalash ko'rsatkichlari bo'lib: - resurslarni asosiy yo'nalishlarga joylashtirilishi bo'yicha bank aktivlarining tuzilishi: ob'ekt va sub'ektlar bo'yicha kredit qo'yilmalarining tuzilishi; qimmatbaho qog'ozlar portfelining tuzilishi, bankda amalga oshirilayotgan valyuta operatsiyalariga ko'ra valyutalar tuzilishi; bankning tarkibiy tuzilishi kabilar hisoblanadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, bank aktivlarining diversifikatsiyalanish darajasi

qanchalik yuqori bo'lsa, bank likvidligi ham shuncha yuqori bo'ladi, deb hisoblash mumkin.

Ma'lumki, bankning likvidlik darajasini belgilovchi asosiy omillardan yana biri - bu depozitlarning sifatligidir. Depozitlar bazasi yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'lari hisobiga tashkil topadi. Depozitlar bank tomonidan joylashtirilishi bo'yicha esa, hisob-raqamlarida va joriy hisob – raqamlarida, muddatli depozitlar va jamg'arma omonatlarida yuritiladi. Depozitlarning sifatlik omili (talab qilib olinadigan, jamg'arma depozitlar va h.k.) ularning barqarorligini bildiradi.

Bank depozitlari mustahkam qismining ko'payishi, bankning likvid aktivlarga bo'lgan ehtiyojini pasaytiradi.

Bank likvidligini ta'minlovchi yana asosiy omillardan biri bu, bankning tashqi manbalarga bog'likligidir. Bankning tashqi manbalarga bog'liqligi deganda, bankning boshqa banklar yoki moliyaviy institutlardan olgan kreditlarga qay darajada bog'lanib kolganligi tushuniladi.

Banklardan olingan kreditlar ma'lum hollarda likvidlikka xavf tug'dirmaydi, aksincha likvid mablag'larga bo'lgan qisqa muddatli ehtiyojlarni bartaraf etishga yordam berishi mumkin. Lekin, agar banklardan olingan kreditlar jalb qilingan resurslarning asosiy qismini tashkil qilsa, nomuvofiq banklararo vaziyatlarda bankning barbod bo'lishiga olib keladi. Tashqi manbalarga ko'p tayangan bankning biznes uchun xususiy bazasi, rivojlanish kelajagi, shuningdek o'zining xususiy resurslari ham yuqori xatarlar ostida turadi.

Menejment - bank faoliyatining umumiy boshqarish tizimi bo'lib, o'z navbatida likvidlik darajasi bilan bog'liq bo'lgan ichki omillardan biri hisoblanadi. Bank boshqaruv siyosatining mazmuni va maqsadi uning boshqarish sifatini ifodalaydi. Bank tashkiliy tuzilmasining maqsadga muvofiqligi bankning strategik va kundalik masalalarini yuqori darajada echish va mas'uliyatli qarorlarni qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bank menejmentining yuqori darajaga ko'tarilishi uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak:

- malakali mutaxassislarning etarlicligi;
- axborotlar bazasining tashkil qilinishi;
- bank faoliyatini boshqarishda boshqaruv organlarining ilmiy yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlashi.

Likvidlikni ta'minlovchi yana bir omil bu - bank imidjidir. Bank imidjining yuqoriligi, resurslarni jalb qilish va likvid mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarning tezda oldini olish kabi masalalarni hal qilishda boshqa banklarga nisbatan ko'proq afzalliklarga ega bo'ladi. Yaxshi obro'ga ega bo'lgan bank uchun depozitlar bazasining barqarorligini ta'minlab borish oson bo'ladi. Bunday bankning moliyaviy holati va mijozlar bilan aloqalarni bog'lash imkoniyati yuqori bo'lib, bu o'z navbatida bankning yuqori sifatli aktivlarga ega ekanligini ta'minlaydi.

Bankning ijobiy imidjga erishishi juda murakkab jarayon bo'lib, bankning rivojlanish strategiyalari to'g'ri tuzilganligi; xizmat ko'rsatish sifatini oshirish; marketing tadqiqotlarini chuqurlashtirish, bank reklamasini keng va muntazam ravishda aniq tashkil qilish; jamoat bilan aloqalarni belgilash, o'z faoliyatining

oshkoraligi, shuningdek hisobotlarni matbuotda e'lon qilib borish kabi masalalar bilan bog'liq.

YUqorida ko'rib o'tilgan ushbu omillar o'zining alohida xususiyatlariga ko'ra, katta yoki kichik ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu ko'rib o'tilgan omillarning har biri bank likvidligiga ijobiy yoki salbiy, shuningdek birgalikda yoki alohida holda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, ayrim banklar uchun resurslar sifati va tuzilishi muhim rol o'ynasa, boshqa banklar uchun esa, birinchi tartibli omil sifatida - aktivlarning sifat darajasi muhim rol o'ynaydi yoki ushbu omillar umumlashgan, ya'ni kompleks holatda ham kelishi mumkin.

Likvidlik ko'p jihatdan bank faoliyatining tashqi omillariga ham bog'liq bo'lib, ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

- mamlakatdagi siyosiy va iqtiso-diy holat;
- qimmatbaho qogozlar bozori va banklararo munosabatlarning rivojlanganligi;
- qayta moliyalash tizimining tashkil qilinganligi;
- Markaziy Bankning nazorat funktsiyalari samaradorligi.

Mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlik: bank operatsiyalarining rivojlanishiga va bank tizimining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishiga zamin yaratadi, bank faoliyatining iqtisodiy barqarorlik asoslarini ta'minlab beradi, ichki va xorijiy investorlarning bankka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Qimmatbaho qog'ozlar bozorining rivojlanishi bankning daromad olishida yo'qotishlarsiz likvid mablag'larini tashkil qilish uchun eng qulay variantni ta'minlab beradi. SHuningdek, ko'pchilik rivojlangan davlatlarning bank tizimida aktivlarni naqd pulga almashtirishning tezligi darajasi ko'p jihatdan aynan fond bozorining rivojlanganligiga bog'liq.

Banklararo munosabatlarning rivojlanishi esa, banklarning vaqtinchalik bo'sh turgan moliyaviy resurslarini tezda o'zaro qayta moliyalashtirish uchun qulay imkon yaratadi va banklar bunday sharoitda qulay imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Ushbu omillar bilan yana bir uzviy bog'liq bo'lgan omil bu -Markaziy Bankning tijorat banklarini qayta moliyalashtirish tizimidir. Markaziy Bank kreditlari tijorat banklari uchun likvid aktivlarini to'ldirish manbai hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Bank likvidligi haqida tushuncha.
2. Bank likvidligiga ta'sir etuvchi ichki omillar va ularning tavsifi.
3. Bank likvidligiga ta'sir etuvchi tashqi omillar va ularning tavsifi.
4. Aktivlarni diversifikatsiyalashning bank likvidligiga ta'siri.

10-mavzu: TIJORAT BANKLARINING LIKVIDLIGINI BOSHQARISH VA BAHOLASH ASOSLARI /2 soat/

Reja:

1. Tijorat banklari likvidligini boshqarish asoslari.

1. Tijorat banklari likvidligini boshqarish asoslari.

Bank tavakkalchilik xatarining keyingi turi likvidlilik xataridir. Banklarda likvidlilik ta'limotining ikki omili mavjud: ichki va tashqi. Ichki likvidlilik tez sotiladigan aktivlarning ma'lum turlarida aks etgan, bu aktivlar uchun barqaror bozor mavjud, hamda ular pul joylashtirishning ishonchli ob'ektidir. Tashqi likvidlilik-likvid zahiralarini ko'paytiradigan majburiyatlarining bozorda sotib olinishi bilan bog'liq. Xususan boshqa bankda rezerv qoldiqlarini sotib olishdir. SHuning bilan bank «majburiyatlarni boshqarish» siyosatini olib borib, nafaqat likvidlilik darajasini oshirad, balki olingan mablag'larni foyda bilan ishlatib, o'ziga qo'shimcha daromad oladi.

Passivlarni boshqarish ta'limoti tarafdorlari banklarini likvidlilik muammosini bozordan qo'shimcha mablag'lar jalb qilish bilan echsa bo'ladi deb hisoblashadi.

Boshlanishda bu ta'limotni etakchi moliyaviy markazlar yirik banklari himoya qilishda, keyinchalik esa bu ta'limot barcha banklar tomonidan qabul qilindi.

Likvid resurslarni to'ldirish uchun banklar Markaziy bankka murojaat qilishadi. Amaliyotda u yoki bu darajada barcha ta'limotlar o'rganiladi, lekin har biri ko'proq bir ta'limotni tanlaydi. Likvidlik holatini boshqarishda ikki yo'nalishni ko'rsatish mumkin.

1. Zahiralar ustidan nazorat. Bu yo'nalishning mohiyati bankka daromad keltirmaydigan naqd pul mablag'iga yo'l qo'ymaslikdir.

2. Depozitlar o'sishining yuqori davrlarda majburiy rezerv talablarini kerakli darajada qondirish miqyosida zahiralarini doimiy ushlab turish siyosati bilan bog'liq.

SHuning uchun bank likvidligini baholashda bank kassasidagi naqd pullar qoldig'i mijozlarni talabini qondirish uchun naqd pullar chiqarish aylanmasi hajmini, kassadagi pullar aylanishini bank majburiyatida ko'rinadigan hisoblar bo'yicha debet muomalasiga kerakli pullarni kassadan berilishini kamsitmasligi kerak. Yirik banklar naqd pul mablag'larini qattiq nazorat ostiga oladilar, kichik banklar esa kassani boshqarishning mohirona yo'llarini, ya'ni operatsiyalar umumiy daromadliligi ta'minotini yirik banklardan o'rganadilar. Mijozlar bilan hisob-kitob operatsiyalarini o'tkazishda bank likvidligi butunlay boshqa vaziyatda bo'ladi. Bunday holatlarda mijozlarni talablarini qondirish uchun kassadanaqd pul qoldiqlarini hosil qilishning hojati yo'h. Lekin har xil naqd pulsiz hisob-kitoblar bank likvidligiga har xil ta'sir ko'rsatadi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni bir qismi mijozlar hisobidan o'tkaziladi. Bu hildagi operatsiyalar bir bank mijozlari o'rtasida bo'lsa, bu likvidlikka ta'sir ko'rsatmaydi, chunki bank majburiyatlari umumiy xajmi o'zgarmaydi. Bu vaziyatda mijozlar hisobidan mablag'lar o'rin almashadi holos. SHu tufayli likvidlikni barqaror ushlab turish uchun bank mijozlari tarkibini

shunday shakllantirish kerakki, hisob-kitob operatsiyalarini bajarish bir bank ichida amalga oshirilsin.

Bankning likvidlikni ta'minlay olmasligi yoki favkuloddagi bo'lishi mumkin bo'lgan zararlar uchun samarali rejalar tuza olmasligi bankni likvidlik krizisiga, yoxud butunlay bankrotlikka olib kelishi mumkin.

Likvidlikni boshqarshi siyosati bank Boshqaruvi tomonidan ishlab chikiladi va tasdiqlanadi. SHuningdek likvidlikni boshqarish Bank Kengashining muntazam taxlil qilib boradigan asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Xar kanday banklarda resurslarni boshqarish Komiteti tashqil qilinib, uning vazifasi likvidlikni samarali boshqarishda bank bo'linmalarining xarakatlarini muvofiqlashtirishdan iboratdir.

Komitetning tarkibiga bank bo'linmalarining raxbarlari kiradi va bank kengashi-ning raisi ushbu komitetning raisi hisoblanadi.

Komitetning a'zolari xech bo'lmaganda bir xaftada bir marotaba yig'ilishib bankning biznes rejasi va faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiy shartlariga asoslanib uning joriy va kelgusidagi resurslarga bo'lgan extiyojlarini ko'rib chiqishlari lozim.

Komitetning xulosasi bank bo'linmalarining operativ va strategik xususiyatlarini ko'rsatib beradi. Majlisgacha komitetning xar bir a'zosi taxlil qilingan tegishli hisobotlar bilan ta'minlanishlari lozim. Bankda likvidlikni boshqarish bo'yicha hisobotlarni taxlil qilib boruvchi aloxida bo'lim tashqil qilinib, ushbu bo'lim kuyidagi vazifalarni bajaradi:

- bank va bank bulinmalarining kundalik likvidlilik xolatini taxlil qilib boradi;

- bank boshqaruvi uchun bankning likvidlik xolati bo'yicha kundalik hisobotlarini tayyorlab beradi. SHuningdek bankning vakolatiga asosan barcha bo'limlardan kerakli axborotlarni yig'ib, likvidlikni qisqa va uzoq muddatlarga rejalashtirish bo'yicha tavsiyalar taqdim etadilar:

Likvidlikning kundalik (xaftalik) hisoboti.

1. Joriy pozitsiya.

- kassadagi naqd pullar;
- korrespondentlik hisob rakamidagi pul mablag'lari;
- Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (garovga kuyilganlaridan tashkari);
- boshqa, xokimiyat organlariga tegishli bo'lgan qimmatli-qog'ozlar(garovga kuyilganlaridan tashkari);
- banklarga ajratilgan kreditlar (overnayt);
- boshqa banklardagi korespondentlik hisob rakamdagi pullar;
- boshqa banklarga kuyilgan va muddati kelib qolgan depozitlar;
- muddati kelib qolgan kreditlar (banklarga ajratilgan kreditlar xam);
- boshqa muddati kelgan aktivlar;

2. Moliyalashtirilishi kutilaetgan manba'lar.

- depozitlarning kelgusida usishi;
- muddati kelib qolgan kreditlarning qaytishi;
- boshqalar;

3. Moliyalashtirilishi kutilayotgan talablar.

-yangi kreditlarni moliyalashtirish (kredit turlari batafsil ko'rsatilishi shart);
- depozitlarning chiqib ketishi (xar bir depozit hisob rakamini batafsil ko'rsating);

-asosiy vositalarning sotib olinishi;
-boshqa muddati kelgan majburiyatlar;

4. Balansdan tashkari majburiyatlar.

-moliyalashtirilgan kredit liniyalari;
-akkreditiv bo'yicha to'lovlar;
-sotib olingan qimmatli-qog'ozlar bo'yicha muddati kelgan majburiyatlar;
-sotib olingan xorijiy valyutalar bo'yicha majburiyatlar;
-boshqa muddati kelgan majburiyatlar;

5. Resurslar bo'yicha taqchillik yoki ortiqqligi (1+2-3-4). Ushbu punktda resurslarning defitsiti yoki ortiq kismining mavjudligidan kelib chikib, kelgusi davrda likvidlik talablarini inobatga olgan xolda defitsit xolatida uni qanday qoplash, ya'ni (banklararo munosabatlar orqali, aktivlarni sotish orqali, Markaziy bankdan resurslarni qarzga olish orqali va x.k.) yoki resurslarning ortiqismi vujudga kelganda (mablag'larni kanday qilib foydali yunalishga investitsiyalash) kabi masalalari ko'rib chiqiladi.

Kundalik yoki haftalik hisobotlar batafsil tuzilib, hafta davomida qisqa muddatli likvid mablag'larning kamayishi yoki ortib qolish xollarini aniq yoritib ushbu xolat bo'yicha mablag'larni jalb qilish yoki investitsiyalash uchun tavsiyalar bilan yoritilgan bo'lishi kerak.

Likvidlikni uzoq muddatga rejalashtirish (oylik, kvartallik, yillik) aktivlar va majburiyatlarning qaytish jadvaliga asosan tayyorlanadi.

Markaziy Bankning nazorat funktsiyalari samaradorligi, xususan, likvidlikni boshqarish sohasida davlat nazorat organlarining tijorat banklari bilan o'zaro ta'sir ko'rsatish darajasini belgilaydi.

SHunday qilib bank likvidligi, bu bank faoliyatining sifat xarakteristikalaridan biri bo'lib, ushbu ko'rsat-kich yuqorida keltirilgan juda ko'p doimo o'zgarib turuvchi omillar bilan chambarchas bog'liq ekan.

Nazorat uchun savollar:

1. Tijorat banklari likvidligini boshqarish haqida tushuncha.
2. Respublikamiz bank tizimida banklarning likvidligini muvofiqlashtirish bo'yicha vazifalar.

11-mavzu: TIJORAT BANKLARINING LIKVIDLIK KO'RSATKICHLARI /2 soat/

Reja:

1. Tijorat banklarining likvidligini baholash usullari.

1. Tijorat banklarining likvidligini baholash usullari.

Banklar o'z kapitali va likvid resurslarini etarli darajada saklab turishlari aktivlarning tasniflash asosida shubhali va harakatsiz aktivlarga qarshi zahiralarni tashkil etishlari va shuningdek, zarar ko'rish xavfini kamaytirish maqsadida o'z aktivlari diversifikatsiyalanishini ta'minlab borishlari shart.

Bank tizimiga bo'lgan ishonchni ta'minlab borish uchun tijorat banklari likvidligini davlat tomonidan nazorat qilib borish muxim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari likvidligini ta'minlab borish uchun bank amaliyotining xorijiy tajribalari va milliy andozalar asosida bank tadqiqotchilari tomonidan likvidlik ko'effitsientlari ishlab chiqilgan va ulardan foydalanish va nazoratini olib borish Markaziy bank tomonidan olib boriladi.

Bank faoliyatida likvidlik muhim ahamiyat kasb etar ekan, demak, ularni aniqlash uchun turli xil ko'effitsientlardan foydalanish taklif etiladi.

Mamlakatimiz bank tizimida faoliyat ko'rsatuvchi tijorat banklari Markaziy bankning «Tijorat banklari faoliyati nazorat qilish va likvidlik bo'yicha meyorlar» №-10 1997 yil 22 avgustdagi tartibga asosan ish olib boradilar. Ushbu tartibga muvofiq tijorat banklari likvidligini baholab borishi bo'yicha qo'yidagi ko'rsatkichlar belgilangan:

- ***laxzali likvidlik ko'effitsienti;***
- ***joriy likvidlik ko'effitsienti;***
- ***qisqa muddatli likvidlik ko'effitsienti;***

-laxzali likvidlik ko'effitsienti - bankning kassasi va korrespondentlik hisob-raqamidagi mablag'larni joriy majburiyatlarga nisbati orqali aniqlanadi:

LA

$N_3 = \frac{\text{LA}}{\text{BM}};$

BM

LA – pul shaklidagi bank aktivlari;

BM – talab qilib olinadigan hisob-raqamlar bo'yicha majburiyatlar;

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra ushbu ko'effitsient bankning joriy davrdagi majburiyatlarini bajara olish qobiliyatini ko'rsatadi. Bu ko'effitsient bo'yicha eng minimal meyor 25% qilib belgilangan va tijorat banklari ushbu meyorini xar ish kunida bajarilishini ta'minlab borishlari lozim.

-joriy likvidlik ko'effitsienti- muddati 30 kungacha bo'lgan likvid shakldagi bank aktivlari miqdorini, muddati 30 kungacha bo'lgan talab qilib olinadigan majburiyat hisob-raqamlari miqdoriga nisbatini tavsiflaydi.

LA(1)

$N_4 = \frac{\text{LA(1)}}{\text{BM(1)}};$

BM (1)

LA(1) – pul shaklidagi likvid aktivlar hamda 30 kun oralig'ida qaytishi belgilangan bankning qo'yilmalari (*kredit-lar*), muddati o'tgan va uzaytirilgan kreditlardan tashqari.

BM (1) - talab qilib olinadigan hisob-raqamlar va 30 kungacha qaytarilishi lozim bo'lgan muddatli majburiyatlar;

Tijorat banklari uchun ushbu koeffitsient, N_4 bo'yicha eng minimal meyor 30% qilib belgilangan.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra ushbu koeffitsient bankning likvid aktivlari bir vaqtning o'zida bankning talab qilib olinadigan va muddatli majburiyatlarini belgilangan oy oralig'ida qoplay olish darajasini ko'rsatadi. Bunda omonatchilarni oy davomida o'z omonatlarini talab qilish muddatlari va bankning oy davomida qaytishi belgilangan ko'yilmalari taxlil qilib boriladi.

-qisqa muddatli likvidlik koeffitsienti – bankning 30 kundan to 1 yil muddatgacha belgilangan aktivarini (kassa, korsschyot, kredit qo'yil-malar)ni bank kapitali hamda 30 kundan to 1 yil muddatgacha belgilangan majburiyatlarga nisbati orqali aniqlanadi.

$$N_5 = \frac{A}{(D + K)};$$

Bunda:

A - qaytarilishi 30 kundan to 1 yil muddatgacha belgilangan bank aktivlari;

D – 30 kundan to 1 yil muddatgacha bo'lgan bank majburiyatlari;

K – bank kapitali;

Bu koeffitsient bo'yicha maksimal daraja 100% qilib belgilangan.

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra ushbu meyor ham bank faoliyatini nazorat qilish bo'yicha o'zining funktsional vazifalariga ega bo'lib, meyorga rioya qilib borish, bankning 1 yillik qarz majburiyatlarini yil davomida to'lash imkoniyatini belgilab beradi.

Bank likvidligini taxlil kilishda kursatkichlarning davr mobaynida (oy, kvartal, yil)da o'zgarish tendentsiyalariga e'tibor berish lozim va taxlil qilinayotgan davrdagi ko'rsatkichlarni o'tgan yilgi ushbu davrdagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslash orkali bank faoliyatidagi o'zgarishlarni aniqlash va baholash mumkin.

Tijorat banklari likvidligi bu bank faoliyatining sifat tavsifi hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Kredit portfeli bilan bog'liq tavakkalchiliklar va ularning likvidlikka ta'siri.
2. Tijorat banklari tomonidan likvidlikni baholash usullari.

12-mavzu: TIJORAT BANKLARINING PASSIV OPERATSIYALARI, ULARNING TURLARI VA TAVSIFI. /2 soat/

Reja:

1. Bank passivlarini boshqarishning mohiyati va ahamiyati

1. Bank passivlarini boshqarishning mohiyati va ahamiyati.

Ma'muriy buyruqbozlik sharoitida bank tizimida passivlarni boshqarish bo'yicha ishlar deyarli bajarilmas edi. Barcha korxona va tashkilotlar o'zining pul

mablag'larini Davlat bankida saqlashi shart edi va axoli ham o'z jamg'armalarini Davlat banki tizimiga kiruvchi jamg'arma kassalarga qo'yar edilar.

Sobiq ittifoq parchalanishi arafasida sodir bo'lgan qayta qurish davrida ikki pog'onali bank tizimi tashkil qilindi va iqtisodiyotda umumdavlat ssuda fondi o'rniga bozorning ssuda resurslari kirib keldi. Bozor sharoitida banklar resurslarni jalb qilishda raqobat kurashlari asosida ish olib boradilar. Resurslarni jalb qilish vositalariga bankning passiv operatsiyalari xizmat ko'rsatadi. Sobiq ittifoq davriga nisbatan bozor sharoitda banklarning emission funksiyalari ham o'zgaradi.

Naqd pulsiz ko'rinishdagi mablag'larning asosiy emissiyasini tijorat banklari o'zining kredit operatsiyalari hisobiga olib boradilar. Agarda tijorat banklari cheksiz xolda kreditlar berish va shuning hisobiga depozit hisob-raqamlarida pul mablag'larini tashkil qilish bilan shug'ullanaversalar, bu holda o'z-o'zidan mamlakatda inflyatsiya vujudga keladi va bu xolat pel-kredit tizimining buzilishiga olib keladi. Bundan kelib chiqqan xolda bank tizimida o'z-o'zidan passivlarni makro va mikro darajada boshqarishning zaruriyati tug'iladi.

Passivlarni boshqarish tijorat banklari va bank tizimining umumiy likvidligini saqlab turishi, bozordagi kredit resurslarini safarbar qilish va banklarning emission faoliyatini boshqarishga yo'naltirilgan faoliyatni o'zida aks ettiradi.

Passivlarni makro darajada boshqarish. Passivlarni makro darajada boshqarish Markaziy bank tomonidan olib boriladi. Har qanday tijorat banki o'zida mavjud bo'lgan kredit resurslaridan ortiq miqdorda kredit bera olmaydi. Bank amaliyotida shunday tushuncha mavjudki, uni bo'sh rezervlar deb ataladi va bu tushuncha bankning muayyan davrda bo'sh mablag'larni aktiv operatsiyalarga joylashtirish imkoniyatini ko'rsatib beradi. Bo'sh rezervlarning miqdori formula asosida aniqlanadi:

$$BR=(K+JR+MK+MRA)-(A+BK),$$

Bunda **BR** – bo'sh rezerv;

K – bank kapitali;

JR – jalb qilingan resurslar;

MK – markazlashtirilgan kreditlar/ Markaziy bank kreditlari;

MRA - Markaziy rezervga ajratmalar;

A – aktiv operatsiyalarga joylashtirilgan resurslar;

BK – banklararo kreditlar;

Markaziy bank tijorat banklaridagi bo'sh rezervlarining turli moddalariga ta'sir ko'rsatgan holda passivlarni boshqaradi.

Markaziy bank passivlarni ikki xil usuldagi vositalar yordamida boshqaradi. Birinchi usulning vositalariga Markaziy bankning pul bozoridagi operatsiyalari kiradi. Markaziy bank ushbu operatsiyalarni pul bozorining uch xil muxitida amalga oshiradi. Bunga kredit resurslari bozori, qimmatli-qog'ozlar bozori va valyuta bozorlari kiradi.

Markaziy bank kredit resurslari bozorida ikki xil vositani qo'llaydi, birinchisi bu tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarga limitlar belgilaydi va

ikkinchisi Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan kreditlar uchun diskont darajasi, ya'ni foizni o'zgartirib boradi. Ikkinchi vosita iqtisodiy xarakterga ega bo'lib, kredit resurslari bozoridagi talab va taklif qonunini hisobga olgan holda olib boriladi. Diskontni ko'paytirish orqali Markaziy bank kredit resurslariga bo'lgan talabni pasaytiradi va shu bilan tijorat banklarining bo'sh rezervlari hamda yangi passivlarni tashkil qilish imkoniyati ham kamayadi. Markaziy bank diskontni pasaytirishi hisobiga kreditga bo'lgan talab va tijorat banklarining bo'sh rezevlarini ko'payadi va bu tijorat banklarining passiv hisob-raqamlarida pul mablag'larining kupayishiga olib keladi.

Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda passivlarni boshqarish uchun ko'proq qo'llaniladigan vositalardan biri bu qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalardir. Markaziy bank davlatning kreditori va davlat byudjetining ijrochisi bo'lganligi uchun yirik qimmatli-qog'ozlar portfeliga ega va shu narsani ta'kidlash joizki ushbu qimmatli-qog'ozlar boshqa qimmatli-qog'ozlarga nisbatan likvidroqdir chunki ular asosan davlatnikidir. Markaziy bank fond bozorida qimmatli-qog'ozlarning sotuvchisi va xaridori sifatida ishtirok etishi mumkin.

Tijorat banklari va ularning mijozlariga qimmatli-qog'ozlarni sotish orqali Markaziy bank tijorat banklarining bo'sh rezervlarini kamaytiradi va yangi depozitlarni tashkil qilish bo'yicha emission imkoniyatlarini cheklaydi. Markaziy bank qimmatli-qog'ozlarni sotib olish orqali esa, tijorat banklaridagi bo'sh rezervlarining ko'payishiga va passiv hisob-raqamlarda yangi mablag'larni shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Pul-kredit siyosatini tartibga solish bo'yicha ikkinchi usulning vositalari Markaziy bank tomonidan belgilanadigan va tijorat banklari bajarishi lozim bo'lgan turli xil meyorlar va normativlar orqali olib boriladi. Meyoriy ajratmalar bank multiplikatori koeffitsientiga tobe va teskari proportsional tarzda bog'liq bo'lib, Markaziy bank kredit ekspansiyasi siyosatini olib kirish orqali ushbu normativni kamaytirishi mumkin va bunda tijorat banklari uchun passiv hisob-raqamlarda yangi pul mablag'larini tashkil qilishda yaxshi imkoniyatlar paydo bo'ladi. Kredit restruktursiyasi siyosatini olib kirish orqali Markaziy bank normativni ko'paytirishi ham mumkin va bu tijorat banklarining passiv hisob-raqamlardagi pul mablag'larining qisqartirishiga olib keladi.

Passivlarni mikro darajada boshqarish tijorat banklari tomonidan olib boriladi va bundan asosiy maqsad bankning yuqori daromad olishga intilishi hamda likvidligini saqlab borishidan iboratdir. Tijorat banklarida odatda 90% dan ortiq passivlar depozit operatsiyalar hisobiga shakllanadi.

Depozit operatsiyalarni amalga oshirish orqali tijorat banklari quyidagi prinsiplarga tayanadilar:

- depozit operatsiyalar shunday tarzda tashkil qilinishi kerakki, bu operatsiyalar bankning daromadiga hissa qo'shishi va kelgusida foyda olish uchun zamin yaratishi lozim;

- depozig operatsiyalarini tashkil qilish jarayonida sub'ektlarning xilma-xilligiga intilish va depozit operatsiyalarining turli usullarini amalga oshirish;

- depozit operatsiyalarni amalga oshirishda o'zaro aloqadorlik, ya'ni depozit operatsiyalar hamda aktiv operatsiyalar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlik. Bunda

depozitlar-ning muddati va miqdori hamda kredit qo'yilmalari o'rtasidagi muvofiqlik tushuniladi;

- depozit operatsiyalarni tashkil qilishda asosiy etiborni muddatli depozit turlariga qaratish lozim, chunki ular bank balansining likvidligini ta'minlovchi manba hisoblanadilar

- depozit operatsiyalarini tashkil qilishda bo'sh rezervlarni, ya'ni aktiv operatsiyalarga safarbar qilinmagan depozit hisob-raqamlardagi mablag'larni minimallashtirishga intilish lozim;

- bank xizmatlarini rivojlantirish hamda ish sifati va madaniyatini oshirish bo'yicha choralar qabul qilish, ya'ni bu depozitlarni jalb qilish uchun asosiy zamin hisoblanadi.

Har qanday tijorat banki passivlarni boshqarishdan oldin ularni taxlil qilib o'rganishi lozim. Bunda bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larni tansiflab chiqish kerak, ya'ni ushbu tarkibdagi so'ngi muddatli depozitlar, talab qilib olinadigan depozitlar hamda aholi omonatlarini muddatlari bo'yicha o'rganish lozim. Taxliliy ma'lumotlarga tayanib aloxida hisob-raqamlardagi va obotdagi mablag'lar qolidig'idan foydalangan xolda ushbu hisob-raqamlarda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan doimiy qoldiqlarni aniqlash mumkin. Bu esa ko'p korxona va tashkilotlar raxbarlarining hisob-raqamlaridagi pul mablag'larini muddatli depozit hisob-raqamlariga o'tkazish uchun ishontirishga turtki beradi. Hisob-raqamlarida kelgusida pullar etishmovchiligi xataridan kutqarish maqsadida korxonalar uchun kerakli paytda depozit shartnomasini imzolanayotganda to'lov kreditini xuddi o'sha foizlarda, ya'ni korxonaning depozit hisob-raqamlariga to'lanayotgan foizlarda olish imkoniyatini ko'zda to'tish depozit operatsiyalariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

SHunday qilib, bank tizimida depozitlar miqdoriga makro darajada pul-kredit va soliq siyosati o'zining bevosita ta'sirini ko'rsatsa, alohida bir tijorat banki uchun esa iqtisodiy va shaxsiy omillar muxim ahamiyat kasb etadi.

Foiz stavkalarining darajasi kredit resurslari bozoridagi talab va taklif qonunining harakatiga asosan ob'ektiv chegaralarga ega. Foiz stavkalaridan tashqari resurslarni jalb qilish bo'yicha yana ko'plab usullar ham mavjud, bu esa o'z navbatida kredit resurslari bozorini va bankirlar fantaziyasini birma-bir chuqur o'rganib chiqishga bog'liq. Bu birinchi navbatda bankning asosiy investitsiya manbai hisoblangan axolining omonatlariga tegishli. Ko'plab mamlakatlarda jamg'armalarni rag'batlan-tirishning shakli sifatida omonatchilarga firmalardagi konkret tovarlar orqali premiyalar berish yo'lga qo'yilgan, ya'ni, masalan kompyuter yoki televizorlar.

Kredit kartochkalarini yo'lga qo'ygan banklar ularni yo'lga qo'ymagan banklardan ko'ra ko'proq omonatchilarni jalb qiladilar. Resurslarni jalb qilishda mijozlarga konsultatsion xizmatlarni ko'rsatish oqali ham banklar resurlar bozorida afzallikka ega bo'lishi mumkin, masalan soliqlarni to'lash bo'yicha va b.

Omonatlarni jalb qilishda bankning joylashishi va kadrlari ham asosiy rol o'ynaydilar. Omonatlarni sug'urtalash va omonatchilarga ularning omonat hisob-raqamlaridagi xolat bo'yicha har oyda ma'lumot yuborib turish bankning kredit resurslari bozoridagi yana bir afzalligi hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Bank passivlarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati.
2. Bank passivlarini makro darajada boshqarishning maqsadi va vazifalari.
3. Bank passivlarini mikro darajada boshqarishning maqsadi va vazifalari.
4. Tijorat banklari depozit operatsiyalarni tashkil etishda asos bo'lib xizmat qiluvchi prinsiplar.
5. Tijorat banklariga depozitlarni jalb qilish bo'yicha zamonaviy usullar.

13-mavzu: TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT VA NODEPOZIT OPERATSIYALARI. /2 soat/

Reja:

1. Tijorat banklarining depozit operatsiyalari.

Tayanch iboralar: depozit, jamg'arma omonat, bank rezervlari, emissiya, bankning minimal ustav kapital;

1. Tijorat banklarining depozit operatsiyalari.

Bankning passiv kredit operatsiyalariga eng avvalo depozit operatsiyalar kiradi.

Depozit operatsiyalar deganda, yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini bankga omonat sifatida yoki belgilangan biror bir muddatga yoki talab qilib olinadigan muddatga jalb qilish tushuniladi. Depozit operatsiyalar ulushi odatda bank passivlarining 95% gacha bo'lgan miqdorini tashkil qilishi mumkin.

Depozit operatsiyalarining sub'ektlari sifatida quyidagilar ishtirok etadilar:

- davlat korxonalari va tashkilotlari;
- davlat muassasalari;
- aktsionerlik jamiyatlari;
- ko'shma korxonalar;
- moliya va sugurta kompaniyalari;
- investitsion va trast kompaniyalari va fondlar;
- aloxida yuridik shaxslar va ularning uyushmalari;
- bank va boshqa kredit muassasalari;
- jismoniy shaxslar;

Depozit operatsiyalarning ob'ektlari bo'lib, depozitlar, ya'ni depozit operatsiyalarning sub'ektlari tomonidan bankka qo'yilgan pul mablag'lari summasi tushuniladi.

Depozitlar o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra 3 turga ajratiladi:

- muddatli depozitlar;
- talab qilib olinadigan depozitlar;
- axolining jamg'arma omonatlari;

Muddatli depozitlar - yuridik va jismoniy shaxslarning bankka ma'lum muddatga pul qo'yilmalari bo'lib, mablag' qo'yuvchi va bank o'rtasida belgilangan muddatga shartnoma imzolanadi. Bank va mablag' qo'yuvchi o'rtasida

imzolanadigan shartnoma muddatlilik, foizlilik va qaytarishlik shartlari asosida tuziladi.

Muddatli depozitlar muddatiga ko'ra klassifikatsiyalanadi, ya'ni bular:

- 3 oylik muddatli depozitlar;
- 3 oydan 6 oygacha bo'lgan muddatli depozitlar;
- 6 oydan 9 oygacha bo'lgan muddatli depozitlar;
- 9 oydan 12 oygacha bo'lgan muddatli depozitlar;
- 12 oydan yuqori bo'lgan muddatli depozitlar;

Muddatli depozitlar - bu banklar tomonidan ma'lum muddatga jalb qilinadigan depozitlardir. Bu turdagi depozitlar qo'yilgan muddatda o'zgarmas bo'lishi lozim va ular joriy to'lovlar uchun ishlatilmaydi.

Muddatli qo'yilmalar mablag'larni shartnoma bo'yicha muddat va shartlarda to'liq bank ixtiyoriga berishni anglatadi, bu muddat tugashi bilan muddatli qo'yilma xohlagan paytda egasi tomonidan qaytarib olinishi mumkin. Muddatli qo'yilma bo'yicha to'lanadigan foiz hajmi depozit muddati, summasi va shartnomani pul qo'yuvchi tomonidan bajarilishiga bog'liqdir. o'qo'yilmaning muddati va summasi qanchalik katta bo'lsa, foizi ham shunchalik yuqori bo'ladi. YUqorida ta'kidlaganimizdek amaliyotda asosan 1, 3, 6, 9, 12 oy yoki yanada uzoqroq muddatga qo'yilmalar rasmiylashtiriladi. Bunday aniq chegaralar pul qo'yuvchilarni o'zlarining mablag'larini ratsional tashkil qilish va qo'yilmalar qo'yishga rag'batlantiradi, shuningdek banklarga o'zlarining likvidliklarini boshqarish uchun sharoit yaratadi. Pul qo'yuvchi tomonidan qo'yilma bo'yicha mablag'larni muddatidan oldin olinganda u shartnomada ko'rsatilgan foizlardan to'liq yoki qisman mahrum bo'lishi mumkin. Odatda bunday hollarda foizlar talab qilgungacha qo'yilmalarga to'lanadigan foizlar hajmigacha pasaytiriladi.

Muddatli depozitlar depozitlarning boshqa turlariga nisbatan bankka barqaror resurs bazasini ta'minlaydi. SHu bois tijorat banklari muddatli depozitlar salmog'ini ko'paytirishga harakat qilishlari lozim.

Muddatli depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- aniq muddatga ega va ular bo'yicha o'zgarmas (depozit siyosatida ko'rsatilgan) foiz to'lanadi;
- joriy hisob - kitoblar uchun foydalanilmaydi;
- mijoz tomonidan muddatidan oldin olinmasligi lozim aks holda foiz to'lash bo'yicha shartnoma shartlari bekor qilinadi va talab qilib olinguncha depozit miqdorida foiz to'lanishi mumkin;
- mablag'lar sekin aylanadi, uzoq muddatli ssudalarga yo'naltiriladi;
- majburiy rezerv normasi nisbatan past bo'lishi mumkin va h .k.

Talab qilib olinadigan depozitlar mablag'larning aloqadorligi va xarakteridan kelib chiqib quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- hisob-raqamlardagi saqlanib turgan mablag'lar;
- joriy hisob-raqamlardagi mablag'lar;
- mulkchilikning turli shaklidagi byudjet korxonalari va tashkilotlar hisob-raqamlaridagi mablag'lar;
- maxsus saqlanuvchi hisob-raqamlardagi mablag'lar (maqsadli iqtisodiy belgilan-gan fondlar);

- boshqa banklar bilan hisoblashishlar uchun korrespondentlik hisob-raqamdagi mablag'lar;

- maxalliy byudjet mablag'lari;

Talab qilib olinguncha qadar depozitlar - bu bankni oldindan ogohlantirmay mijoz tomonidan xohlagan vaqtda talab qilib olinadigan mablag'lardir.

Ularga joriy, hisob - kitob, byudjet va hisob - kitoblarni amalga oshirishi yoki mablag'lardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq hisob - varaqalardagi mablag'larni, boshqa banklarning vakillik hisobvarag'idagi qoldiqlarni kiritish mumkin. Talab qilinguncha depozitlar joriy hisob - kitoblar uchun mo'jallangan. Bu hisobvaraqdagi mablag'lar harakati naqd pul, pul o'tkazish, boshqa hisob - kitob hujjatlari bilan rasmiylashtirilishi mumkin. Bank likvidligini boshqarish nuqtai nazaridan qaraganda joriy va byudjet hisobvaraqlari, kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish bo'yicha hisobvaraqlar, maxsus hisobvaraqlar banklar uchun foydaliroq hisoblanadi. Chunki bu mablag'lar yuqori likvidlikka ega. Bu depozit turining asosiy kamchiligi - ular bo'yicha juda kam miqdorda foizlarning to'lanishi yoki umuman to'lanmasligidir. Bundan tashqari joriy va byudjet hisobvaraqa egalari o'zlarining statuslaridan kelib chiqib kredit olmaydilar, bu esa banklarga mablag'larni o'z rejalari asosida ishlatishga imkon beradi. Talab qilib olguncha bo'lgan depozitlarga banklarning korrespondent banklarda ochilgan vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'larini ham kiritish mumkin. Bu hisobvaraqlar ular hisob kitoblarni va to'lovlarni bir tomonlama tartibda yoki bir birlarining topshiriqlari bo'yicha amalga oshirish maqsadida ochilgan. Mazkur bankning boshqa bankda ochilgan vakillik hisobvarag'i "Nostro" scheti, mazkur bank boshqa bank uchun ochgan vakillik hisobvarag'i "Loro" scheti deb yuritiladi va bunday hisobvaraqlarini ochish banklararo imzolangan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi. Bu hisobvaraqlardan to'lovlar, qoidaga ko'ra, ulardagi mablag'lar hajmi chegarasida amalga oshirilishi kerak. Ular bo'yicha mavjud mablag'lardan ko'proq operatsiyalar o'tkazish zaruriyati tug'ilganda, vakilga alohida balans hisobvarag'idan overdraft krediti berilishi mumkin.

Talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlarga kontokorrent hisobvarag'i mablag'larini ham kiritish mumkin.

Xalqaro bank amaliyotida talab qilib olinguncha yuqoridagi depozitlardan tashqari nau - hisobvaraqlar (uchinchi shaxs foydasiga hisob hujjatlarini yozib berish), bank tomonidan belgilanadigan hisob cheklari ham kiritiladi.

Talab qilib olingungacha bo'lgan depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- depozitning bu turida xohlagan vaqtda, xohlagan summada mablag'ni qo'yish yoki olishi mumkin;
- depozit muddati chegaralanmagan;
- kam miqdorda foiz to'lanadi;
- bu turdagi depozitlar bo'yicha Markaziy bankka o'tkaziladigan majburiy rezervlar salmog'i yuqori va h.k.

Tijorat banklarida jalb qilingan mablag'lar tarkibida talab qilib olinguncha depozitlar turlicha hajmga ega. Bu odatda, bank resurslarini shakllantirishning eng arzon manbaidir. Mablag'larning yuqori harakatchanligi tufayli talab qiluvchi hisobvaraqlardagi qoldiq doimiy emas, ba'zida juda o'zgaruvchan. Hisobvarag'i

egasi istagan paytda mablag'larni olish ehtimoli bank oborotida yuqori likvid aktivlarning hissasi ko'proq bo'lishini talab qiladi. Bu esa kamroq likvidlika ega bo'lgan, biroq yuqori daromad keltiruvchi aktivlarning hissasining qisqarishi evaziga yuz beradi. SHu sababli banklar talab qilgungacha hisobvarag'i egalariga past foiz to'laydilar yoki umuman to'lamaydilar. Biroq, talab qilguncha hisobvaraqlardagi mablag'larning yuqori darajadagi harakatchanligiga qaramasdan, ularning minimal, doimiy qoldig'ini aniqlash va ulardan barqaror kredit resursi sifatida foydalanish imkoniyatiga banklar ega bo'lmog'i lozim.

Axolining jamg'arma omonatlari omonatchi va bank o'rtasidagi mablag' qo'yish bilan bog'liq bo'lgan munosabat hisoblanib, bu operatsiya bank tomonidan omonatchiga omonat daftarchasini berish bilan tasdiqlanadi. Banklar to'lovlilik va foizlilik shartlari asosida turli xil maqsadli qo'yilmalarni, muddatli yoki talab qilib olinishi mumkin bo'lgan jamg'armalarni tashkil qiladilar.

Tijorat banklari hozirgi raqobatli sharoitda kredit resurslari bozorida o'z depozitlarining soninigina emas, balki ularning sifatini ham yaxshilashga intilishlari lozim. Buning uchun ular turli xil usullarni qo'llaydilar (foiz stavkalari, turli xil xizmatlar va mablag' qo'yuvchilarga engilliklar, lgotalar).

Jamg'arma depozitlari aholi pul jamg'armalarining to'planishi uchun xizmat qiladi. Jamg'arma depozitlarga pul mablag'larini jamg'arish yoki saqlash maqsadida shakllantirilgan qo'yilmalar kiradi. Ularning maxsus xususiyatli tomonlari - saqlashning rag'batlantirilishi va yuqori daromadlilik darajasi, ma'lum davr ichida jamg'arila borishi kabilar hisoblanadi.

Tijorat banklari faoliyatidagi muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, aholi mablag'larini jalb qilish bo'yicha ishlar hisoblanmoqda, va ular bu boradagi yirik bank Xalq banki bilan boshqa tijorat banklari muvofaqiyatli raqobat qilmoqdalar.

Nazorat uchun savollar

1. Depozit operatsiyalarining tuzilishi.
2. Talab qilib olinguncha depozit hisob-raqamlarining xususiyati va vazifalari.
3. Muddatli depozit hisob-raqamlarining xususiyati va vazifalari.
4. Jamg'arma omonat hisob-raqamlarining xususiyati va vazifalari.

14-mavzu: TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH USULLARI /2 soat/

Reja:

1. Bank kreditlarining turlari va shakllari

Tayanch iboralar: kredit siyosati, kredit potentsiali, kredit institutlari, maqsadli kreditlar, sindikatlashgan kredit, muddatli kredit, muddati uzaytirilgan kredit, muddati o'tgan kredit, kredit ta'minoti;

1. Bank kreditlarining turlari va shakllari.

Kredit operatsiyalari (lotincha "creditum" - ssuda degan ma'noni anglatadi) deganda shartlar asosida, ya'ni qaytarishlilik, muddatlilik va to'lovlilik shartlari asosida ma'lum bir miqdordagi pulni (yoki tovarni) qarzga berish tushuniladi.

Boshqacha qilib aytganda, qarzdor qarzni belgilangan muddat ichida qaytarib berishi va undan tashqari ma'lum summani to'lashi lozim. Bu summa qarzga olingan mablag'lar uchun to'lov bahosi bo'lib, u kredit uchun foiz deb ataladi. Odatda, zamonaviy bank kreditni pul shaklida qarzga beradi.

Bank o'z tabiati jihatidan moliya - kredit tashkiloti bo'lib, uning uchun kredit operatsiyalari, bank xizmatlarinig bir ko'rinishi hisoblanib, u boshqa bank operatsiyalari (valyuta, qimmatli qog'ozlar, qimmatliklarni saqlash bo'yicha operatsiyalar va boshqalar) ichida asosiy o'rin egallaydi.

Bank o'z kredit operatsiyalari uchun faqatgina o'ziga tegishli bo'lgan pul mablag'larini ishlatmay, balki bunday pul mablag'larining manbalarini shakllantirishdan hosil bo'lgan pul mablag'larini ham ishlatadi. Bunda boshqa tijorat banklaridan (yoki Markaziy bankdan) olingan kredit bilan bir qatorda, bank shuningdek pul mablag'larini o'z omonatchilaridan va tashkilotlardan turli hisob varaqlarga jalb etadi. Bu erda mablag'lar saqlanadi va turli xil hisob - kitoblarda (hisob - kitob, joriy, jamg'arma, talab qilinguncha, muddatli depozit, valyuta va boshqa mijozlarning hisob varaqlari) qo'llaniladi. Bunday, pul mablag'larni jalb etish ham kredit xarakteriga ega, chunki u ham qaytarishlilik, muddatlilik va to'lovlilik shartlariga asoslanadi, bank esa bu erda qarzdor sifatida namoyon bo'ladi.

Bank kreditlari muddatiga qarab turlicha bo'ladi. (qisqa va uzoq); qarzdorning tashkiliy - huquqiy tuzilishiga qarab (davlat, xususiy va aktsionerlik jamiyati, kooperativlar, uyushmalar, boshqa banklar, qo'shma korxonalar, fermerlar, xususiy shaxslar va hokazolar); tarmoqqa qarab, (sanoat qishloq xo'jaligi, kommunal kredit); maqsadiga qarab (mavsumiy xarajatlar uchun, to'lov hujjatlarni to'lash uchun, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun va boshqa asosiy aktivlar bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish) shuningdek, boshqa mezonlarga qarab yirik, o'rta va kichik kreditlarga farqlanadi.

Bank kredit berish uchun jalb qilingan barcha mablag'larni va o'z mablag'larini ishlatishi mumkin. Tijorat banklari bu mablag'larning bir qismini majburiy rezervlar sifatida Markaziy bankga o'tkazishi kerak va, shuningdek, ularning bir qismini yuqori likvid mablag'lar shaklida (kassadagi nakd pullar, mijozlarga joriy xizmatlarni to'lash uchun etarli bo'lishi lozim yoki boshqa operatsiyalar qimmatli qog'ozlar, mol - mulkka ega bo'lish va boshqalar uchun ishlatishida) saqlanishi lozim.

Mablag'lar qoldig'i bankning kredit potentsialini ifodalab, kredit berish uchun ishlatiladi. Bank foyda ko'rib ishlashi uchun o'z kredit potentsialidan samarali foydalanishi lozim, bu esa zamonaviy sharoitlarda juda qiyin masala hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotida rejali iqtisodiyotdan farqli o'laroq, kredit munosabatlarning markazlashtirilgan qat'iy me'yorlari bo'lmaydi.

Bu esa, bank va qarzdor o'zaro munosabatlari shartnoma asosida tuzilishini anglatib, ikkala tomon ham teng huquqli va o'z maqsadlariga asoslangan holda ularni mujassamlashtirib faoliyat ko'rsatadilar. Qarzdor kredit olish uchun o'ziga munosib bankni tanlashi va bir yo'la turli banklar kreditlaridan foydalanishi mumkin. Bank ham o'z navbatida mijozlarni tanlash huquqiga ega va unga kredit berishda o'zlariga muhim va foydali deb topgan shartlarni qo'yishi mumkin.

Endi banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni turli belgilari va shakllariga qarab ko'rib chiqsak.

Jahon amaliyotida bank kreditlarini yagona, umumlashgan tasnifi yo'q, chunki kreditlarni turli xil shakllari har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, uning urf - odatlariga, aholi orasida ssudalarni berish va qaytarish tarixan shakllangan usullariga bog'liq bo'ladi. SHunday bo'lsa ham eng ko'p uchraydigan bank kredit operatsiyalarini turli xil mezonlar va o'lchovlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtirish mumkin. Bank kredit operatsiyalarini tasniflash mezonlari.

1. Bank kreditlarini qarz oluvchilarning guruhlari bo'yicha tasniflanishi mumkin: Bank kreditlarini oluvchilari bo'lib hukumat, boshqa banklar, xo'jalik sub'ektlari, turli moliya tashkilotlari, aholi hisoblanadi.

2. Kreditlar maqsadi yoki qaysi sohaga yo'naltirilishi bo'yicha: sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, investitsion, iste'mol va boshqa kreditlarga bo'linadi.

Bank kreditlari ishlatilishi sohasi bo'yicha 2 xil bo'lishi mumkin: asosiy kapitalni moliyalashtirish uchun yoki aylanma kapitalni moliyalashtirish uchun ssudalar beriladi. Bular o'z navbatida ishlab chiqarish yoki muomala(savdo) sohasiga yo'naltiriladigan kreditlarga bo'linadi. Inflyasiya sharoitida tijorat banklari amaliyotida savdo va spekulyativ (chayqovchilik) operatsiyalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan ssudalar aksariyat qismni tashkil etadi.

3. Hajmi bo'yicha kreditlar katta (yirik), o'rta va kichiklarga bo'linadi. Lekin xalqaro amaliyotda bu kreditlarni belgi bo'yicha yagona o'lchov (mezon)i yo'q. XVF, ETTBning nuqtai nazaridan 10000 AQSH dollarigacha bo'lgan summadagi kreditlar kichik kreditlarga kiradi.

4. Qaytarish muddati bo'yicha kreditlar talab kilinguncha va muddatli bo'ladi. Muddatli kreditlar qisqa, o'rta va uzoq muddatlilarga bo'linadi. Ssudalarni bu mezon bo'yicha turli mamlakatlarda farqlanadi. Aksariyat banklar asosan qisqa muddatli va uzoq muddatli kredit berish bilan shug'ullanadi.

1 - jadval

Qaytarish muddati bo'yicha kreditlarni tasniflash.

<i>Muddatlari</i>	<i>Rossiya</i>	<i>AQSH</i>	<i>B. Britaniya</i>	<i>Frantsiya</i>	<i>O'zbekiston</i>
<i>Qisqa</i>	<i>1 yilgacha</i>	<i>1 yilgacha</i>	<i>3 yilgacha</i>	<i>1 yilgacha</i>	<i>1 yilgacha</i>
<i>O'rta</i>	<i>1 - 3 yil</i>	<i>1 - 6 yil</i>	<i>3 - 10 yil</i>	<i>2 - 7 yil</i>	-
<i>Uzoq</i>	<i>3 yildan ortiq</i>	<i>6 yildan ortiq</i>	<i>10 yildan ortiq</i>	<i>7 yildan ortiq</i>	<i>1 yildan ortiq</i>

5. Ta'minlanganligi bo'yicha kreditlar ta'minlanmagan va ta'minlangan kreditlarga bo'linadi. Ta'minlangan kreditlar ta'minlanganlik xarakteriga qarab garovli, kafolatlangan, sug'urtalangan va hokazolarga bo'linadi.

Ta'minlanmagan kreditlar ishonchli (blankali) deb ham ataladi va odatda faqat solo - veksel (qarz oluvchining ssudani qaytarish majburiyati) orqali taqdim etiladi. Ta'minlanmagan kreditlar qarz oluvchining obro'sini hisobga olgan holda va uning daromadlari darajasini baholashdan so'ng'ina beriladi. Kreditning sifati past bo'lganda ham u ta'minlanmagan kredit deb yuritiladi va bunda kreditlar bo'yicha kreditning qaytmaslik riski yuqori bo'ladi.

6. Berilish usullari bo'yicha kreditlar, qoplash uchun va to'lov kreditlarga bo'linadi. Birinchi holatda kredit qarz oluvchining hisob varag'iga xarajatlarni qoplash uchun o'tkaziladi. Bunda yana avans harakteridagi ssuda mablag'larini o'tkazilishi ham nazarda tutiladi. Ikkinchi holatda bank ssudasi bevosita nakd pulsiz hisob - kitoblarda hisob hujjatlarini to'lash uchun beriladi.

Shu bilan birga, bir martalik kreditlar ham bo'ladi, ya'ni shartnomada belgilangan muddat va summada taqdim etiladi. Biroq ko'pchilik mamlakatlarda kredit liniyalari keng qo'llaniladi.

7. Bank kreditlarini qaytarilish tartibi bo'yicha 2 guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga bir vaqtda qaytariladigan kreditlar, ikkinchi guruhga bir necha muddatda bo'lib - bo'lib to'lanadigan kreditlar kiradi.

Odatda yuridik shaxslar va aholiga joriy ehtiyojlarni qoplash uchun naqd pul mablag'lari kerak bo'lganda beriladigan qisqa muddatli kreditlar, bir vaqtda qaytariladigan kreditlar hisoblanadi. Bu erda asosiy qarz va foizlarni yagona summada kredit muddati tugashi bilan qaytariladi.

Bir necha muddatda qaytariladigan kreditlar bu ikki yoki undan ortiq to'lovlar bilan amalga oshiriladigan ssudalar hisoblanadi. (odatda har oy, har kvartal yoki har yarim yilda). Bu guruhga turli xil kreditlar: tijorat, ochiq schyot bo'yicha, veksel, lizing, faktoring, forfeiting va boshqalar kiradi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda bir kecha muddatda qaytariladigan kreditlar yuridik va jismoniy shaxslarga tovarlar va ko'chmas mulklarni sotib olish uchun beriladigan o'rta va uzoq muddatli kreditlashda keng qo'llaniladi.

Jahon moliya bozorlarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun kreditlar bir necha muddatlarda qaytarish sharti bilan beriladi.

8. Foiz stavkalarining turlari bo'yicha bank kreditlarini 2 guruhga bo'lish mumkin: qat'iy foizlardagi kreditlar va suzuvchi foiz stavkalaridagi kreditlar.

Ssudalar kreditlashning butun muddatiga beriladigan va qayta ko'rib chiqilmaydigan qat'iy foiz stavkalari shartlarida berilishi mumkin.

Qarz oluvchi bu holatda foiz stavkalari bozorlarida konyuktura o'zgarishiga qaramasdan kreditdan foydalanganligi uchun o'zgarmas kelishilgan stavkada foiz to'laydi. Bu ham kreditorga, ham qarz oluvchiga qulay, chunki ikkala tomon ham berilgan kreditdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan o'z daromad va xarajatlarini to'g'ri hisoblab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qat'iy foiz stavkalari odatda qisqa muddatli kreditlashda qo'llaniladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda kreditlarni berishda qat'iy va suzib yuruvchi foiz stavkalarining har ikkalasi ham keng qo'llanilmokda.

Suzib yuruvchi foiz stavkalari - bu kredit bozorlarida vujudga keladigan holatlarga bog'liq bo'lgan doimiy o'zgaradigan foiz stavkalaridir.

9. Kredit qaysi valyutada berilishiga qarab ham guruhlarga bo'linadi. Odatda tijorat banklari kreditlarni milliy valyutada yoki chet el valyutasida berishi mumkin. O'zbekistonda milliy valyuta va chet el valyutasidagi kreditlar ko'p qo'llanilmokda.

10. Kreditlar soni bo'yicha kreditlar quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin:

- yagona bank beradigan kreditlar;
- sindikatlashgan kreditlar;
- parallel kreditlar.

Amaliyotda bir bank tomonidan beriladigan ssudalar keng tarqalgan.

Biroq ayrim mamlakatlar va integratsion guruhlar iqtisodiyotning rivojlanish imkoniyatiga qarab yagona bank imkoniyati etmaydigan yirik kreditlarga ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa banklarning guruhlarga ko'shilib sindikatlashgan kredit berishga undamoqda.

Sindikatlashgan kredit - bu (konsortsium) birlashgan 2 yoki undan ortiq kreditorlar bir qarzdorga kredit taqdim etadi. Bir guruh bank - kreditorlar ma'lum muddatga bo'sh turgan moliyaviy resurslarini ma'lum bir ob'ekt yoki qarzdorni kreditlash maqsadida birlashtiradi. Bir yoki etakchi bank - koordinatorlarning katta bo'lmagan bir guruhi butun sindikat nomidan qarz oluvchi bilan kredit bitimi shartlari bo'yicha muzokaralar olib boradi, kerakli summa yig'ishini ta'minlaydi.

Amaliyotda ikki yoki undan ortiq banklar qarz oluvchiga parallel kreditlar berish holatlari ham bo'lishi mumkin. Sindikatlashgan kreditdan farqli o'laroq, bu holatda mijoz bilan har bir bank alohida ish olib boradi, so'ngra esa umumiy kredit shartnomasini tuzadilar. SHunday qilib tijorat banklarining kreditlari qaysi belgilarga qarab tasniflanmasin, ularni berishdan maqsad mijozning mablag'ga bo'lgan ehtiyojini qondirgan holda bankka yuqori daromad keltirishini ta'minlashdan iborat.

Nazorat uchun savollar:

1. Kredit operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati;
2. Zamonaviy bank kreditlarining tuzilishi va mohiyati;
3. Bank kreditlarining muddati bo'yicha turlari va berish maqsadlari;
4. Bank kreditlarini qarz oluvchilarning guruhlari bo'yicha tasniflanishi;
5. Bank kreditlarining maqsadi va sohalar bo'yicha yo'naltirilishi;
6. Bank kreditlarining xajmi bo'yicha turlari;
7. Bank kreditlarining ta'minlanganligi bo'yicha turlari;

15-mavzu: TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI VA UNING MAZMUNI /2 soat/

Reja:

1. Tijorat banklarining kredit siyosati va unga qo'yilgan talablar

1. Tijorat banklarining kredit siyosati va unga qo'yilgan talablar

Bankning kredit siyosati — kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlar tomonidan

kredit portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart. Tijorat banklari kredit siyosati alohida hujjat sifatida ishlab chiqiladi va bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Har bir bank o'z kredit siyosatini ishlab chiqishi va amalda joriy etishi lozim. Kredit siyosatini ishlab chiqish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank Kengashi va Boshqaruvi a'zolari, bankning boshqa mansabdor shaxslariga yuklatiladi.

Kredit siyosatining xarakteri bank kredit portfelining tarkibiga, bank o'z faoliyatini amalga oshirayotgan hududning iqtisodiyotiga qarab aniqlanadi. Kredit strategiyasini shakllantirishda va tegishli kredit siyosatini tayyorlashda bank ushbu omillarni hisobga olishi shart.

Bankning kredit siyosati uning joriy bank strategiyasi va iqtisodiy holatiga muvofiqligini ta'minlash uchun bank Kengashi tomonidan yiliga kamida bir marta tegishli yilning 1 fevraligacha bo'lgan muddatda qayta ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi kerak.

Kredit siyosati bank faoliyati turlariga qarab mazmuni va tuzilmasi jihatidan farq qiladi. Mazkur bo'lim bank maqomi va u joylashgan manzildan qat'i nazar kredit siyosatida aks ettirilishi lozim bo'lgan umumiy masalalar ro'yxatini belgilab beradi.

Bunda kredit siyosatining yo'nalishlarida berilayotgan kreditlarning hajmi va shakli, qisqa va uzoq muddatli kreditlar o'rtasidagi nisbat, moliyaviy axborotlarni tahlil etish jarayoni, kredit portfeli hamda mablag'larning qaytarilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar aks ettirilishi lozim.

Har qanday kredit siyosatining maqsadi odatda quyidagilardan iborat bo'ladi: uzoq muddatli investitsiyalardan aktsiyadorlarga yuqori daromad kelishini ta'minlash, likvidlikni saqlab turish, tavakkalchilikni diversifikatsiya qilish, siyosat va tadbirlar birligini kafolatlash, qonunlar va me'yoriy hujjatlarga rioya qilish, hududning kreditlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

Kreditlashning strategik yo'nalishlari bank Kengashi tomonidan belgolanadi va tasdiqlanadi.

Kredit siyosati kredit berish jarayoniga jalb etilgan kredit xodimining lavozimi va vakolatlariga qarab ularning har biri uchun kreditlash to'g'risida qaror qabul qilish va kredit miqdorini cheklash tartibini belgilab beradi. Kreditlash uchun mas'ul bo'lgan barcha shaxslar vakolatlari kredit siyosatida qayd etiladi.

Kredit qo'mitasi majlislari va uning bank boshqaruvi organlari oldida hisobot berishi davriyligi ham kredit siyosatida belgilab qo'yilishi kerak.

Kredit siyosati kreditlashning turli ko'rsatkichlari (kredit turlari, iqtisodiyot tarmoqlari, jug'rofiy hududlar va b.) bo'yicha kreditlarning to'planishi darajasini aniqlash va uni monitoring qilish to'g'risidagi talablarni o'z ichiga olishi zarur. Kredit siyosati muntazam ravishda rahbariyatga topshiriladigan tegishli hisobotlarni tayyorlashga doir talablarni belgilashi lozim.

Kreditni to'lash muddati uni to'lashning birlamchi va ikkilamchi manbalarini sinchiklab baholash asosida belgilanishi kerak. Kredit siyosati rahbariyat nuqtai nazaridan har xil toifa va turdagi kreditlarni to'lashning ma'qul dasturlaridan iborat bo'lishi zarur.

Kredit siyosati kreditlar berishning maksimal muddatlarini belgilashi lozim. Ushbu siyosat shuningdek, kreditning asosiy summasini kredit to'lash muddatining so'ngida va kredit to'lashning boshlang'ich muddati uzaytirilayotganda qaytariladigan kredit turlarini berish tartibini ham o'z ichiga olishi kerak.

Kredit siyosati to'lovlarni o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, mablag'larning qaytarilishi va berilgan kreditlar bo'yicha qarzni undirib olish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi kerak.

Bank kredit siyosati kredit berish bosqichida ham, keyingi monitoring bosqichlarida ham jismoniy va yuridik shaxslarning moliyaviy hisobotlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni o'z ichiga olishi kerak. Moliyaviy hisobotlarni auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazish, naqd pul oqimi va boshqa ma'lumotlar bo'yicha hisobotlarni taqdim etish yuzasidan qo'yiladigan talablar aniq ifodalanishi zarur. Shuni ham qayd etib o'tish lozimki, banklar talab qiladigan ma'lumotlar Milliy Buxgalterlik Hisobi Standartlariga (MBHS) muvofiq takdim etilishi kerak.

Kredit siyosatida potentsial qarzdorlarning kredit qobiliyatini (likvidlik, qoplanish, muxtorlik koeffitsientlari, kapitallashtirish darajasi, garov ta'minoti ekspertizasi va b.) aniqlash uchun ularning moliyaviy ahvolini tahlil qilish tadbirlari batafsil yoritilishi lozim. Bank qarzdorlarning kredit qobiliyati mezonlari va ularni baholash metodikasini aniq belgilab olishi kerak.

Garov taminotiga nisbatan qo'yiladigan talablar:

Kredit siyosati muayyan turdagi qimmatliklar (ko'chmas mulk, avtomobillar va b.) garovi asosida beriladigan ssudalarning maksimal miqdori limitlarini o'z ichiga olishi hamda ta'minlangan ssudalarning har bir turi uchun kredit hujjatlari to'plamini rasmiylashtirish tadbirlarini belgilashi lozim. Bank kredit siyosatida garov kreditlashning uni berish vaqtidayoq kreditni to'lash manbasi (naqd pul yoki davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (xazina veksellari) bilan ta'minlangan kreditlar bundan mustasno) hisoblangan yagona asosi bo'lmasligi belgilab qo'yilishi zarur.

Kredit siyosati garovga olingan mulk turiga qarab garov mavzuiga nisbatan qo'yiladigan talablar va kreditning garov qiymatiga nisbatini o'z ichiga olishi kerak. Garov mavzui sinchiklab baholanishi va uning bozor qiymati uni sotish lozim bo'lgan paytda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar o'rnini qoplashi lozimligi aniq yoritilishi zarur.

Hujjatda garov mavzui mustaqil baholovchi va ichki bank baholovchisi tomonidan baholanadigan hollar ko'rsatib o'tilishi kerak. Turli garov toifalarini baholash uslublari batafsil aks ettirilishi lozim. Siyosat ko'chmas mulk, ishlab chiqarish jihozlari va iste'mol kreditlarini moliyalash uchun beriladigan kreditlarni to'lash hisobiga qarzdor tomonidan bo'nak to'lovlarni kiritishga doir muayyan talablarni o'z ichiga olishi zarur.

Kredit monitoringiga nisbatan qo'yiladigan talablar

Kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim. Kredit xodimlari kredit portfelidagi barcha ma'lum bo'lgan salbiy o'zgarishlar to'g'risida rahbariyatga xabar berishlari kerak. Qarzdor yoki garov ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir.

Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo'yicha "to'lovsizlik" tushunchasining aniq ifodalanishi, foizlarni o'stirmaslik mezonlari, shuningdek, bank Boshqaruvi va Kengashining tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o'z ichiga olishi lozim. Hisobotlarda ahvolning yomonlashishi, yashirin zararlar sabablari va sorlomashtirish rejalari batafsil bayon etiladi.

Siyosat qarzlarni qaytarishga doir izchil, bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko'rilishini talab qilishi kerak. Rahbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Kredit siyosati turli kreditlar va qarzдорlar bo'yicha belgilanuvchi foiz stavkalarini aniklashda foydalaniladigan omillarni o'z ichiga olishi kerak. Bunda hech bo'lmaganda resurslar qiymati, kredit bo'yicha xizmat ko'rsatishga doir kutilayotgan xarajatlar, vositachilik haqi, ma'muriy sarflar, ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar va bank marjasi baholanishi zarur.

Kredit siyosati bank bilan bog'liq shaxslarga beriladigan kreditlar bo'yicha Markaziy bank talablariga muvofiq keluvchi limitlarni o'z ichiga olishi lozim.

Kredit siyosatida bank bilan bogliq shaxslar bilan bitimlarni qisqartirish yoki ularni tuzishning har qanday imkoniyatlarini bartaraf etish maqsadida bog'liq shaxslarga beriladigan kreditlarni tasdiqlash va qayta tiklash tartibi va tadbirlari belgilab qo'yilishi kerak.

Siyosat bank kredit portfelini vaqti-vaqti bilan baholashga javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar ro'yxatini belgilashi hamda kredit portfeli sifatini aniqlash va tuzatishlar minimal yuzaga keluvchi yo'qotishlar bilan kiritilishi uchun muammoli kreditlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan ichki bank kredit tahlili maqsadlarini belgilab qo'yishi lozim.

Tahlil maqsadlari kredit sifatini aniklash bilan bir qatorda kreditlash jarayonini boshqarish sifatini baholash, jumladan, tasdiqlangan kredit siyosati muvofiqligini ta'minlash va kredit hujjatlarini rasmiylashtirish tadbiri, moliyaviy tahlil, garovni rasmiylashtirish va baholash, kreditlashga doir vakolatlarni taqsimlash, qonunchilik me'yorlariga rioya qilish.

Kredit siyosati bank xizmatlari va bo'linmalari tomonidan bank Boshqaruvi va Kengashiga kreditlashning turli jihatlari bo'yicha topshiriladigan hamda kredit portfeli sifati va kredit portfelini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobotlar turi va davriyligini belgilashi lozim.

Hisobotlar filiallar va bank bo'yicha umuman kreditlash vositalari va yo'nalishlariga qarab tavakkalchiliklarni baholash uchun boshqarishning turli darajalariga moslashtirilgan hamda batafsil yoritilgan bo'lishi kerak.

Nazorat uchun savollar:

8. Bank kreditlarini foiz stavkalari bo'yicha turlari;
9. Bank kreditlarining qaysi valyutada berilishi;
10. Bank kreditlarining soni bo'yicha guruxlanishi;
11. Bank kredit siyosatining maqsadi va vazifalari;
12. Kredit siyosatining yo'nalishlari haqida tushuncha;
13. Kredit portfeli tushunchasining mohiyati;
14. Kredit qo'mitasining tuzilishi va vazifalari;

16-mavzu: TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISH ASOSLARI /2 soat/

Reja:

1. Kreditlash jarayonini tashkil etish va boshqarish asoslari

Tayanch iboralar: *muddatli kredit, muddati uzaytirilgan kredit, muddati o'tgan kredit, kreditor qarzdorlik, debitor qarzdorlik, solishtirma dalolatnoma, kafolat, garov, kartoteka, diversifikatsiya.*

1. Kreditlash jarayonini tashkil etish va boshqarish asoslari

Barcha kreditlar kredit shartnomasida belgilangan muayyan muddatda qaytarish sharti bilan beriladi. Biroq ular amalda foydalanish vaqtiga qarab muddatli, muddati uzaytirilgan (cho'zilgan) va muddati o'tgan bo'lishi mumkin. Muddati uzaytirilgan va muddati o'tgan kreditlar qayta rasmiylashtirilgan ssudalar toifasiga kiritiladi.

Qaytadan rasmiylashtirilgan kredit muddatli kredit sifatida balansda hisobga olinishi mumkin emas.

Muddatli kredit - amal qilish muddati utmagan ssudadir.

Talab kilingunga kadap ssudalarga bank tomonidan veksellar ta'minoti asosida beriladigan kreditlar kiradi. Veksellar uni tulash muddatidan utmagan xolda ta'minlashga qabul kilinadi. Karz oluvchi ko'rsatilgan ssudani bankning birinchi talabi bo'yicha tulashi lozim. Agar bank uni qaytarishni talab kilmasa, kredit karz oluvchining xoxishiga kura tulanadi.

Ushbu kreditlarni berishning majburiy sharti veksellarning likvidligi xisoblanadi.

Muddati utgan kreditlar - kredit shartnomasida belgilangan qaytarish muddati utgan ssudalardir.

Bu kredit shartnomasida belgilangan qaytarib berish muddati, shuningdek agar muddati kechiktirilgan bo'lsa, ularni uzaytirish muddatlari o'tib ketgan ssudalardir. Muddati o'tgan kreditlar o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra qayta rasmiylashtirilgan kreditlar hisoblanadi, chunki kredit shartnomasida muddatini kechiktirganlik uchun oshirilgan foiz stavkalarini ko'llash ko'zda tutiladi.

Muddati kechiktirilgan kreditlar - ayrim xollarda tulov muddati etib kelgunga kadar iqtisodiy jixatdan asoslangan va bankka takdim etilgan yozma ariza asosida kreditni qaytarish muddatini kechiktirish to'g'risida karor qabul kilinadigan ssudalardir.

Tijorat banki Kredit kumitasining karoriga kura mijozga karzga olingan mablaglardan foydalanish muddati 12 oydan oshmagan xolda bir martalik tartibda kredit tulash muddatini kechiktirish xukukini berishi mumkin.

Kredit tulash muddatini kechiktirish kredit tulashning avval qabul kilingan ta'minoti majburiy tarzda qayta rasmiylashtirilgan xolda, asosiy shartnomaga kushimcha bitim sifatida rasmiylashtiriladi.

Kredit xukumat karoriga kura beriladigan bulsa, uning tulash muddatini kechiktirish to'g'risidagi masala Respublika Pul-kredit siyosati komissiyasi tomonidan xal kilinadi.

Kredit olish uchun xo'jalik sub'ekti bankka quyidagi xujjatlarni takdim etadi:

a) kredit arizasi;

b) davlat soliq xizmatining maxalliy (tuman) idorasi tomonidan tasdikdangan so'nggi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi, debitorlik va kreditorlik qarzlari yoyilmasi hamda 90 kundan oshib ketgan qarzidorliklari uchun solishtirma dalolatnomalar, foyda va zararlar hakdagi hisobot;

v) olinadigan kreditning samaradorligi, qaytarishliligi, to'lanishi va ta'minlanishi hamda pul oqimining tahlili albatta ko'rsatilgan biznes reja.

Kredit xodimi yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha xujjatlarni olgach quyidagilarni aniqdaydi:

sub'ektning kreditga qobilligini, uning reyting bahosini, bunda likvidlik koeffitsientidan majburiy tartibda foydalangan holda, pul mablag'larini qoplashni, alohida ishlatishni, jalb etishni, aylanma mablag'larning foyda kelgirishini va aylanish tezligini, shuningdek kreditning maqsadi ustav faoliyatiga mos kelishini, kreditning turini, kreditga qobillikning hisob -kitobini.

Bank bo'limlarida mijozlarning bankdagi kredit arizalarini ro'yxatdan o'tkazish uchun maxsus daftar yuritiladi va bu daftar raqamlanadi, tiqiladi, rahbar, bosh buxgalter va bank kredit bo'limining boshlig'i imzo chekib, dumaloq muhr ko'yish yo'li bilan tasdiqlanadi.

Mazkur daftarda quyidagilar bo'lishi shart: ariza beruvchi mijozning nomi, ariza berilgan sana, so'ralayotgan kredit miqdori, kreditni olishdan ko'zlangan maqsad, muddati, kredit bo'limining xulosasini bank rahbariga takdim etish sanasi, bank Kredit qo'mitasi tomonidan kredit bo'limining xulosasini ko'rib chiqish sanasi, qaror qabul qilish sanasi, salbiy xulosaning asoslari.

Qarz oluvchi kreditni to'lay olmaslik xataridan qochish maqsadida ishonchli kreditdan tashqari, asosiy talabi uning realizatsiya qilinishidan iborat bo'lgan ta'minlashga ham ega bo'lishi kerak.

Qarz oluvchi bankka quyida ko'rsatilgan ta'minot turlaridan birini taqdim etishga haqli:

- mol—mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi;
- banklar yoki sug'urta idoralarining kafolati;
- uchinchi shaxslarning kafilligi;
- o'z faoliyatini qonunlarda belgilangan tartibda yurituvchi sug'urta idoralarining kreditni qaytarilmay qolish xatarini sug'urtalaganligi haqidagi sug'urta polisi.

YUqori likvidlikka ega bo'lgan davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) ham garov ob'ekti bo'lishi mumkin va ularni garovga ko'yish alohida shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Banklarning kafolatlariga asosan kredit berilishida kafolatlarni rasmiylashtirish Fuqarolik kodeksida ko'rsatilgan tartibda yozma ravishda amalga oshiriladi.

Mulkchilikning barcha shaklidagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga berilgan kreditlar bo'yicha sug'urta polisini ta'minot sifatida qabul qilib olishga ruxsat beriladi.

Bunda kredit berish faqat sug'urta to'lovi sug'urta kompaniyasining bank hisob-varagiga o'tkazilgani va qarz oluvchi bankka sug'urta polisini taqdim etganidan keyin amalga oshirilishi mumkin. Sug'urta polisida qarz oluvchi olingan kreditlarni va u bo'yicha foizlarni to'lay olmagan takdirda sug'urta tashkiloti kreditning barcha summasini va u bo'yicha hisoblab chiqarilgan foizlarni to'lash ma'suliyatini o'z zimmasiga olishi to'g'risidagi yozuv bo'lishi zarur.

Beriladigan kredit hisobidan sug'urta to'lovini to'lash man etiladi.

Mol-mulk garovi kredit ta'minotining asosiy shakli bo'lib, qarz oluvchining mulki hisoblangan har qanday mol-mulk hamda O'zbekiston Respublikashning «Garov to'g'risida»gi qonuniga muvofiq garov ob'ekti bo'lishi mumkin bo'lgan oborotdan olib qo'yilgan buyumlardan tashqari, qimmatbaho-boyliklar, zargarlik buyumlari, erkin almashtiriladigan valyutalar shu jumladan, buyumlar va mulkiy hukuklar (talablar) garov ob'ekti bo'lishi mumkin.

Qarz oluvchining majburiyatlarini ta'minoti sifatida qabul qilingan mol-mulk va ta'minotning boshqa shakllari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- boshqa garovdan xoli bo'lishi;
- yuqori likvidlikka ega bo'lishi, bunda aktivlarning pul mablag'lariga konvertatsiyalash qobiliyati tushuniladi;
- uzoq vakt saklanish qobiliyatiga ega bo'lishi.

Bank bo'limi mol-mulk garovi asosida kreditni rasmiylashtirishda ssuda oluvchi bilan garov haqidagi yozma shartnomani tuzadi (kredit shartnomasi loyihasi asosida). Garov shartnomasida garovga qo'yilgan mol-mulkning ro'yxati, bahosi va manzili, garov bilan ta'minlanadigan majburiyatlarni bajarishning mohiyati, miqdori va muddati ko'rsatiladi. Mol-mulk garovi qarz oluvchi hisobidan Bank foydasiga sug'urtalanishi hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 271-moddasiga muvofiq albatta notarial jihatdan tasdiklanishi kerak.

Noturarjoy binolar va inshootlarni baholash Davlat kadastri organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Asosiy vositalar balansdagi qoldiq qiymati bo'yicha, garovning boshqa turlari esa balansdagi qiymati bo'yicha baholanadi.

Mol-mulk garovining barcha turlari bo'yicha bank ssuda oluvchi bilan birgalikda o'zaro baholash dalolatnomasini tuzadi.

Bank garovga qo'yilgan mulkni saqlanishi bo'yicha kredit shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda joyida tekshiruv o'tkazishi lozim.

Agarda garovga bir necha shaxsning tasarrufida bo'lgan mol-mulk rasmiylashtirilayotgan bo'lsa, bunday holda mulkga egalik qiluvchi barcha shaxslarning yozma ravishdagi roziligi bilangina ushbu mol-mulk garovga berilishi mumkin.

Noturarjoy binolar va inshootlar garovi bo'yicha shartnomalar Davlat kadastri tuman va shahar xizmatlari organlari tomonidan qayd etilishi lozim.

Turarjoy binolari ba'zi banklar kredit komiteti tomonidan garov ob'ekti sifatida qabul qilinmaydi.

Berilayotgan kreditning miqdori garovga qo'yilgan mulk sug'urta bahosidagi qiymatining 80 foizidan oshmasligi kerak.

Garovga quyilgan mol-mulk tomonlarning kelishuviga asosan to'lig'icha qarz oluvchining tasarrufida qoladi yoki bank ixtiyoriga beriladi.

Yuqori likvidlikka ega bo'lgan davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) ham garov ob'ekti bo'lishi mumkin va ularni garovga ko'yish alohida shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Banklarning kafolatlariga asosan kredit berilishida kafolatlarni rasmiylashtirish Fuqarolik kodeksida ko'rsatilgan tartibda yozma ravishda amalga oshiriladi.

Kreditni qaytarish muddati kelib, qarz oluvchining depozit hisob varag'ida pul mablag'i bo'lmagan takdirda kafolat beruvchi bank qarz bergan bank bo'limining yozma ravishda bildirgan xabarnomasiga muvofiq muddatida to'lanmagan kredit hamda foiz to'lovlarini o'z hisobidan o'zining to'lov topshiriqnomalari bilan bevosita qarz oluvchining ssuda hisob varagiga o'tkazib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 292 —moddasiga muvofiq tuzilgan uchinchi shaxsning qarz oluvchining to'lov qobiliyati yo'qligida uning qarzini to'lashga roziligi to'g'risidagi majburiyati ham kreditni qaytarilishini ta'minoti sifatida qabul qilinishi mumkin, bunday majburiyat mustaqil majburiyat kafillik tarzida rasmiylashtiriladi.

To'lov qobiliyatiga ega bo'lgan, bank oldida ssuda va boshqa karzlari hamda 2-sonli kartotekada muddatida to'lanmagan to'lov hujjatlari bo'lmagan uchinchi shaxslar kafillik beruvchi bo'lishlari mumkin.

Kafillik qarzdor bilan kafillik beruvchi o'rtasida bank foydasiga yozma shaklda kafillik shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi. SHartnomada kafillik beruvchi bank bo'limlari oldida ssuda oluvchining ushbu kredit bo'yicha majburiyatlarini, qarzdor uni kredit shartnomasida belgilangan muddatda bajarmagan takdirda, bajarish yuzasidan zimmasiga majburiyatlar olishi ta'kidlanadi. Kafillik beruvchining ma'suliyati qarzdorning qarz bo'yicha hisoblab chiqarilgan foizlarini hisobga olgan holda qarz miqdori bilan chegaralanadi.

Kredit ta'minoti sifatida kafillik shartnomasini qabul qilish vaqtida bank kafillik beruvchining moliyaviy holatini hamda uning to'lov qobiliyatini tahlil etishi lozim va ijobiy hal bo'lgandagina kafillik shartnomasini berilayotgan kredit ta'minoti sifatida qabul qilishi mumkin.

Kafillik shartnomasi kafillik beruvchi majburiyatlar bo'yicha asosiy javobgar bo'lganidagi kabi bankka kafillik beruvchining majburiyatlaridan foydalanish huqukini beradi. Kafillik shartnomasi kreditning va u bo'yicha hisoblangan foizlarning butun summasini qamrab oladi.

Kafillik shartnomasiga quyidagilar ilova qilinadi:

- kafillik beruvchining bankdagi hisob-varag'i holati to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- kafillik beruvchining boshqa banklardagi barcha bank hisob-varaqlari to'g'risidagi ma'lumotnoma, ulardagi qoldiqni ko'rsatgan holda;
- kafillik beruvchining o'z banki oldida ssudalari yoki boshqa qarzi yo'qligi;
- kafillik beruvchining 2-sonli kartotekada karzlari yo'kligi.

Ushbu ma'lumotnomalar va ma'lumotlar talab qilib olinadigan asosiy depozit hisob-varag'iga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasining rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanadi va dumaloq muhr bilan tasdiqlanadi.

Bank bo'limlari zarur hollarda kafillik beruvchining moliyaviy holatini tasdiklovchi auditorlik xulosalarni ham talab qilishga xakli.

Kreditni qaytarish muddati kelgan va qarzdorning depozit hisob-varag'ida mablag'i bo'lmagan takdirda kafillik beruvchi shaxs qarz oluvchining bankini yozma xabarnomasiga asosan o'zining to'lov topshiriqnomasi bilan talab qilib olinadigan depozit hisob-varag'idan to'lanmagan kredit miqdorini va unga hisoblangan, lekin to'lanmagan foizlarni qarz oluvchining bevosita ssuda hisob-varag'iga o'tkazadi.

Takdim etilgan hujjatlarni sinchiklab o'rgangandan so'ng bank xodimi kredit bitimini tuzish imkoniyati bor-yo'kligi to'g'risidagi xulosani rasmiylashtiradi, bunda quyidagilarni ko'rsatadi:

- kreditga qobilligi;
- kreditning maqsadi, muddati va miqdori;
- kredit qaytarilishining ta'minlanishi;
- foiz stavkasi.

Bank kredit bo'limi xodimining va kredit bo'limi boshlig'ining imzosi qo'yilgan xulosasini ilova qilingan hujjatlar bilan birganlikda ko'rib chiqish uchun kredit ko'mitaga takdim etiladi. Kredit qo'mita esa o'z vakolatlaridan kelib chiqqan holda besh ish kuni ichida tegishli qaror qabul qiladi (Kredit ko'mita bayoni).

Mazkur xulosa Kredit ko'mitasi raisi tomonidan tasdiqlangandan so'ng kredit shartnomasi tuziladi yoxud o'sha kunning o'zida qarz oluvchiga yozma ravishda rad javobi beriladi. Rad javobida ssuda ajratish uchun kredit bitimini tuzmaslik sabablari ko'rsatiladi.

Kredit qo'mitasining ijobiy xulosasidan keyin kredit shartnomasi tuzilib, u bank rahbari va qarz oluvchi tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kredit shartnomasida quyidagilar ko'zda tug'iladi:

- kreditning maqsadi va miqdori, uni berish va sqaytarish tartibi;
- majburiyatlarni ta'minlanganlik shakllari, foiz stavkalari, ularni hisoblash va to'lash tartibi;
- kreditni berishda va qaytarishda taraflarning xuquqlari hamda ma'suliyatlari;
- kreditni berish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, hisob-kitoblar va boshqa hujjatlar hamda ularning davriyligi;
- bank tomonidan joyida hisob kitoblarni yuritilishi, kreditdan maqsadli foydalanishi, kreditni qaytarilishini ta'minoti sifatida garovga olingan mol-mulklarni saqlanish holati va boshqa masalalar bo'yicha tekshiruvlar o'tkazilishi.

Kredit shartnomasi tuzilgandan so'ng bank bo'limi rahbari va kredit xodimining imzosi bilan kreditni qaytarish muddati hamda foiz stavkasi ko'rsatilgan holda berilgan farmoyishga asosan muxosiblik bo'limida qarz oluvchiga ssuda hisob-varag'i ochiladi.

Ssudani berish to'g'risida qaror qabul qilinishi bilan qarz oluvchiga kredit kartochkasi ochiladi va shu kartochka bo'yicha kredit ustidan nazorat olib boriladi.

Kredit berish alohida ssuda hisob-varag'idan qarz oluvchining kredit shartnomasida ko'rsatilgan maqsadga muvofiq tovar-moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lash uchun kredit bo'limi xodimining imzosi bilan tasdiqlangan to'lov topshirig'ini bajarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Savdo tashkilotlarining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, ularning 2-sonli kartotekasida to'lov hujjatlari, bank kreditidan va foiz to'lovlaridan muddati o'tgan qarzlari bo'lmagan holda hamda bankka bir chorak mobaynida topshiradigan o'rtacha nakd pul tushumi oldindan berilgan kreditni va yangidan berilishi rejalashtirilayotgan kreditni hisoblanadigan foizlari bilan birgalikda qoplanishini ta'minlagan takdirdagina 90 kun muddatgacha yangidan kredit berilishiga ruxsat etiladi.

Bank bo'limlari savdo tashkilotlariga aholining birinchi darajali ehtiyoji hisoblangan oziq-ovqat mahsulotlari zahirasini shakllantirish uchun bir bitim yoki bosqichma bosqich bir necha bitimlar bo'yicha 12 oydan oshmagan muddatgacha kredit berishlari mumkin.

Bank bo'limlari har oyda balans hisob-varaklari va ko'zda tutilmagan holatlar hisob-varaqlarida yuritilayotgan foiz qarzlari bo'yicha qarzdor mijoz bilan takkoslama dalolatnomalar tuzadi.

Kreditni so'ndirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- muddatidan ilgari, qarz oluvchining talab qilib olinadigan asosiy depozit hisob-varagidagi pul mablag'larini erkin qoldig'ini uning to'lov topshiriqnomasiga asosan ssuda hisob-varag'iga o'tkazish yo'li bilan;

- muddatli majburiyatnoma va memorial orderlarga asosan qarz oluvchining talab qilib olinadigan asosiy depozit hisob-varag'idan so'ndirish muddati kelgan ssudalar bo'yicha qarzlarni undirish yo'li bilan;

- bank tomonidan qabul qilingan kafillik shartnomasi, kafolat, sug'urta polisi bo'yicha sug'urta to'lovlari majburiyatlaridan foydalanish orqali.

Uzoq muddatli kreditlar ishlab chiqarish ob'ektlari va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlarni qurish, ta'mirlash, texnikaviy qayta jihozlash xarajatlari bilan bog'liq investitsiya maqsadlari, texnika, texnologiya va asbob uskunalar, asosiy poda va ko'p yillik daraxtlarni shakllantirish uchun beriladi.

Takdim etilgan barcha hujjatlarni sinchiklab o'rgangandan so'ng bankning kredit bo'limi ilova qilingan hujjatlar bilan birgalikda kredit berilishi mumkin yoki rad javobi berish hakida qaror qabul qilish uchun o'z xulosasini Kredit qo'mitaga taqdim qiladi.

Kredit qo'mitaning ijobiy xulosasidan so'ng bank bo'limi qarz oluvchi bilan kredit shartnomasi tuzadi.

Qurilayotgan ob'ektlar (korxonalar)ning Direktsiyalari bilan kredit shartnomalari tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Kreditni berilishi quyidagilarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

- bajarilgan ishlar uchun pudratchi tashkilotlarga to'lov xujjatlarini to'lashda ushbu qurilish smetasiga kiritilgan asbob-uskuna sotib olish va boshqa xarajatlar, qurilish ishlarining yillik hajmining 15 foizidan kam bo'lmagan miqdorda oldindan to'lovni amalga oshirilganligini e'tiborga olish lozim.

- qurilayotgan korxonani Direktsiyasini saqlab turish kadrlar tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar, binolar uchun ijara haqlari va shunga o'xshash xarajatlarni kreditlash ob'ekting smetasida ko'zda tutilmagan bo'lsa kredit hisobidan to'lash man e'tiladi.

Bankning kredit faoliyati, uni boshqa bank bo'lmagan tashkilotlardan farqlovchi asosiy mezonlardan biridir. Jahon amaliyotida aynan kreditlash bilan bank foydasining talaygina qismi bog'liq. SHu bilan bir vaqtda, kreditlarning, asosan, yirik kreditlarning qaytarilmasligi, bankning sinishiga sabab bo'lishi ham mumkin.

Kredit portfeli - bank tomonidan berilgan kisha muddatli, uzoq muddatli va muddati uzaytirilgan kreditlarning balansdagi qoldiqlaridan iborat. Kreditning qaytimliligini ta'minlash bankda kreditlash jarayonini tashkil qilish, ssudalarini berish va to'lash tartiblariga rioya kilish, ssudalarni, xususan, kechiktirilgan va muddati uzaytirilgan ssudalarni xisob-varaqasida to'g'ri ifodalash, bankdagi tahliliy ishlar ahvoli va ssudalar tasniflari t'yg'riligi bilan bevosita bog'liq.

Bankda kredit riskining yuzaga kelishi birinchidan puxta ishlab chiqilgan kredit siyosati va unda qayd etilgan mijozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarga tegishli umumiy yo'riqnomalarning mavjudligiga; ikkinchidan, ushbu yo'riqnomalarni hayotga tadbiq etayotgan bank xodimlarining bilim darajasiga va harakatlariga, ya'ni riskni boshqarish qobiliyatiga bank rahbarlarining omilkorligiga hamda kredit shartnomalarining shartlarini ishlab chiquvchi, kredit loyihalarni tanlab oluvchi bank xodimlarining malaka darajasiga bog'liq bo'ladi.

Tijorat bankning kredit risklarini boshqarish jarayonida bir nechta umumiy bosqichlarni ajratish mumkin. Bular:

- bankning kredit siyosatining maqsad va vazifalarini ishlab chiqish;
- ma'muriy echimlarni qabul qilish tizimini va kredit riskini boshqarish ma'muriy tarkibini tashkil etish;
- qarzdorning moliyaviy holatini tahlil qilish;
- qarzdorning kreditlash tarixini, uninga loqalarini aniqlash;
- kredit shartnomasini ishlab chiqish va imzolash;
- kreditlarning qaytarilmaslik riskini tahlil qilish;
- barcha ssudalar portfeli bo'yicha qarzdorning kredit monitoringini yo'lga qo'yish va uzluklashtirish;
- muddati o'tgan va shubhali kreditlarni qaytarish va garovni sotish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish va boshqalar.

Kredit riskini boshqarish uchun bank xodimi ssudalar portfelining sifatli tarkibi va tuzilishi ustidan doimo nazorat olib borishi kerak. «Foydalilik-risk» munozarasi doirasida bank xodimi o'zini ortiqcha risklardan saqlagan holda foyda me'yorini cheklashga majbur. U riskni bo'lib-bo'lib qo'yish siyosatini olib borish, hamda kreditlarni bir nechta yirik qarzdorlarda to'planishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Aks holda, qarzdorlardan birining kreditni to'lay olmasligi bankning moliyaviy ahvolini qiyinlashtirishi mumkin.

Kredit riski likvidlilik riskiga va bankning to'lovga qobilsizligi riskiga, shuningdek bankning ma'muriy-xo'jalik xarajatlarini qoplay olmasligi bilan

bog'liq risklarga olib kelishi mumkin, foiz stavkasi riski o'zicha mustaqil bo'lsada, u kredit riski va boshqa barcha risklar zanjirini chuqurlashtirib borishi mumkin.

Tijorat banklarning dolzarb muammolaridan biri balans ma'lumotlari va kredit portfelining tahlili asosida kredit risklarini boshqarish hisoblanadi. Kreditlarni risk sinflariga guruhlash, ularni tahlil qilish, ularni minimallashtirish va bank manfaatini himoya qilish usullarini ishlab chiqish kredit risklarini kamaytiradi. Ishlab chiqarishida pasayish bo'layotgan korxona va tarmoqlarda kreditning to'planishidan voz kechish, shuningdek, «hamma tuxumni bir savatga solmaslik kerak», degan donishmandlarning naqliga amal qilgan holda bir qarz oluvchiga to'g'ri keluvchi riskning maksimal miqdoriga rioya qilish kredit riskini engillashtirishga imkon beradi.

Kredit tavakkalchiliklarini kamaytirishning eng samarali yo'llaridan biri bankning kredit resurslarini yig'ish va ulardan foydalanish bo'yicha diversifikatsiya o'tkazishdir. SHundan kelib chiqqan holda bankning kredit portfelining diversifikatsiyasi - bu bankning ba'zi mijozlardan ko'rgan zararlarini boshqa mijozlardan ko'rgan daromad hisobidan qoplash maqsadida bankning kredit resurslarini kam miqdorda ko'p sonli mijozlar o'rtasida taqsimlashni tushunamiz. Diversifikatsiyalashni uch xil yo'nalish bo'yicha olib borish mumkin. Bular portfel, geografik va kreditlarni to'lash muddatiga qarab o'tkaziladigan diversifikatsiya turlaridir. Banklarning kredit portfelini diversifikatsiya qilish bankning kreditlarini har xil sohadagi bir necha mijozlar o'rtasida taqsimlashni o'z ichiga oladi. Diversifikatsiya qilinmagan kredit, investitsiya portfeli doimo yuqori tavakkalchilik bilan bog'liq bo'ladi. Tijorat banklarining aktivlarini diversifikatsiyalash bank faoliyatida muhim o'rin egallaydi.

Ko'plab banklar aktivlar portfelida aktivlarni faqat bir tarmoqqa emas, balki turli tarmoqlarga qo'yishni o'zlariga tamoyil qilib olishlari zarur. Agar bir aktivdan yo'qotishlar bo'lsa, bank unchalik katta talafotlar ko'rmaydi, aksincha bank bir sohaga qo'yilgan bir necha aktivi bo'yicha muommoga uchrasa, uning ahvoli ancha g'amonlashadi. Bunday hollarda aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish tamoyili qo'llanilishi lozim, chunki proporsional bo'lgan, bir aktivdan ortiq bo'lgan aktivlarni moliyalashtirish, biror aktivga qo'yilgan mablag'dan kelgan zararlarini boshqalarning ijobiy natijasidan qoplash imkoniyatini beradi.

Banklar va bankirlar boshqa kreditorlarga nisbatan riskdan ko'p himoyalalanuvchi yoki qochuvchi bo'lishlari kerak. Buning sababi shundaki, bank boshqa kreditorlarga nisbatan o'z mablagi bilan emas, balki jalb qilingan mablag'lar, ya'ni jismoniy, huquqiy shaxslarning vaqtincha bankda turgan mablag'lari bilan ishlaydilar. Bankning kredit berish imkoni u jalb qilgan resurslarga bogliq bo'ladi. Bank o'z navbatida bu jalb qilingan mablaglarni talab qilingan vaqtda mijozga qaytarib berish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bu imkoniyat esa bank faoliyatida mavjud risklarni o'z vaqtida aniqlash, ularning oldini olish choralari ishlab chiqishni taqozo etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Kredit shartnomasining tuzilishi va mohiyati
2. Muddatli va muddati uzaytirilgan kreditlarning mohiyati;

3. Kredit muddatini kechiktirish muddati va shartlari;
4. Bankka kredit olish uchun taqdim etiladigan xujjatlar;
5. Bank kreditini rasmiylashtirish tartiblari;
6. Kredit ta'minoti turlari haqida tushuncha;
7. Kredit ta'minotiga nisbatan qo'yiladigan talablar;
8. Kafillik shartnomasining mohiyati;
9. Kredit ta'minoti sifatida uchinchi shaxs kafilligini qabul qilish tartiblari;
10. Bank kredit portfelining tuzilishi va mohiyati;
11. Bank kredit portfelini boshqarish asoslari;
12. Bank kredit portfeli bilan bog'liq risklar;
13. Bank kredit portfelini diversifikatsiyalash;

17-mavzu: KREDITGA LAYOQATLILIK TUSHUNCHASI /2 soat/

Reja:

1. Aylanma mablag'lar va mijozning kreditga layoqatliligini baholash usullari

Tayanch iboralar: *kreditga qobillik, qoplash koeffitsienti, likvidlik koeffitsienti, avtonomiya koeffitsienti,*

1. Aylanma mablag'lar va mijozning kreditga layoqatliligini baholash usullari

Mustaqillikning dastlabki davrlarida bank tizimida, xususan kreditlash mexanizmidan tub o'zgarishlar yuzaga keldi. Endi mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash kredit mexanizmining asosiy elementi sifatida namoyon bo'ldi va bu, o'z navbatida, bozor tamoyillari asosida takomillashib bormokda.

Kreditlash jarayoni qarz oluvchi tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilmasligi va belgilangan muddatda kreditning to'liq qaytarilmasligi kabi ko'pgina xatarlar bilan bog'liq. Berilgan kreditlarning o'z vaqtida qaytmasligi tijorat banklari faoliyatiga, ularning moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Korxonalarining kreditga layoqatliligini hisobga olgan holda kredit berish, uni o'z vaqtida qaytarilishining muhim omili hisoblanadi. Markazlashgan rejali iqtisodiyot sharoitida mijozni kreditlash jarayonida kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari chuqur tahlil etilmagan va uning amaliyotda muhim ekanligi ochib berilmagan. Chunki, kreditlash jarayonlari belgilangan limitlar asosida, markazlashtirilgan usulda amalga oshirilgan.

SHu bois tijorat banklari mijozlarga kredit ajratishda avvalambor ularning kreditga layoqatliligini tahlil etishi va tahlil jarayonida mijozning kredit tarixi va uning moliyaviy holatini, qarz oluvchining o'z vaqtida majburiyatlarini bajara olish imkoniyatlarini keng va chuqur tahlil qilishi lozim.

Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, qarz oluvchilarning kreditni o'z vaqtida qaytarishga qodirligi, aylanma mablag'lari va kreditlardan samarali foydalanishi ular faoliyatining daromadlilik darajasini balans ma'lumotlari va moliyaviy natijalari asosida tahlil qilish orqali mavjud majburiyatlarni bajarishga mijozning

tayyorligi, korxona va tashkilotlarning ish yuritish usullari, rivojlanish istiqbollari, rahbarning ishini tashkil etish va yurgizish fazilatlarini o'rganish orqali aniqlanadi.

Bank tomonidan kreditlash imkoniyati va shartlari to'g'risidagi masala hal etilgunga qadar kreditga layoqatlilikni aniqlash orqali qarz oluvchi faoliyatiga sifat jihatidan baho beriladi, bu esa kreditdan unumli foydalanish va uni o'z vaqtida qaytarilish ehtimolini oldindan ko'ra bilishga imkon yaratadi. Bu jarayon kredit xatarining oldini olishda ilk bosqichdir.

Kreditga layoqatlilikni tahlil qilishda turli manbalarda mavjud ma'lumotlardan foydalanish ijobiy natija berishi mumkin. Bular turkumiga:

- a) bevosita mijozdan olingan ma'lumotlar;
- b) mijoz bo'yicha bank arxivida mavjud bo'lgan axborotlar;
- v) mijoz bilan ish yuzasidan aloqada bo'lgan shaxslar tomonidan berilgan ma'lumotlar;
- g) kredit byurosi ma'lumotlarini kiritish mumkin.

Yuqoridagi manbalarga tayangan holda bank xodimi mijozning kreditga layoqatliligini o'rganib chiqib, uning faoliyatiga baho berishi va xulosa qilishi mumkin.

Tijorat bankining kreditlash jarayonining olib qaraydigan bo'lsak, mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash bosqichida beriladigan kredit bo'yicha risk darajasini xomcho't qilish mumkin.

Kreditlash jarayonining bosqichlarida kredit risklari va ular darajasini aniqlash mumkin. Mijozning kreditga layoqatliligi bilan bog'liq risk darajasi kreditlashning boshlang'ich bosqichlarida bo'lmasligi yoki kam bo'lsada, uning faoliyati davomida kutilmagan moliyaviy qiyinchiliklarning paydo bo'lishi kredit riskining yuzaga kelishiga asos bo'lishi mumkin.

Kredit riskining vujudga kelishi ikki asosiy parametr kredit beruvchi va qarz oluvchi o'z vazifalarini qay darajada bajarishiga bog'liq. Qarz oluvchi tomonidan tayyorlangan kredit paketini tahlil qilish va kredit berish bo'yicha loyiha tayyorlash kreditlovchi bank uchun risk va uning turlarini aniqlab olish imkoniyatini beradi. Bu bosqichda kredit beruvchi:

1. qarz oluvchining iqtisodiy, moliyaviy ahvoli, uning ishchanlik, ma'naviy qiyofasi, ishlab chiqarishimkoniyatlari, marketingi, moliyaviy boshqaruvi vaboshqalarni;
2. Kreditga bo'lgan talabning qanchali darajadato'g'ri asoslanganligi va bu asos korxonaningchinakam iqtisodiy holatidan kelib chiqqanligi;
3. Kreditning maqsadi bank manfaati uchun ham to'g'ri kelishi kabi savollarga to'liq va aniq javob olishi lozim.

Masalan, bozor iqtisodiyotining hozirgi bosqichlaridayangi korxona, firmalar tashkil topayotgan va ular to'g'risida aniq axborot mavjud emaslita sharoitida birinchi savolga javob berish juda muxim. Ikkinchi savolni kredit oluvchi tomon to'ldirishi, uning moliyaviy ahvoli, undaga hisob-kitoblar holati, auditorlik tekshiruvlari bo'yicha hisobotlar va xulosalar, korxona balansi, pul oqimi to'g'risida hisobot, daromadlar to'g'risida bildirishnoma va boshqa ma'lumotlar bank uchun zarur hamda bu hujjatlarning mavjudligiga korxonaning o'z moliyaviy resurslarini muvafaqqiyatli boshqarayotganligadan dalolat berishi

mumkin. Uchinchi savolda esa bank u berayotgan kredit uning kredit portfeliga mos keladimi yoki yo'qmi shuni aniqlashi lozim. Agar bu beriladigan kredit bankning kredit portfeli yanada ko'proq diversifikatsiyalanishiga olib kelsa, bu bankning kredit portfeli riskini kamaytiradi. Agar bu kredit bir tarmokda kreditlarning yig'ilishini kuchaytiradigan, to'lash muldati bir vaqtda to'g'ri keladigan bo'lsa, kredit portfelining riski oshishi mumkin. Bunda bank xodimlari kredit berish, kreditni baholash sohasida etarli bilimga egami, ular bozor o'zgarishlarini inobatga olgan holda bank ishining texnikasini bilishi, kredit berish bo'yicha oxirga qarorni.

Halokatli risk — aniq yo'qotishlar muqarrarligini va bankning foydasi, mulkiy zarar bilan yakunlanishini ifodalaydi.

Banklar tomonidan beriladigan kreditlarning qaysi sohaga yo'naltirilishi, ular bo'yicha to'lanmagan qarzlarning mavjudligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun banklar aniq axborotlarga ega bo'lishlari, doimiy hisob-kitoblar olib borishlari lozim. Kreditlarni risk darjasi bo'yicha turkumlash kreditlar havfli zonasiga tushishlikning oldini olish, kredit risklarining salmog'ini kamaytirishga imkoniyat yaratadi.

Kredit riski tashqi omillar (bozor holati iqtisodiy muhit holati)ga va ichki omillar (bank o'zining xato faoliyati)ga bog'liq bo'ladi.

Tashqi omillarni boshqarish imkoniyatlari cheklangan bo'lsa ham, ammo o'z vaqtidagi harakatlar bilan bank ushbu omillarning ta'sirini yumshatishi va yirik zararlarni bartaraf qilishi mumkin.

1-jadval

Risk zonalari¹

Yutuqlar	Yo'qotishlar			
salbiy yo'qotishlar yo'q.	bo'lishi mumkin bo'lgan tavakkalchil	kritik risk zonasi	halokatli risk zonsi	Maksimal risk (yo'qotishlar hajmi yuqori)
Risksiz zona foyda	tushum mavjud	yo'qotish xavfi bor	aniq yo'qotishlar mavjud	mulkni ham yo'qotish holati

Hozirgi kunga qadar respublikamiz tijorat banklarida mijozning kreditga layoqatliligini baholash asosan uchta ko'rsatkich asosida amalga oshirilmokda. Bular: koplash koeffitsienti, likvidlik koeffitsienti va muhtoriyat (avtonomiya) koeffitsientlaridir. Ushbu ko'rsatkichlar asosan mijozning kreditga layoqatliligini baholasada, faoliyatining asosiy omili bo'lgan pul oqimlarini hamda mijozning shaxsini to'liq baholash imkonini bermaydi. Holbuki, pul oqimi zaif bo'lgan mijozlar kreditni qaytarishda jiddiy qiyinchiliklarni boshidan kechiradilar. Bundan

¹ Абдуллаева Ш.З., «Банк рисклари ва кредитлаш» Тошкент «Молия» нашриёти 2002 й. 124 б.

tashqari, respublikamiz bank amaliyotida kredit oluvchining yuridik shaxs sifatida shaxsiy mezonlari kuzatuv ob'ekti sifatida to'liq o'rganilmaydi.

Kreditga qobillikni baholash xo'jalik sub'ektlarining balans va foyda zararlar to'g'risidagi hisobotlariga asosan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, kreditga qobillikni aniqlash davrida zaruriy hollarda statistiq analitik va boshqa ma'lumotlardan shuningdek istiqbolstat ma'lumotlaridan ham foydalaniladi.

Kredit tavakkalchiligining darajasini aniqlashdagi muhim ko'rsatkichlardan biri bu korxonaning moliyaviy jihatdan mustaqilligini ifodalovchi koeffitsientdir.

Kredit tavakkalchiligini tahlil qilishlik uchun avvalo, yuqorida ko'rsatib o'tilgan koeffitsientlar hisoblab chiqiladi va ularning optimal ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi. Agar hisoblangan ko'rsatkichlar taxminan optimal ko'rsatkichlar bilan bir xil bo'lsa, u holda tahlilni davom ettirmasa ham bo'ladi. Ko'p hollarda ba'zi ko'rsatkichlar kredit tavakkalchiligining yuqoriligi haqida dalolat bersa, ba'zilari buning aksini ko'rsatadi. Bu holda kredit tavakkalchiligiga baho berish qiyin bo'ladi va shu hollarda tahlil qilishni davom ettirish lozim bo'ladi. Ko'p hollarda optimal ko'rsatkichlardan uzoq bo'lgan koeffitsientlarning o'zinigina strukturalarga ajratiladi. Muxtorlik koeffitsienti o'zining optimal ko'rsatkichidan uzoqlashganda o'z mablag'laridan va jalb qilingan kapitaldan foydalanish samaraliligini quyidagim ko'rsatkichlarni qo'shimcha ta-hlil qilib aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qoplash koeffitsienti, likvidlik koeffitsienti va o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik (avtonomiya) koeffitsientlari kreditga qobillikni asosiy ko'rsatkichlaridir.

Balansning qoplash koeffitsienti qisqa muddatli tarzdagi likvid mablag'larni qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati tarzida aniqlanadi:

$$Q_k = LM / Q_m.M$$

Q_k -qoplash koeffitsienti;

LM - qisqa muddatli tarzdagi likvid mablag'lar;

$Q_m.M$ - qisqa muddatli majburiyatlar;

Yuqorida izohlab o'tilganlarni hisobga olgan holda: qoplash koeffitsientini quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_k = \frac{\text{Pul mablag'lari} + \text{Engil hal qilinadigan talablar} + \text{Engil hal qilinadigan zahiralar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}}$$

Qoplash koeffitsienti (Q_k) likvid mablag'lari summasining qisqa muddatli majburiyatlar summasi nisbatini o'zida ifodalaydi. Q_k taxminan 2,0-2,5 dan kam bo'lmasligi kerak. Bu qisqa muddatli majburiyatlarning har bir so'miga likvid mablag'larining 2 so'mdan kam bo'lmagan qismi to'g'ri kelishini anglatadi.

Agarda likvidlik aktivlar qisqa muddatli majburiyatlardan kamida ikki barobaridan ko'p bo'lsa, bunday xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy ahvoli barqaror hisoblanadi.

Yuqori kriterial chegaradir. Pastki chegara esa shu bilan belgilanadiki, bunda xo'jalik sub'ektlarining likvidlik aktivlari qisqa muddatli majburiyatlar miqdoriga teng bo'lishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, xo'jalik sub'ektlarining ishlab chiqarish xususiyati, aktivlarining tarkibi kabi omillar qoplash ko'rsatkichini ifodalovchi xo'jalik va tashkilotlar balansidagi haqiqiy likvidlik holatini baholashda bir muncha noaniqliklarni vujudga keltirishi mumkin.

Shu sababdan balans likvidligi ko'rsatkichini aniqlashda har xil omillarni ta'sirini kamaytirish maqsadida xo'jalik sub'ektlarining balans likvidligi ko'rsatkichi pul mablag'lari va engil hal qilinadigan talablarini qisqa muddatli majburiyatlarga nisbatida aniqlanadi, ya'ni bunda tovar moddiy qiymatliklari zahirasi hisobga olinmasdan faqatgina real likvidlik aktivlari qayd etiladi.

$$LK = PM + EXT/KMM$$

bunda:

LK - likvidlik. koeffitsienti

PM - pul mablag'lari

EhT - engil hal qilinadigan talablar

Qm.m - qisqa muddatli majburiyatlar

Likvidlik koeffitsienti joriy majburiyatlarning ma'lum qismi nafaqat naqd mablag'lar hisobidan balki jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan tushishi kutilayotgan tushumlar hisobidan ham qoplanishi mumkinligini ko'rsatadi.

3. Xo'jalik sub'ektlarini o'z manba'lari bilan ta'minlanganligi (avtonomlik koeffitsienti AK) korxonani o'z manba'larini balansning passiv qismi jami summasidagi ulushini aniqlash bilan baholanadi va korxonani qarz mablag'larining manba'laridan mustaqilligini ko'rsatadi.

O'z manba'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$AK = O'MM/BP$$

bunda:

AK - avtonomlik koeffitsienti;

O'MM - o'z mablag'lari manba'laribalansning 390-satri

BP - balansning jami passiv qismi 550-satri

Korxonaning o'z mablag'lari manba'lari bilan taminlanganligi 30 foizdan kam bo'lmasligi lozim. Aylanma mablag'lar aylanishining yuqoriligi va xo'jalik organlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq holda ushbu ko'rsatkichning belgilangan darajasi birmuncha past ham bo'lishi mumkin.

Agar ushbu koeffitsient 0,6 dan ya'ni 60 foizdan yuqori bo'lsa kredit xatari eng kam darajaga keltirilgan hisoblanadi.

Korxonaning o'z mablag'lari hajmi ustav fondining summasi, hissadorlarning qo'shimcha badallari, tovar-moddiy zahiralarining qayta baholanishi, rezerv kapitali va taqsimlanmagan foydadan iborat. Uning optimal ko'rsatkichi $K_m=0,5$ ga teng bo'lishi mumkin. Bu ko'rsatkich qarz oluvchilarning o'z mablag'larining summasini korxonaning umumiy mablag'laridan katta bo'lishi lozimligini

anglatadi. O'zbekiston hududida xo'jalik sub'ektlarini qisqa muddatli kreditlashda asosan bu ko'rsatkichning minimal miqdori 0,3 dan kam bo'lmasligi lozim.

Qishloq xo'jaligi korxonalari bo'yicha avtonomlik koeffitsienti yillik hisoboti bo'yicha aniqlanadi va bu miqdor butun yildavomida hisobga olinadi.

O'z aylanma mablag'larining mavjudligi, foydalilik noto'lovlar va aylanma mablag'larning aylanishi kreditga qobillikning qo'shimcha ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Muxtorlik koeffitsienti hissadorlarning, aktsiya egalarining va kreditorlarning manfaatlarini va shu bilan birga moliyaviy mablag'larning tarkibini ham ifodalaydi, ya'ni chetdan jalb qilingan kapital bilan o'z mablag'lari ta'minlanganligining nisbiy darajasini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich depressiya davrida korxonalarni katta yo'qotishlardan saqlaydi va kredit olish uchun kafolat hisoblanadi. Bu ko'rsatkich orqali korxonaning moliyaviy ahvoriga baho berish mumkin.

4. O'z aylanma mablag'larining mavjudligi:

$$\text{O'AMM} = \text{O'MM} - \text{UMA},$$

bunda;

- O'AMM- o'z aylanma mablag'larining mavjudligi;
- O'MM- o'z mablag'lari manba'i;
- UMA- uzoq muddatli aktivlar;

Agarda xo'jalik sub'ektining uzoq muddatli aktivlari (balans aktiv qismining I bo'limi) o'z mablag'lari manba'laridan oshib ketsa bunday holda balans nolikvidligi yuzaga keladi. Ushbu Nizom talablariga muvofiq balans nolikvidligiga yo'l qo'ygan xo'jalik sub'ektlari bank kreditidan foydalanish huquqiga ega emaslar.

5. Xo'jalik sub'ektlarining aylanma mablag'larini aylanishi ikkita ko'rsatkich bilan aniqlanadi: aylanma mablag' larning aylanish koeffitsienti va aylanma mablag'larning aylanishi kun hisobida.

Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti aylanma mablag'larning aylanish tezligini ifodalaydi va tahlil etilayotgan davr mobaynida mahsulot sotishdan tushgan tushumni aylanma mablag'larni o'rtacha bahosiga bo'lish bilan aniqlanadi;

$$\text{Akoef.} = S / O'q$$

bunda:

Akoef.-aylanish koeffitsienti

S -sotilgan mahsulot hajmi

O'q- aylanma mablag'larning o'rtacha xronologik qoldig'i.

Aylanma mablag'larning aylanishi kun hisobida'

A kunda $O'q = K/S$

bunda:

A - kunda aylanma mablag'larning aylanishi kun hisobida

K - tahlil etilayotgan davrdagi kunlar soni

S - sotilgan mahsulot hajmi

Yuqorida keltirilgan koeffitsientlar mijoz faoliyatining ba'zi bir aspektlari samaradorligini tavsiflaydi. Tijorat nuqtai nazaridan ular sotuvning yo ortiqqligini yoki kamligini, moliyaviy nuqtai nazaridan kapital oborotining tezligi, iqtisodiy jihatdan — pul mablag'larining aktivligini tavsiflaydi.

O'tkazilgan tahlil natijalariga va koeffitsientlar darajalariga asosan xo'jalik va tashkilotlar kreditga qobillikning 3 ta sinfi bo'yicha tasniflanadi va ularning qaysi sinfga mansubligiga qarab bank bilan korxona o'rtasida kreditlash aloqasi o'rnatiladi.

2-jadval

**KREDITGA QOBILLIKNING ASOSIY KO'RSATKICHLARIGA
SINFLAR BO'YICHA QO'YILGAN TALABLAR.**

№	Ko'rsatkichlar nomi	I-sinf	II-sinf	III-sinf
1	Qoplash koeffitsienti (QK)	$QK > 2,0$	$2,0 > QK > 1,0$	$1,0 > QK > 0,5$
2	Likvidlik koeffitsienti (LK)	$LK > 1,5$	$1,5 > LK > 1,0$	$1,0 > LK > 0,5$
3	Avtonomiya koef fitsienti (AK)	$AK > 60\%$	$50\% > AK > 30\%$	$30\% > AK > 15\%$

Birinchi sinfga mansub korxonalar umumiy tartib (shartlar) asosida kreditlanadi. Bunday korxonalarga imtiyozli tartibda ishonchli kreditlar berilishi hamda qonunchilikka va bankning ichki kredit siyosatiga muvofiq boshqa imtiyozlar ko'llanilishi ham mumkin.

Ikkinchi sinfga mansub korxonalar ham umumiy tartibda kreditlanadi va agarda bu korxonalar qo'shimcha tarzda qandaydir ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, bularga ham imtiyozlar berilishi mumkin (ishonchli kredit berilishidan tashqari).

Agarda korxonalar ikkinchi sinfga mansub bo'lib qo'shimcha tarzda salbiy ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, bunday korxonalar nobarqaror korxonalar hisoblanadi. Bank bu korxonalar bilan kredit shartnomasini tuzishda kreditni muddatida qaytarilishi va ularning faoliyati ustidan nazorat o'rnatish maqsadida garov huuqini kuchaytirish, foiz stavkalarini oshirish, kredit miqdorini va undan foydalanish muddatlarini chegaralab qo'yish kabi qo'shimcha choralar qo'llanilishini ko'zda tutishi lozim.

Uchinchi sinfga mansub korxonalar kreditga noqobil hisoblanadi va bunday korxonalar ba'zi hollardagina, shunda ham oshirilgan foiz stavkasi bilan qat'iy mol-mulk garovi asosida kreditlanadi.

Kreditga qobillik ko'rsatkichlari III-sinf dan past bo'lgan korxonalarni kreditlash mumkin emas.

Nazorat uchun savollar:

1. Qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligi tushunchasining mohiyati;
2. Mijozning kreditga layoqatliligi bilan bog'liq kredit risklari;
3. Mijozning kreditga layoqatini o'rganishda o'rganiladigan axborotlar majmui;

4. Kreditga qobillik ko'rsatkichlarini o'rganib chiqish manbalari;
5. Kreditga qobillik koeffitsientlari haqida tushuncha;
6. Qoplash koeffitsientining mohiyati;
7. Likvidlik koeffitsientining mohiyati;
8. Avtonomiya koeffitsientining mohiyati;
9. Kreditga qobillik ko'rsatkichlari bo'yicha qarzdorni sinflarga turkumlash;

Fan bo'yicha tayanch iboralarning izoxi.

A

Aval (frantsuzcha aval) — vekselagi topshiriq yozuvi. Veksel bo'yicha qarzdor vekselni ishonchli foydalanish uchun uchinchi shaxslarga topshirish mumkin. Bunda veksel dan foydalanuvchi uchinchi shaxs veksel beruvchi va kreditor oldida qarzdor(veksel beruvchi) majburiyatlarini bajarilishi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Aval, eng avvalo veksel yuzasidan to'lovlarni kafolatlashga, keyinchalik qarz to'lab bo'lingach esa, vekselni o'ziga topshirgan shaxsning barcha huquqlarini o'ziga olishga qaratilgan. Vekselni topshiruvchining qarzdorlari o'z qarzlarini avalistga topshirishlari lozim bo'ladi.

Aval vekselning barcha summasiga yoki uning bir qismiga beriladi. Aval vekselga tirkab qo'yiladigan kafolatli yozuv shaklida bo'lib, avalist tomonidan imzolanadi. Aval kimning hisobidan berilganligi ko'rsatib qo'yilishi lozim, aks holda veksel egasi tomonidan berilgan deb hisoblanadi. Aval vekselning ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Avalning huquqiy holati veksellar haqidagi xalqaro konventsia bilan tartibga solinadi.

Avalist — veksel topshiriqini bergan, avalni amalga oshirgan shaxs.

Avizo (italyancha avviso) — bitim tuzgan tomonlardan birining ikkinchi tomonga ularning o'zaro hisob-kitoblari ahvoli, hisob-kitob raqamlari, shartnoma summasi, hisob-kitob qilish tartibi va hokazolarning o'zgarganligi haqida bergan xabarnomasi.

Avista (nemischa avista) — veksel ustidagi yozuv bo'lib, bu yozuv ushbu veksel taqdim etilganida to'lov amalga oshirilishi lozimligini bildiradi.

Avuarlar (frantsuzcha avoir mulk, boylik) — bankning chet el bankida saqlanayotgan xorijiy valyutadagi, qimmatli qog'ozlar va oltin shaklidagi mablag'lari.

Akkreditatsiyalash — ruxsat berish. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki chet el banklarining vakolatlarini O'zbekistonda akkreditatsiyalash vakolatiga ega.

Akkreditiv — 1. Korxonalar o'rtasida shaharlararo naqd pulsiz hisob-kitob qilishning turi. Bunda maxsus band qilib qo'yilgan bank hisobida mablag' jamlanadi. O'isob-kitobning akkreditiv shakli qonunda va tomonlararo shartnomada maxsus ko'rsatilgan hollarda qo'llaniladi. O'isob-kitobning akkreditiv shaklida to'lovchi o'ziga xizmat qilayotgan bank muassasiga bankda saqlab turish uchun o'tkazilgan o'z mablag'lari yoki qarzga olingan mablag'lar hisobidan yuborilgan mahsulot, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat uchun hisob-kitob qilishni topshiradi. O'ar bir akkreditiv faqat bitta mol etkazib beruvchi bilan hisob-kitob qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, boshqa mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitob qilinishi yoki u hisobidan naqd pul to'lanishi mumkin emas. Akkreditivning amal qilish muddati ochilgyn kunidan boshlab 15 kun bo'lib, ayrim hollarda bankning ruxsati bilan boshqa muddatlarga ham ochilishi mumkin. To'lovchiga o'z banki orqali to'lov shartlarini, amal qilish muddatlarini

o'zgartirish, foydalanilmagan summani muddatidan avval qaytarib olish huquqi berilgan.

Berilgan shaxsning bank muassasalaridan ko'rsatilgan summani olish mumkinligini tasdiqlovchi pul hujjati.

Aktseptlash (inglizcha acceptance) — qimmatli qog'ozlarning joylashtirilishini kafolatlash, aktsiya oldi-sotdisida vositachi firmalar tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalardan biri. Kompaniyalar aktsiyalari muayyan firmaga saqlash uchun topshiriladi va firma ushbu aktsiyalarni xaridorlar o'rtasida tarqatish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Mabodo aktsiyalar soni juda ko'p bo'lsa, u holda vositachi firma tavakkal qilishga majbur bo'ladi, chunki aktsiyalarning sotilmay qolish xavfi mavjud. Lekin ular to'liq sotilgudek bo'lsa, u holda vositachi firma katta miqdorda daromad olishi mumkin bo'ladi.

Aktsept — 1. Etkazilib berilgan mahsulot, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat uchun xo'jalik subektlarining o'zaro hisob-kitob qilish shakllaridan biri. Unga ko'ra mahsulot (ish, xizmat) haqini to'lash uchun to'lovga roziligi olinishi talab etiladi. Oldindan va keyinchalik aktsentlash turlari mavjud.

Oldindan aktseptlash paytida bank oldindan to'lovchining roziligini olgandan keyingina uning hisobidagi mablag' to'lovi amalga oshiriladi. Keyinchalik aktseptlash esa etkazib berilgan mahsulot (bajarilgan ish, xizmat) uchun to'lovchining oldindan rozilgisiz amalga oshiriladi. Bunda xaridor muayyan muddat davomida amalga oshirilgan to'lovdan noroziligini, bu to'lov tuzilgan shartnomaga muvofiq emasligini ma'lum qilishi mumkin. Ushbu holda to'lovchiga xizmat ko'rsatayotgan bank to'langan summani qaytarib olishi mumkin bo'ladi.

2. To'lovchi (trassat) tomonidan ko'chiriladigan veksel (tratta) uchun ko'rsatilgan muddatda pul to'lash majburiyatini o'z zimmasiga olishi:

3. Taklif etuvchi (offerent) shartlariga ko'ra shartnoma (bitim) tuzishga rozilik bildirilishi.

Aktseptant (lotincha acceptants qabul qiluvchi) — veksel, hisob bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishni o'z zimmasiga olgan shaxs.

Annuitet (lotincha annuitas — yillik to'lov) — davriy tarzda to'lanadigan pul summasi (badal, renta, daromad). Sug'urta ishida Annuitet renta yoki nafaqani Sug'urtalash yuzasidan har yili to'lab boriladigan to'lovlarni ifodalaydi. Anntuitet shuningdek, kreditorga olingan qarz yuzasidan har yili to'lab boriladigan pul (foizlar ham) summasini ham anglatadi. Annuitetning bir necha turlari mavjud.

Arbitraj — 1. Xo'jalik sohasida hakamlik sudi;

Turli bozorlardagi qandaydir aktivlar (mahsulot, qimmatli qog'oz, depozit, valyuta va h.k.) qiymati, kursi o'rtasidagi farqlardan foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan operatsiya, bitim.

Auditor — taftishchi firmasining xodimi, korxonalarining moliyaviy faoliyatini nazorat va tahlil qilish bilan shug'ullanadi, yillik buxgalteriya hisoblari va balanslari yuzasidan xulosalar beradi.

B

Bank — Qonunlarda nazarda tutilgan bank faoliyati bilan shug'ullanuvchi tijorat tashkiloti. Bank yuridik shaxs hisoblanib, o'z mulkiga, o'z majburiyatlari

yuzasidan ushbu mol-mulkka mustaqil javobgarlikka, o'z nomidan mulkiy va nomulkiy huquqlarga ega va bu huquqlarni bevosita o'zi amalga oshira oladi, shuningdek, sud jarayonlarida da'vogar va javobgar sifatida ishtirok etishi mumkin.

Bank quyidagi faoliyat turlari bilan shug'ullana oladi:

— yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda bu mablag'lardan kredit berish yoki investitsiyalar uchun foydalanish;

— to'lovlarni amalga oshirish;

— yuridik va jismoniy shaxslarga boshqa turdagi bank va kredit xizmatlarini ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasida bank tashkil etish va banklar faoliyatini yo'lga qo'yish masalalari O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'qrisida»gi qonuni bilan tartibga solinadi.

Davlat banki — davlat tomonidan ta'sis etiladigan, odatda, davlat byudjetiga, davlat organlariga, davlatning moliyaviy va boshqa dasturlariga xizmat ko'rsatadigan muassasa. O'zbekiston Respublikasida bo'lib O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki davlat banki hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vazifalari, vakolatlari va bank faoliyatini amalga oshirish shartlari va tartiblari «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'qrisida»gi qonunda belgilab qo'yilgan.

Innovatsiya banki — zahirolari yuqori samarali, yuksak texnologiyaga asoslangan, raqobatbardosh, fan yutuqlarini o'zlashtirishga qaratilgan maqsadlarda foydalaniladigan tijorat banklarining bir turi.

Ipoteka banki — tijoriy bank turlaridan biri. Qoida tariqasida ipoteka ssudalarini berishga ixtisoslashgan bo'ladi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning tarkibida to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolgan mijozning kredit yuzasidan garovga olingan ko'chmas mulklarini baholash va sotishga qaratilgan ishlarini bjaruvchi xizmat bo'limi mavjud bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida Zamin ipoteka banki tashkil etilgan va faoliyat yuritmoqda.

Bank-moliya akademiyasi — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil, 2 martdagi «O'zbekiston Respublikasining Bank-moliya akademiyasini tashkil etish to'qrisida»gi farmoniga muvofiq xalqaro andozalarga mos keluvchi yuksak malakali moliya-kredit tizimi kadrlarini tayyorlash, moliya bozorlarini rivoj toptirishga qaratilgan fundamental ilmiy va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan oliy o'quv dargohi.

«Bank axborotnomasi» — O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy nashri bo'lib, unda bank-kredit, pul muomalasi, valyutani tartibga solish va boshqa masalalarga oid me'yoriy-huquqiy hamda boshqa axborotlar chop etiladi. Bank xodimlarini bank-kredit sohasidagi eng so'nggi yangiliklar bilan tanishtirib borish maqsadida ta'sis etilgan.

Bank assotsiatsiyasi — banklar faoliyatini muvofiqlashtirish, uning a'zolari manfaatlarini himoya qilish va birgalikdagi dasturlarni ro'yobga chiqarish uchun qonunga zid kelmaydigan tarzda tashkil etilgan ittifoq, uyushma. Bank assotsiatsiyalari tijoriy bo'lmagan tashkilot hisoblanib, tijorat faoliyati, shu

jumladan, bank faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas. Bank assotsiatsiyasining yuridik shaxs sifatidagi huquqiy mavqei uning ta'sis hujjatlarida, nizomida belgilab qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasida Bank assotsiatsiyasi tashkil etilgan va hozirgi kunda faoliyat yuritmoqda.

Bank javobgarligi — mablag'larning saqlanishi, omonatchilar va boshqa mijozlar oldidagi majburiyatlarining bajarilishi uchun, bank siri bo'lgan ma'lumotlarning oshkor etilishi orqali mijozlarga etkazilgan zararlar uchun bank muassasasining mulkiy va boshqa shakllardagi mas'uliyati.

Bank javobgarligi hajmi va doirasi «Banklar va bank faoliyati to'qrisida»gi qonun, O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunlari va boshqa qonuniy aktlari hamda tomonlar o'rtasidagi shartnomaga ko'ra belgilab qo'yiladi.

Bank krediti — bank tomonidan muddatli, qaytarish sharti bilan, muayyan haq evaziga beriladigan qarz. Bank krediti belgilangan muddat tamom bo'lishi bilan qaytarilishi va mijoz kreditdan foydalanganligi uchun tegishli haq to'lashi shart. Bank krediti berilish shartlari bank bilan uning mijozi o'rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq belgilanadi.

Bank kreditini olishdan avval mijoz o'zining to'lovga qodirligini isbotlashi, kreditning qaytarilishini ta'minlay oladigan mol-mulklarini garovga qo'yishi va boshqa ba'zi shartlarni bajarishi lozim. Lizing shartnomasi, Sug'urta tashkilotlari beradigan kafolatlar asosida ham bank krediti berilishi mumkin.

Bank nazorati — davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan moliyaviy qonunlarga, moliya intizomiga rioya etilishi ustidan amalga oshiriladigan nazoratning bir turi. Bozor munosabatlari qaror topishi bilan bank organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat doirasi birmuncha qisqardi. Tijorat banklari tomonidan faqat o'z mijozlari bo'lgan korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlarning kassa operatsiyalari haqidagi qoidalarga, valyuta sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi nazorat qilinadi. Boshqa masalalarda ular o'rtasidagi munosabatlar fuqarolik huquqiy me'yorlari doirasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki davlat boshqaruv organi sifatida tijorat banklari tomonidan bank va moliya qonunchiligiga amal qilinishi ustidan, pul muomalasi va valyutani tartibga solishga oid qonun me'yorlariga rioya etilishi bo'yicha nazoratni amalga oshiradi. Markaziy bank qonunlarning buzilishida aybdor bo'lgan tijorat banklari va boshqa kredit muassasalariga mulkiy sanksiyalar qo'llashi mumkin. Markaziy bankning nazorat sohasidagi funksiyalari va vakolatlari, «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki haqida»gi qonunda belgilab qo'yilgan.

Bank siri — bankning moliyaviy-xo'jalik va boshqa har qanday faoliyatiga taalluqli bo'lgan, oshkor etilishi bankning mulkiy va boshqa manfaatlariga ziyon etkazishi mumkin bo'lgan axborotlar. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'qrisida»gi qonunida «bank siri sanaluvchi axborotlarning taxminiy doirasi belgilangan (38-modda). Bank sirining oshkor etilishida aybdor shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq mulkiy, ma'muriy va hatto jinoiy javobgarliklarga tortilishi mumkin. Bank o'z faoliyatiga oid sir sanaluvchi

axborotlarning oshkor etilishida aybdor bo'lgan shaxslardan kelib chiqqan mulkiy va ma'naviy zararni undirib olishni talab qilish huquqiga ega.

O'ammaga ma'lum bo'lgan va sir saqlanishi uchun tegishli choralar ko'rilmagan axborotlar tijorat siri hisoblanishi mumkin emas.

Bank tizimi — amaldagi qonunchilikka muvofiq O'zbekistonda tarkib topgan bank muassasalari yiqindisi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banklari va boshqa turli-tuman, ko'p sonli tijorat banklaridir.

Bank xizmati — banklar tomonidan mijozlarga ko'rsatiladigan turli-tuman xizmatlar. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'qrisida»gi qonunida banklar tomonidan o'z mijozlariga ko'rsatiladigan xizmatlarning turlari sanab o'tilgan (4-modda). Bu xizmatlar odatda tomonlararo kelishuvigv ko'ra haq evaziga ko'rsatiladi va hisob-kitob shartnomasiga binoan tartibga solinadi.

Banknot (inglizcha banknote) — qog'oz pullarning bir turi bo'lib, davlat tomonidan emissiya huquqi berilgan banklar tomonidan chiqariladi. Banknotlar xazina biletlari bilan bir qatorda muomala va to'lov vositasi sifatida foydalaniladi. Banknotlar veksel muomalasi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, muomalada metall (oltin va kumush) pullar o'rniga chiqarilgan. Ular mohiyatiga ko'ra bank vekselidan iborat bo'lib, bankning oltin zahirasi, qimmatli qog'ozlari, xazina biletlari va h.k. bilan ta'minlanadi.

XX asrning birinchi yarmida banknotlarni oltinga almashtirish barham topdi va ular maydalanmaydigan majburiy kursga ega bo'lgan davlat qog'oz pullariga aylanib qoldi. Hozirgi zamon sharoitida banknotlarning xarid quvvati banklar tomonidan muomalada qat'iy cheklangan miqdordagi qog'oz pullarni saqlab turish yo'li bilan ta'minlanadi.

Bankrot bo'lish — xo'jalik yuritish sub'ektlarining qarzdor sifatidagi qarzlari va boshqa majburiyatlarining mol-mulkidan oshib ketishi, buning natijasida tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga xaq to'lash yuzasidan kreditorlar talablarini qondira olmay qolishi, shu jumladan, byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlarni ta'minlashga qodir emasligi.

Bankrot bo'lish bozor iqtisodi va raqobat kurashi sharoitida kuzatiladigan oddiy hol bo'lib, bu jarayon natijasida «iqtisodiy zaif» korxonalar tabiiy ravishda «o'yindan chiqadilar».

Bozor munosabatlari sharoitida xaridorlar bo'lmagan yoki juda qimmat turadigan mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaruvchi korxonalar bunday mahsulot ishlab chiqarishdan voz kechishlari, o'z mahsulotlari narxini pasaytirishlari yoki o'zlarini noqobil deb e'lon qilishlari va yopilishlari lozim. Buning natijasida bo'shab qolgan mehnat, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslardan yangi, zamonaviy firmalar, korxona va tashkilotlar tashkil etishda foydalaniladi. Korxonalarni bankrot deb e'lon qilish asoslari, shartlari, tartiblari va oqibatlari O'zRning 1994 yil, 5 maydagi «Bankrotlar to'qrisida»gi qonunida belgilab qo'yilgan.

Biznes — 1) ish, mashqulot, tadbirkorlik faoliyati, muayyan natijalar (daromad, foyda olish)ga erishish maqsadidagi iqtisodiy faoliyat. Biznes umumiy iqtisodiy atama bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyat sohalari va iqtisodiy

manfaatlari (qishloq xo'jaligi, savdo, bank va boshqa sohalar), (kichik, o'rta, xususiy, yirik biznes) va boshqalar tushuniladi.

2) Bitimlar, savdo operatsiyalari; 3) Ishbilarmonlik hayoti va doiralari, boshqa sohalar (madaniyat, maorif, siyosat va boshqlar)dagi hayot faoliyatidan farq qiluvchi iqtisodiy hayot faoliyati; 4) Kompaniya, korxona, iqtisodiy sub'ekt. Tadbirkorlikning u yoki bu sohadagi faoliyatini aks ettiruvchi ibora.

Bond (inglizcha bond) — tovarning bojxona to'lovlari to'lanmasdan oldingi holati.

Byudjet — 1) qonunchilik yo'li bilan tasdiqlangan va muayyan muddatga mo'ljallangan davlat daromadlari va xarajatlari ro'yxati; 2) davlat, korxona yoki fuqaroning muayyan davrda kutilayotgan daromadlari va xarajatlari.

V

Vakillik — yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakat. Unga ko'ra bir shaxs (vakil) o'ziga berilgan vakolatga muvofiq boshqa(uchinchi) shaxslar bilan vakil qiluvchi nomidan hamda uning manfaatlari yo'lida harakat qiladi. Ishonchnomaga, qonunga, sud qarori yoki tegishli davlat organi bergan hujjatga asosan vakillik qilish hollari uchraydi.

Moliyaviy munosabatlar sohasida, ayniqsa, qimmatli qog'ozlar bozorida yuridik va jismoniy shaxslar nomidan vakillik qilish keng qo'llaniladi. Vakilning vakolatlari doirasi, uning mas'uliyati, vakolatnomaning bekor bo'lishi asoslari va oqibatlari qonunchilik hujjatlarida belgilab qo'yiladi.

Vakolatxona — yuridik shaxsning turgan joyidan tashqarida joylashgan, uning manfaatlarini ifodalovchi va bu huquqlarni himoya qiluvchi ayrim bo'linma.

Agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, vakolatxona yuridik shaxs hisoblanmaydi. Vakolatxona uni tashkil etgan yuridik shaxs tomonidan mol-mulk bilan ta'minlanadi hamda tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat yuritadi. Vakolatxonaning rahbari berilgan ishonchnoma bo'yicha ish olib boradigan yuridik shaxs tomonidan tayinlanadi. Amaldagi qonunchilikda bank muassasalarining chet ellarda o'z vakolatxonalarini tashkil etishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Vaqtinchalik qiymat — buyumning haqiqiy qiymatiga nisbatan auksionda belgilangan bahoning ortib ketishi.

Vaqtinchalik qoidalar — davlat boshqaruv idoralari tomonidan chiqariladigan, muayyan iqtisodiy yoki boshqa munosabatlarni bu haqida maxsus qonunlar qabul qilinguniga qadar huquqiy jihatdan tartibga solishni ko'zlovchi muvaqqat me'yoriy hujjatlar. Moliya va kredit munosabatlari sohasida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy banki, shuningdek, O'zR Davlat Soliq qo'mitasining u yoki bu masalalarga oid vaqtinchalik qoidalari qabul qilinadi. Ushbu masalada asosiy huquqiy akt ishlab chiqilishi va qabul qilinishi bilan vaqtinchalik qoidalarning amal qilishi to'xtatiladi.

Veksel — qimmatli qog'ozlarning bir turi bo'lib, unga muvofiq qarzdor, veksel beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsning vekselida ko'rsatilgan pul summasini muddatida kreditor, veksel sohibiga so'zsiz ravishda to'lash yuzasidan majburiyati

guvohlantiriladi. Vekselning quyidagi turlari mavjud: 1) oddiy, ya'ni unda qarzdorning muayyan summadagi pulni ko'rsatilgan muddat va joyda, kimga va kim tomonidan to'lanishi lozimligi haqidagi oddiy hech qanday shartsiz va'dasi aks ettirilgan bo'lib, veksel to'ldirilgan vaqti va joyi ko'rsatilgan holda veksel beruvchining imzosi bilan tasdiqlanadi; 2) ko'chiriladigan (tratta), ya'ni trassant deb yuritiluvchi kreditorning ikkinchi bir trassat deb yuritiluvchi qarzdor bergan oddiy, hech bir shartsiz ko'rsatmasi bo'lib, unga muvofiq trassat vekselde ko'rsatilgan pul summasini uchinchi bir shaxsga (veksel taqdim etuvchi, remitentga) to'lab yuborishi lozim bo'ladi; 3) tijorat (savdo) vekseli — savdo bitimlarini tuzish paytida tovarlarni garovga olish evaziga to'lov hujjati yoki qarz majburiyati tarzida beriladigan qimmatli qog'oz; 4) bank vekseli — mamlakat banki tomonidan chet el bankiga taqdim etiladigan; 5) xazina vekseli — davlat tomonidan o'z xarajatlarini qoplash maqsadida chiqariladigan veksel turi. Bozor munosabatlari qaror topa borishi bilan bizning mamlakatimizda ham veksel to'lov hujjati va qimmatli qog'oz sifatida keng qo'llanila boshlandi. Vekselning qo'llanilishi tijorat kreditining rivojlanishiga, to'lov intizomiga amal qilinishiga, xalq xo'jaligida naqd pulsiz hisob-kitob ishlarining osonlashuviga yordam beradi. O'zbekistonda vekselning qimmatli qog'oz va to'lov vositasi sifatidagi huquqiy holati O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar va fond birjalari haqida»gi va «Qimmatli qog'ozlar bozori mexanizmini tartibga solish to'qrisida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan belgilab qo'yilgan. Vekselning mamlakat iqtisodiy muomalasidagi samarasi va ahamiyatini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 19 martda «Mamlakatda veksel muomalasini tartibga solish choralari haqida»gi Farmoni chiqarilgan.

G

Garov — biron bir yuridik yoki jismoniy shaxsning boshqa bir shaxsga mol-mulkini yoki unga bo'lgan huquqini majburiyatlarni ta'minlash uchun unga berib qo'yish. Bunga ko'ra qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatlarini bajarmagan taqdirda kreditor (qarz beruvchi, ya'ni garovga oluvchi) bu majburiyat bo'yicha o'z talablarini garov mulk qiymati hisobidan boshqa kreditorlarga nisbatan imtiyozli suratda qanoatlantirishga haqli bo'ladi. Garovga oluvchi o'ziga topshirilgan mulk uchun javobgar sanaladi.

Garov shartnoma yoki qonunga asosan yuzaga keladi. Garov zaklad, ipoteka yoki huquqlarni garovga qo'yish tarzida amalga oshishi mumkin. Garovga qo'yuvchi va garovga oluvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shartnoma hamda qonun aktlari asosida tartibga solinadi.

Garov shartnomasi — yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida tuziladigan fuqaroviy bitimlarning bir turi. Ushbu shartnomaga ko'ra garovga qo'yuvchi o'z boshqaruvidagi muayyan mulkni yoki mulkiy huquqni majburiyatning bajarilishini ta'minlash vositasi sifatida garovga oluvchiga topshirishi lozim bo'ladi. Garov shartnomasi o'zaro bitim tuzilganligini tasdiqlash va uning bajarilishiga kafolat berish maqsadida tuziladi.

Garov shartnomasiga oid qonunlar O'zbekiston Respublikasining «Garov haqida»gi qonunida belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, ko'chmas mulklar va ularga bo'lgan huquqlarni, muomalada va qayta ishlanishda bo'lgan mahsulotlarni garovga qo'yishga oid, shuningdek, chet el yuridik va jismoniy shaxslari ishtirok etadigan garov shartnomalari notarial tasdiqlanadigan tarzda tuzilishi hamda O'zbekiston Adliya vazirligi va uning mahalliy tashkilotlari tomonidan davlat ro'yxatiga olinishi lozim bo'ladi. Garov shartnomalarini davlat ro'yxatiga olish tartiblari va shartlari O'zR Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 1 fevraldagi 50-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Garov shartnomalarini davlat ro'xatidan o'tkazish haqidagi vaqtinchalik Nizom»da belgilangan. Bunday tartibning belgilanishi davlat va boshqa yuridik va jismoniy shaxslar huquqlari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Garov shartnomalari bank kreditlari berish paytida ko'p tuziladi.

D

Dalolatnoma — muayyan dalil faktning yuz berganligini tasdiqlash maqsadida tuziladigan yuridik hujjat bo'lib, huquqlar va majburiyatlar vujudga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Odatda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik harakatlari, moliyaviy va boshqa nazorat natijalari to'qrisida hamda boshqa hollarda dalolatnoma tuziladi. Dalolatnoma tuzish tartibi, uning mazmuni va unga qo'yiladigan talablar qonuniy aktlarda belgilab qo'yiladi.

Debitor — korxona, muassasa, tashkilotdan qarzdor bo'lib qolgan yuridik yoki jismoniy shaxs. Xo'jalik amaliyotida olingan mahsulot uchun pul to'lamagan, veksel yuzasidan to'lovni amalga oshirmagan veksel beruvchi shaxs, tijorat kreditini olib, to'lovni amalga oshirmayotgan tashkilot va boshqalar.

Debitorlik qarzi — xo'jalik yurituvchi sub'ekt sanaluvchi yuridik shaxsning etkazib berilgan mahsulot, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat uchun boshqa tashkilotlar zimmasida bo'lgan haqi, boshqa tashkilotlardan undirib olinishi lozim bo'lgan pul summasi. Korxonalar tomonidan debitorlik qarzlarini o'z vaqtida undirib olish choralarining ko'rilmassligi qonunda ko'zda tutilmagan talab qilish va da'vo qo'zqash muddatlarining o'tib ketishiga, boshqa tashkilotlardan olinishi lozim bo'lgan mablag'larning undirilmassdan qolib ketishiga, oqibatda korxona xo'jalik-moliyaviy faoliyatiga jiddiy zarar etishiga, eng muhimi, xalq xo'jaligida hisob-kitob ishlarining izdan chiqishiga, mamlakatda moliyaviy barqarorlikning buzilishiga olib keladi. Bunday salbiy holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida O'zR Prezidentining 1995 yil 12 maydagi «Xalq xo'jaligida hisob-kitoblar o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxona va tashkilotlar rahbarlarining ma'suliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to'qrisida»gi Farmoni qabul qilingan bo'lib, unga muvofiq o'zaro hisob-kitob shartlarini buzgan, muddati o'tib ketgan debitorlik qarzining mavjud bo'lishiga yo'l qo'ygan korxona rahbarlari va bosh hisobchilarning huquqiy javobgarliklari belgilab qo'yilgan.

Depozit — 1) fuqarolar yoki korxonalar tomonidan pul yoki qimmatli qog'ozlarni banklarda saqlash uchun shartnoma asosida omonat qo'yilishi. Depozit mablag'lar banklar ssuda fondi vujudga kelishining manbalaridan biri sanalib, kreditlar berish, faktoring operatsiyalarini amalga oshirish, investitsiya

maqsadlarida qilish uchun foydalaniladi, shu sababli depozit banklar tomonidan to'lanadi. Depozit muddatli va talab qilib olingunga qadar qo'yiladigan turlarga bo'linadi.

2) Birjadagi kafolatli, dastlabki zaklad, fyuchers kontraktlari umumiy qiymatining oldindan kelishilgan, birja hisob palatasi a'zosi tomonidan to'lanadigan, mijoz tomonidan esa brokerga to'lanadigan pul summasi. Depozit odatda fyuchers kontrakti umumiy qiymatining 2-10 foizini tashkil etadi.

I

Iqtisodiy makon — muayyan davlatlararo hudud. Iqtisodiy makon iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning birligini yoki loaqal o'zaro o'xshash xususiyatlari bilan yaqinligini taqozo etadi. YAgona iqtisodiy makon ishlab chiqarish kuchlari va vositalari taraqqiyotini bir xil darajada tutish, yagona iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar bilan qamrab olinganligi, ko'zlangan taraqqiyot usullari va maqsadlarining umumiyliigi bilan xarakterlanadi.

Tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy omillar bilan bir-biriga boqlangan davlatlar o'zaro kelishgan holda kuch va imkoniyatlarini birlashtirish yo'li bilan o'z imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishga intiladilar. O'zaro yaqinlikni, yagona iqtisodiy makon mavjudligini bahona qilib mustamlakachi davlatlar tomonidan o'z sobiq mustamlakalari ustidan iqtisodiy, keyinchalik esa siyosiy huquqlarini qayta tiklashga urinish hollari ham tarixda ma'lum.

K

Kassa operatsiyalari — naqd pul mablag'larini qabul qilib olish, saqlash va tarqatishga oid moddiy texnikaviy tartib qoidalar. Ushbu qoidalar maxsus moliyaviy va bankka oid me'yoriy hujjatlar asosida belgilanadi va tartibga solinadi. Davlat tomonidan qanday sub'ektlarga taalluqli kassa operatsiyalari tartibga solinishiga ko'ra: a) banklar va boshqa kredit muassasalarida amalga oshiriladigan kassa operatsiyalari; b) korxona, tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan kassa operatsiyalari hamda v) tovarlar, xizmatlar, ishlar uchun aholidan bevosita pullarni qabul qilish bilan shug'ullanuvchi korxonalardagi kassa operatsiyalari. Kassa operatsiyalarini amalga oshirish tartiblarini davlat yo'li bilan belgilab qo'yilishi davlat va pul muomalasi ishtirokchilari manfaatlarini o'zaro uyqunlashgan holda muhofaza qilish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlariga ko'ra korxonalar o'rtasidagi hisob-kitoblar faqat naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi hamda naqd pul muomalasi qat'iy cheklangan doiralarda amalga oshirilishi mumkin.

Kassa operatsiyalari to'qrisidagi qoidalarni buzish moliya intizomini qo'pol tarzda buzilishi deb baholanadi va aybdor mansabdor shaxslarning huquqiy javobgarligiga sabab bo'ladi.

Kassa rejasi — xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning muayyan davr (yil, kvartal, oy) davomida naqd pul tushumlarini va ish haqi hamda boshqa maqsadlar uchun xarajatlarini oldindan tahmin qilish asosida belgilanishi. Kassa rejasining vaziyatni aniq aks ettirishi va korxonalar tomonidan bajarilishi mamlakatda naqd pul muomalasini samarali tarzda tartibga solish, pul emissiyasini jilovlash, inflyasiya

sur'atlarini pasaytirish imkonini beradi. Kassa rejalarining bajarilishi aholi turmush darajasi bilan mustahkam bog'liqdir.

Klient, mijoz — korxona bilan savdo yoki boshqacha aloqalarda bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs: sotuvchi, xaridor, vositachi va b.

Kliring — hisob-kitob munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning o'zaro hisobga o'tkazilishiga asoslangan naqd pulsiz hisob-kitob tizimi. Xalqaro hisob kitoblarda valyuta kliringi, mamlakat ichkarisida banklararo kliring qo'llaniladi. Komissioner komitent bilan tuzilgan maxsus bitim asosida uning topshiriqiga ko'ra vositachilik qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs (komissioner yoki vositachi), tovar bozorida tovarlarni sotish yoki olish, ayirboshlash bilan shug'ullanadi. Komissioner yoki vakilning daromadi vositachilik foizidan iborat bo'ladi. Komissioner yoki vositachilik xizmati ko'rsatish yuzasidan shartnomalar tuzish, ijro qilish, tomonlar huquq va majburiyatlariga oid masalalar Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

Kompensatsiya tovon haqi (lotincha *sompensatio*) — qoplash so'zidan olingan bo'lib, bir majburiyatni unga teng bo'lgan boshqa majburiyat hisobiga o'tkazish yoki qoplash yo'li bilan ijro etish. Birjalarda kompensatsiya deganda tovarlar yoki kontraktlarni sotib olishda o'zaro bitimlarning tartibga solinishi nazarda tutiladi.

Kontrakt — tovar yoki xizmatlar bo'yicha oldi-sotdi shartnomasi.

Kontrakt, birja kontrakti — tovar birjalarida tuziladigan oldi-sotdi bitimlari. Birja kontraktlari, odatda, standartlashtirilishi darajasiga ko'ra: a) vyuchers kontraktlari b) real tovarlar bo'yicha birja kontraktlari kabi turlarga bo'linadi.

Kredit — boshqa shaxsga pul mablag'lari, tovarlar va boshqa boyliklarni ma'lum muddatga, qaytarish sharti bilan, foizlar hisobida haq olish evaziga vaqtincha topshirish. Xo'jalik muomalasida bank krediti hamda tijorat krediti keng qo'llaniladi.

a) bank krediti — bank tomonidan o'z mijoziga ma'lum muddatda, qaytarilish sharti bilan mijoz bilan kelishilgan haq evaziga beriladigan qarz.

Bank krediti manbai banklar tomonidan jalb etiladigan mablag'lar hisoblanadi. Bank krediti o'z muddatlariga ko'ra: qisqa (1 yilgacha), o'rta (1-3 yilgacha) va uzoq (3 yildan ko'pga) muddatli bo'lishi mumkin. Bank bilan uning mijozi o'rtasidagi kredit bitimi agar olinayotgan mablag'lar investitsiya maqsadlariga sarflanadigan bo'lsa bir yil yoki undan uzoqroq muddatga, boshqa maqsadlarga (vaqtinchalik ehtiyojni qondirish, aylanma mablag'lar o'rnini to'ldirish va hakoza) berilayotganida esa qisqa muddatlarga tuziladi. Tovlar moddiy boyliklari yuzasidan ushbu tovar moddiy boyliklar yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar garovi berilayotgan kreditlar deb hisoblanadi va shuning evaziga beriladi.

Kredit olayotgan korxona bankka buxgalteriya balanslarni hamda kredit evaziga olingan tovar moddiy boyliklarning mavjudligi haqidagi buxgalteriya ma'lumotlarini taqdim etishi lozim. Bank krediti, shuningdek, ko'chmas mulklar garovi evaziga ham beriladi. Qarz oluvchining etarli darajada ishonchli emasligi sababli uchinchi shaxslar yoki davlat kafolati asosida ham bank krediti berilishi mumkin.

Kredit, tijorat krediti — korxonaga vaqtincha bo'sh mablag'lari bo'lgan boshqa korxona tomonidan vaqtincha, qaytarilishi sharti bilan va haq evaziga beriladigan qarzi. Tijorat krediti, odatda, kundalik hisob operatsiyalari uchun va boshqa maqsadlarda ham ishlatilishi mumkin.

Kredit bitimi — kredit berish haqida tuzilgan shartnoma. Unda beriladigan kredit summasi, berish tartibi va muddati, olinadigan foizlar, kredit berish va qaytarilish shartlari, taraflarning javobgarligi, ularning rekvizitlari belgilab qo'yiladi.

Kreditorlik qarzi — xo'jalik yurituvchi sub'ektning boshqa korxona, tashkilotlar, jismoniy shaxslardan olgan tovarlari, ko'rsatilgan xizmatlar, bajarib berilgan ishlar uchun ular oldidagi qarzi. Kreditorlik qarzining mavjudligi, uni to'lash muddatlarining o'tkazib yuborilganligi aybdor shaxslarga huquqiy jazo qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

Kredit kartochkasi — bank yoki boshqa ixtisoslashgan kredit muassasasi tomonidan chiqarilib, tegishli kreditlar muassasasidagi hisob raqamida muayyan summadagi pul mablag'i mavjudligini tasdiqlaydigan pul hujjati. Kredit kartochkasi naqd pul to'lovizsiz tovarlar olish va xizmatlardan bepul foydalanish huquqini beradi. O'zbekistonda «VISA» va boshqa kredit kartochkalari muomalaga kiritilgan.

L

Libor (inglizcha LIBOR-London Interbank offered Rate) — London banklari tomonidan evrovalyuta bozorida birinchi klass banklariga ssuda berilayotganida oladigan foizning o'rtacha stavkasi. Libor valyuta turiga va ssuda berilishi muddatiga ko'ra (1, 3, 6, 12 oy) tabaqalashtirilgan bo'ladi. Liborning rasmiy ko'rsatkichi qayd etilmaydi, uni evrovalyuta bozorida operatsiyalarni amalga oshiruvchi har bir yirik bank bozorida shakllangan talab va taklif asosida belgilaydi yoki o'zgartiradi.

Evrovalyuta bozorining rivojlana borishi bilan liborga o'xshash stavkalar Parijda (Pibor), Singapurda (SIBOR), Quvaytda (QIBOR), Lyuksemburgda (LYUKSIBOR) va boshqa joylarda ham paydo bo'ldi.

«Lidz END LEGZ» (inlizcha — leds anl leads) – moliyaviy yoki boshqa shaklda foyda olish maqsadida hisob kitob qilish muddatlarini boshqarish, pul to'lashni tezlashtirish yoki cho'zish. «Lidz EED LEGZ» mamlakat ichkarisida ham, tashqi iqtisodiy munosabatlarda ham qo'llaniladi.

Lizing — turli texnika vositalari, binolar, inshootlarni o'rtacha muddatga yoki uzoq muddatga ijaraga berish. Bu uch tomonlama bitimga ko'ra amalga oshiriladi: lizing firmasi (arendaga beruvchi) o'z mijosi (ijaraga oluvchi) tanlovi bo'yicha muayyan mulkni tayyorlovchi (mulk egasi) ham sotib oladi va ijaraga oluvchi ixtiyoriga topshiradi. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar lizing bitimi bilan tartibga solinadi. Bunday bitimda uning muddati, summasi, ijara haqi miqdori, to'lovlarning amalga oshirish muddatlari, shartnoma muddati tamom bo'lgan mulkning qoldiq qiymati, mulkni ijaraga oluvchi tomonidan tayyorlanadigan mulk egasidan qabul qilib olish bayonnomasi, mulkni Sug'urtalash masalalari ko'zda tutiladi.

Lizingdan foydalanish ayniqsa kichik va o'rta tadbirkorlik sub'ektlariga katta mablag' sarflamagan holda qimmatbaho texnika vositalari, binolar, inshootlarni qo'lga kiritishlariga imkon beradi.

Lizingga oid bitim tuzish, ijro qilish va bunday kontrakt shartlarini buzilishi tufayli yuz beradigan javobgarlik masalalari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, «Ijara to'qrisidagi» qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan huquqiy tartibga solinadi.

Lizingning xalqaro, operativ va moliyaviy lizing kabi ko'rinishlari uchraydi.

Litsenziya — ruxsat berish: 1) patent egasi tomonidan foydalanish uchun muayyan haq evaziga ma'lum muddatga ruxsat berishlik;

2) mahsulotlarni eksport yoki import qilish uchun davlat organlaridan olinadigan yozma ruxsatnoma;

3) yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan faoliyatning muayyan turlari bilan shug'ullanish uchun (masalan, tibbiy xizmat, yuridik xizmat va hakoza) davlatning vakolatli organlariga belgilangan tartibda murojaat qilish yo'li bilan olinadigan maxsus ruxsatnoma.

M

Marja (inglizcha margin, frantsuzcha marge) — 1) ikki muayyan ko'rsatkich (sotuvchi va xaridor narxi) o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi qiymat; 2) banklarda beriladigan kredit foiz stavkalari bilan qo'yiladigan omonatlarga to'lanadigan foizlar o'rtasidagi farq; 3) qimmatli qog'ozning bozor bahosi bilan uning ustidan olingan ssuda o'rtasidagi farq; 4) sanoat korxonalari tomonidan qo'yiladigan savdo ustamasi; 5) birjada — hisob palatasida broker tomonidan yoki brokerga mijoz tomonidan narxlarning noqulay o'zgarishi tufayli to'lanadigan pul summasi; 6) ba'zan depozit ma'nosida ham ishlatiladi.

Markaziy bank — O'zbekiston Respublikasining davlat banki. Uning bosh maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlash. Asosiy vazifalari monetar siyosat hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish, samarali hisob-kitob tizimini tashkil etish va ta'minlash; banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish; respublika oltin valyuta rezervlarini, shu jumladan, hukumat rezervlarini saqlash va tasarruf etish; davlat byudjetining kassa ijrosini tashkil etish kabilar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki faoliyati 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'qrisidagi» qonuni bilan tartibga solinadi. Mazkur qonun Markaziy bankning yuridik shaxs sifatidagi huquqiy maqomini, mol-mulki, tashkiliy-tarkibiy tuzilishini, unga yuklatilgan asosiy funksiyalarni nazarda tutadi.

Moddiy javobgarlik — mehnat shartnomasiga ko'ra yollanib ishlayotgan xodimni o'z aybi bilan korxonaga etkazgan mulkiy zarari uchun mehnat qonunlarida belgilangan tartibda, shartlarda va hajmlarda moddiy javobgar bo'lishi. Amaldagi mehnat qonunlarida xodimlarning cheklangan (Mehnat kodeksining 201-moddasi) va to'la (MKning 202-moddasi) moddiy javobgarliklari nazarda tutilgan.

Xodimga etkazilgan zarar ish beruvchining javobgarligi ham moddiy javobgarlik hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi MKning 187—197-moddalari).

N

Nostro (inglizcha *nostro account*) — bankning chet eldagi barcha xarajat va daromadlarning hisob kitobini olib boradigan o'z xorijiy korrespondenti — bankdagi hisob raqami.

Nou-Xau — mahsulot ishlab chiqarishni osonlashtiradigan va tezlashtirilishiga yordam beradigan texnikaviy bilimlar, texnik tajriba, ishlab chiqarish siri. Nou-Xau ixtiro sifatida patentlanishi mumkin emas va shu sababli patent himoyasi predmeti hisoblanishi mumkin emas.

Nau-Xau firma mulki sanaladi va shu tufayli oldi-sotdi predmeti bo'lishi mumkin. Nou Xau patent himoyasidan foydalanmasligi tufayli uni bir shaxsdan boshqasiga o'tkazilishida uning maxfiyligi va bu talabni buzganlik uchun qo'llaniladigan sanksiya kelishuvining asosiy shartini tashkil qiladi.

Neustoyka (aybona) — o'z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taraf ikkinchi tarafga shartnoma asosida yoki qonunga ko'ra to'lashi lozim bo'lgan pul summasi. SHartnoma va qonun asosidagi neustoykalar mavjud.

O

Overdraft (inglizcha *overdraft*) — bank muassalari tomonidan qo'llaniladigan qisqa muddatli kredit berish. Dastlab Angliyada qo'llanilgan Overdraftning mohiyati shundaki, bank o'z mijoziga uning joriy hisob raqamidagi qoldiq pul summasidan ko'proq mablag' yuzasidan cheklar bilan to'lovlarni amalga oshirish huquqini beradi.

Overdraft bank bilan mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan qo'llaniladi va unda bank oldida hosil bo'lgan qarzni qoplash muddati olinadigan foizlar ko'rsatib qo'yiladi.

P

Paychi — 1) birgalikdagi u yoki bu loyihaga o'z mablag'lari, mulki yoki boshqa boyliklarini qo'shish orqali ushbu loyiha ishtirokchisi bo'layotgan jismoniy yoki yuridik shaxs; 2) jamiyat (aktsiyali jamiyat) ishtirokchisi.

Penya — turli moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmagan shaxslarga qo'llaniladigan jazo (sanksiya). Kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanmagan qarz summasiga nisbatan muayyan foizlarga qo'llaniladi.

Praym reyt (inglizcha *prim rate*) — kafolatlanmagan qisqa muddatli qarzlar bo'yicha belgilanadigan eng kam foiz stavkasi. Bu stavka amerika tijorat banklari tomonidan eng ishonchli qarz oluvchilarga nisbatan qo'llaniladi.

Pul (inglizcha *pool*) — kartellarning alohida turi, unga ko'ra barcha ishtirokchilar olgan foyda umumiy jamqarmaga to'lanadi va keyinchalik oldindan belgilangan proportsiyalar bo'yicha qayta taqsimlanadi.

R

Royalti — 1) litsenziya kelishuviga muvofiq litsenziar foydasiga to'lanadigan mukofot puli. Bu pul litsenziya asosida ishlab chiqarilgan tovarlardan olingan foydaning ma'lum hissasi sifatida muntazam ravishda to'lab boriladi.

2) Tabiiy resurslarni qayta ishlash, ularni qazib olish huquqi uchun to'lanadigan haq.

S

Sanktsiyalash — yirik korxonalar va moliyaviy halokatning oldini olishga qaratilgan davlat sog'lomlashtirish tadbirlarining majmui. Bunday moliyaviy soqlomlashtirish tadbirlari qatoriga: davlat qarzlarni kechib yuborish, byudjet hisobidan dotatsiya berish, byudjetga to'lovlar muddatini uzaytirish (prolongatsiyalash), soliqlardan ozod qilish, imtiyozli kreditlar berish, foydalanilmayotgan mol-mulkarni sotish kabi choralar kiradi.

Siving (Swing) — tomonlar o'rtasidagi avtomatik tarzda o'zaro kreditlashning eng ko'p miqdori. O'zaro tovar aylanishi hajmining muayyan foizlar miqdorida belgilanishi. Siving hajmidan ortiqcha tovar muomalasi qo'shimcha mahsulotlar etkazib berish yo'li bilan qoplanadi yoki erkin muomaladagi valyuta to'lash yo'li bilan hisob-kitob qilinadi.

Sertifikat — u yoki bu narsa (buyum, hujjat)dan foydalanish, unga egalik qilish huquqiga egalikni tasdiqlovchi guvohnoma. Qo'llanilish sohalariga ko'ra: a) Maxsus davlat qimmatli qog'ozlariga egalikni, Sug'urta shartnomasi tuzilganligini tasdiqlovchi hujjat sertifikat; b) mahsulot sifatini tasdiqlovchi sertifikat; v) auditorlik sertifikati, ya'ni e'lon qilingan auditorlik balansining to'qriligini tasdiqlovchi hujjat; g) hisob-kitob sertifikati; d) garov sertifikati; e) mulklarni muayyan qismiga egalik huquqi haqidagi sertifikat; j) aktsiyadorlik sertifikati. Boshqa ko'plab turdagi sertifikatlar ham mavjud.

T

Tender (inglizcha tender) — 1) savdolar o'tkazilishi paytidagi takliflar. Tender qoida tariqasida belgilangan muddatda, yashirin ravishda taqdim etiladi; 2) fyuchers birjasida mahsulot etkazib berishdagi nosis.

Transfert (frantsuzcha transfert) — 1) yozma ravishdagi ko'rsatma bilan mablag'ni ko'chirish, bankning o'z korrespondentiga muayyan summadagi mablag'ni transfertda ko'rsatilgan shaxsga berib yuborish to'qrisidagi buyruqi; 2) muayyan pul summasini hisob raqamidan ikkinchisiga ko'chirilishi, o'tkazilishi; 3) egasi ko'rsatilgan aktsiyani bir shaxsdan boshqa shaxsga o'tkazilishi va uni aktsiyali jamiyatning maxsus jurnalida qayd etilishi; 4) Pul mablag'larini bir moliyaviy muassasadan boshqasiga ko'chirilishi; 5) chet el valyutasi yoki oltinni bir mamlakatdan boshqasiga ko'chirilishi.

Trassant (nemischa Trassant) — veksel muomalasidagi kreditor. Trassant ko'chiriladigan veksel chiqaradi va uni imzolaydi. Ushbu veksel bo'yicha trassat unda ko'rsatilgan summa pulni uchinchi shaxslarga — remitentlarga belgilangan muddat ichida to'lashi lozim bo'ladi.

Trassat (nemischa Trassat) — veksel muomalasidagi qarz oluvchi. Trassat trassant tomonidan va imzolanadigan ko'chiriladigan veksel (tratta)da ko'rsatilgan summani belgilangan muddatda uchinchi shaxs (remitent)ga to'lashi lozim bo'ladi.

Trast (inglizcha trust) — 1) xo'jalik va boshqa sohalarda ishlarni yuritish uchun berilgan vakolatnoma. Bank muomalasi sohasida trast operatsiyalari odatda

banklar tomonidan amalga oshiriladi; 2) birlashma, fondlar ishbilarmonlik trasti, ommaviy trast va boshqalar mavjud.

Tratta — ko'chiriladigan veksel.

F

Faktoring — moliyaviy-kredit xizmati turlaridan biri. Unga ko'ra korxonalarning ularga etkazib berilgan mahsulot (bajarilgan ish, xizmat) uchun to'lashlari lozim bo'lgan pul majburiyatlarini o'tash banklar zimmasiga olinadi va mahsulot etkazib berilgach va tegishli to'lov hujjatlari taqdim etilishi bilan ularning haqi banklar tomonidan to'lab yuboriladi. Kelgusida qarzlarning mijoz tomonidan bankka qaytariladi.

Bank muassasasi o'z mijozlariga faktoring xizmati ko'rsatganligi uchun kelishilgan miqdorda foiz haqi oladi.

Filial (lotincha filialis o'qillik) — muayyan tashkilotning (yuridik shaxsning) tarkibiy qismi hisoblanuvchi tashkilot bo'lib, uni tashkil etgan yuridik shaxsning ayrim yoki barcha vakolatlarini boshqa hududda amalga oshirish bilan shug'ullanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik aktlarida filial ochish va uning faoliyatini boshqarishning huquqiy tartiblari belgilab qo'yilgan.

Fors-major — engib bo'lmas kuchlar yuz berishi bilan bog'liq holat, shartnomaning shu haqdagi qoidalarni ko'zda tutuvchi xolatlar. Bunda majburiyatning ijro etilishi kechiktiriladi yoki bu majburiyat tomonlar javobgar bo'lmaganlari holda butunlay barham topadi.

Fors-major holatlari uzoq davom etadigan (udumlar, eksport-import taqiqlari, davomli tabiiy ofatlar va boshqalar) yoki qisqa muddatli (yonqin, suv toshqini, navichatsiyani yopilishi va hokozolar bo'lishi mumkin. Fors-major tufayli etkazilgan zararni hech qaysi taraf qoplashga majbur emas va qoplanishini talab qila olmaydi. Fors-major hodisalar ro'yxati shartnomada nazarda tutilishi yuz berganda esa betaraf tashkilot tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Forveyting (frantsuzcha a forfait yaxlit, umumiy summa) — savdo operatsiyalarini kredit bilan ta'minlashning o'ziga xos shakli. Unga ko'ra tovar uchun berilgan va xaridor tomonidan aktsentlangan veksellarni tovar sotuvchidan sotib olinadi, sotuvchi sotgan tovari uchun pul olish bo'yicha o'z talablarini vekselni sotib olgan kredit muassasasiga o'tkazadi. Sotuvchiga mahsulot bahosi muayyan foiz ushlab qolingani holda darxol va to'la hajmda to'lanadi. Xaridor esa odatda olti oy davomida kredit muassasasi bilan hisob-kitob qiladi. Forveyting sotuvchi debitorlik qarzlarning kamaytirilishiga, moliyaviy ahvolning yaxshilanishiga yordam beradi.

Ch

Chek (inglizcha cheque) — 1) Chek qimmatli qog'ozlarning bir turi bo'lib, uni imzolagan shaxs hisob summasini berib yuborishi haqida bank muassasiga berilgan topshiriqni aks ettiruvchi maxsus hujjatdir. Cheklar chek daftari shaklida qo'llanilib, naqd pulsiz hisob-kitob shakllaridan biri sanaladi.

Chek qonuniy to'lov vositasi sanalmaydi, majburiy davlat kursiga ega emas va o'zaro shartnoma munosabatlarida to'lov vositasi sifatida majburiy tarzda qabul qilinishi shart emas; 2) sotib olingan tovar uchun kassa tomonidan to'langan pul

summasi ko'rsatilgan hujjat; 3) bozorlarda sotuvchilar tomonidan bozor xizmatidan (joy haqi) foydalanganlik uchun pul to'langanligi haqidagi hujjat, patta.

Chegirma (skidka) — tuzilgan shartnomalarga muvofiq tovar (ish, xizmat) dastlabki bahosining kamaytirilishi. Tomonlar kelishuviga ko'ra, muayyan foyda olish imkonini vujudga keltirish maqsadida qo'llaniladi. Chegirmalarning quyidagi turlari uchraydi: oddiy, murakkab, ulgurji narxlar bo'yicha, dilerlik, bonusli, maxsus, naqd pul to'langanligi uchun, bitim shartlaridan chetga chiqilganligi uchun belgilanadigan va boshqa ko'rinishlari mavjud.

Chegirmalar muayyan ob'ektiv sharoitlar tufayli yuz berishi mumkin bo'lgan ortiqcha harajatlarni qoplash, hamkorlikni davom ettirishga raqbatlantirish, foyda olish imkonini berish maqsadlarida qo'llaniladi.

Sh

Shartnoma (kontrakt, bitim) — muayyan yuridik oqibatlar, uni tuzuvchi shaxslar uchun ma'lum huquqlar, majburiyatlar hamda javobgarliklar keltirib chiqarishga qaratilgan o'zaro kelishuv. Shartnomalar o'z shakliga ko'ra oqzaki yoki yozma bo'ladi. Oqzaki shartnomalar qonunda ko'zda tutilgan hollarda fuqarolar o'rtasida, ayrim hollarda fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasida tuziladi.

Yuridik shaxslar o'rtasida xo'jalik muomalasiga talluqli masalalarda tuziladigan shartnomalar albatta yozma bo'lishi, muayyan shartlarni, zarur rekvizitlarni nazarda tutishi lozim. Shartnomada uning tomonlari, tuzilayotgan vaqti-joyi, shartnoma predmeti, bahosi, umumiy qiymati, mahsulot (ish, xizmat) sifati, ijro etish usuli, hisob-kitob qilish tartibi, bajarmaganlik uchun javobgarlik choralari va boshqa masalalar ko'rsatilishi lozim. Shartnoma tegishli vakolatga ega bo'lgan shaxslar tomonidagina imzolanishi mumkin.

E

Eksport — muayyan mamlakatda ishlab chiqarilgan, tayyorlangan, etishtirilgan mahsulotning shu jumladan, boshqa mamlakatlardan avval keltirilgan tovarlarning boshqa mamlakatlarga chiqarilishi. Hozirgi paytda ish xizmat turlarini eksport qilish amaliyoti ham mavjud.

Umumiy, eksportni hisobga olish paytida mamlakatdan chiqarilayotgan barcha mahsulotlar, maxsus hisobga olishda esa bojxona hududi orqali o'tadigan mahsulotlar hisobga olib boriladi.

Eksportni amalga oshirish shartlari va tartiblari qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi eksportni raqbatlantirishga va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy siyosat yuritmoqda.

Emissiya — pul belgilari va qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish. Pul belgilari faqat davlat (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki) tomonidan muomalaga chiqarilishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar esa aktsiyali jamiyatlar, banklar va boshqa shaxslar tomonidan qonunda belgilangan tartibda muomalaga chiqarilishi mumkin.

Pul emissiyasi mavjud talabga mos bo'lishi lozim. Talabdan ortiqcha pul chiqarilishi pulning qadrsizlanishiga olib keladi. Qimmatli qog'ozlar emissiyasining maqsadi aholining bo'sh turgan pul mablag'larini sarmoyaga

aylantirish yo'li bilan ishlab chiqarishni rivojlantirish, davlat qarzlarini qoplashidan iborat.

Emitent — pul belgisi yoki qimmatli qog'oz emissiyasini amalga oshiruvchi sub'ekt.

Yu

Yuridik shaxs — fuqaroviy huquqiy munosabat ishtirokchilaridan biri, fuqarolik muomalasida ishtirok etuvchi korxona va tashkilotlarning huquqiy maqomi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 39-moddasida yuridik shaxs tushunchasi berilgan bo'lib, unga ko'ra xo'jalik yuritishda yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan, o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulklari bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki namunaviy ega bo'la oladigan hamda ularni amalga oshiradigan, majburiyatlarni o'tay oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotlar yuridik shaxs sanaladilar. Yuridik shaxslar tijorat tashkilotlariga va notijorat tashkilotlariga bo'linadi. Yuridik shaxslar nizomlariga asosan ish olib boradilar.

Ya

Yagona pul-kredit siyosati — davlat tomonidan amalga oshiriladigan ichki iqtisodiy siyosatning yo'nalishlaridan biri. Mamlakat miqyosida pul muomalasini samarali tartibga solish, milliy pul birligi qadrini oshirish, ichki bozorni himoya qilish, kreditlardan yuksak samarali foydalanishlikni ta'minlash, pul va kredit vositalarini iqtisodiy taraqqiyot yo'lida eng ko'p foyda beradigan tarzda ishga solishga qaratilgan tadbirlar majmui.

O'zbekiston Respublikasida yagona pul kredit siyosati Oliy Majlis, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ishlab chiqiladi hamda barcha davlat boshqaruv hamda hoqimiyat organlari, bank, kredit, muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Yashirin iqtisodiyot — noqonuniy yo'l bilan tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishi, iqtisodiy faoliyat kriminal tus olishi, jinoiy elementlar bilan qo'shilib ketishi. Jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun jiddiy xavf tuqdiradigan ijtimoiy voqelik. Yashirin iqtisodiyot tufayli moddiy, xom ashyo, mehnat va boshqa resurslarni nazoratsiz sarflanishiga, olinadigan daromadlarni soliqdan yashirib qolishning jinoiy yo'l bilan topilgan pul va boshqa boyliklarni «yuvilishiga», ya'ni haromni «halol» ko'rinishiga kiritishga imkon beradi. Yashirin iqtisodiyot natijasida olingan daromadlarni jinoiy maqsadlarda ishlatilishiga va boshqa, oqir oqibatlariga olib kelishi mumkin, shu sababli har qanday davlat yashirin iqtisodiyotga qarshi qat'iy kurash olib boradi.

Q

Qarz — jismoniy yoki yuridik shaxsning shartnomada ko'zda tutilgan yoki boshqa asoslarga ko'ra vujudga keluvchi majburiyati bo'lib, unga muvofiq qarzdor pul yoki tabiiy holdagi muayyan mulkni shartnomada yoki qonunda nazarda tutilgan muddatda ikkinchi tomon (jismoniy yoki yuridik shaxsga yoxud davlatga topshirishi lozim bo'ladi. Qarzga oid munosabatlar fuqaroviy — huquqiy shartnomalarning keng tarqalgan turi bo'lib, shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy, mulkiy munosabatlar sifatida fuqarolik qonunlariga binoan tartibga solinadi.

Qonun — davlat hoqimiyati oliy organi tomonidan qabul qilinadigan, oliy yuridik kuchga ega bo'lgan yuridik akt. Qonun huquqiy hujjat sifatida davlat va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga molik bo'lgan munosabatlar guruhini huquqiy tartibga solish tamoyillari va qoidalarini belgilab beradi.

Qarzni to'lashga qobiliyatsizlik — qarzdorning to'lov qobiliyatining yo'qolishi. Qarzdor yuridik shaxslarga nisbatan kreditorlarning talabi bilan yoki sudning tashabbusiga ko'ra uni singan (bankrot bo'lgan) deb topish haqida ish qo'zqatilishi, tugatish komissiyasi tuzilishi hamda uning mol-mulki hisobiga qarz undirilishi mumkin. Korxonalarni bankrot deb e'lon qilish tartibi, shartlari va oqibatlari amaldagi qonunchilikda belgilab qo'yilgan. Qarzdor o'z-o'zini bankrot bo'lgan deb e'lon qilishi mumkin.

Bankrotlik holatini yashirganlik yoki soxta bankrotlik e'lon qilganligi uchun jinoiy javobgarlik choralari belgilab qo'yilgan.

H

Xalqaro hisob-kitoblar — Tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashuvchi shaxslarning mamlakat hududidan chetga mahsulot (ish, xizmat) chiqargan yoki mamlakat hududiga olib kirgan mahsulot (ish, xizmat) uchun xorijiy sheriklari bilan amalga oshiradigan hisob-kitob operatsiyalari. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartiblari va shakllari xalqaro huquqiy me'yorlar hamda mamlakatning milliy qonunchiligi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdullaeva Sh.Z., «Bank ishi». O'quv qo'llanma. –T.: Moliya.2003
2. Abdullaeva Sh.Z., «Pul kredit va banklar» O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, «Moliya» nashriyoti,2000 y.
3. Balabanova I.T., “Banki i bankovskoe delo”, Ucheb posob. Piter, 2003.
4. Kolesnikov V.I., «Bankovskoe delo» Moskva, 4-izd. «Finansi i statistika», 2002g.
5. Jarkovskaya E.P. «Bankovskoe delo» Uchebnik.-M.: Omega-L.2004.
6. Lavrushina O.I., «Den'gi, Kredit, Banki» Moskva, izd. «Finansi i statistika» 2003g.
7. Lavrushina O.I., «Bankovskoe delo» Moskva, izd. «Finansi i statistika» 2003g.
8. Korobkova G.G. «Bankovskoe delo» Uchebnik. -M.: Economist-2004.

Qo'shimcha adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida» gi Qonuni, 1995 yil 21 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi Qonuni, 1996 yil 25 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining “Mikromoliyalash to'g'risida”gi Qonuni 2006 yil 15 sentyabr’.
4. O'zbekiston Respublikasining “Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida”gi Qonuni 2006 yil 20 sentyabr’.
5. O'zbekiston Respublikasining “Ipoteka to'g'risida”gi Qonuni 2006 yil 4 oktyabr’.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va islox qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni, 2000 yil 21 mart.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni 2006 yil 19 dekabr PF-3831-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Bank tizimini islox qilishga doir qo'shicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori, 2000 yil 24 mart.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Tijorat banklarining kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashish va rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi Qarori, 2000 yil 19 may.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “O'zbekiston Respublikasida elektron va naqd pulsiz to'lovlarni tashqil qilish bo'yicha me'yoriy xujjatlar to'plami”, Toshkent 1999 y.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Banklarning kredit va depozitlari bo'yicha foizlar hisoblash tartibi to'g'risida” gi Nizomi 1998 yil 2 dekabr.
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida”gi Nizomi, 1998 yil 2 dekabr.

13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari kapitalining etarligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi Nizomi, 1998 yil 2 dekabr.
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Banklarni ro'yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to'g'risida" gi Nizomi, 1999 yil 11 fevral.
15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ular bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish" Tartibi, 1999 yil 11 fevral.
16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talabalar to'g'risida" nizomi (o'zgartirishlar bilan) 2006 yil 6 sentyabr' 905-2-son.
17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida" gi nizomi (qo'shimchalari bilan) 2006 yil 19 iyul'.
18. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Mikrokredit tashkilotlari tomonidan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish qoidalarini tasdiqlash haqida" nizomi 2006 yil 23 noyabr' 1642-son.
19. O'zbekiston Respublikasi «Bank-Moliya tizimini takomillash-tirish va uni jaxon bozoriga integratsiyalashning dolzarb masalalari» mavzuidagi halqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari, 1999 yil 19 may O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya akademiyasi.
20. Tavasieva A. M. «Bankovskoe delo: upravlenie i texnologiya» ucheb.pos. – Moskva, 2002g.
21. Vinogradova T.N. «Bankovskie operatsii», ucheb.pos. Rostov na Donu. 2001.
22. Ilyasov S.M. «Ustoychivost bankovskoy sistemi: mexanizmi upravleniya i eginalnie osobennosti» ucheb.pos. M.: -Yuniti-Dana, 2001.
23. Abdullaeva Sh.Z., «Bank risklari va kreditlash» Toshkent «Moliya» nashriyoti 2002 y.
24. Raximov A.A., Bozorov SH. T. «Bank huquqi» o'quv qo'llanma T., 2000 y.
25. Piter Rouz «Bankovskiy Menejment» Moskva. Izd. «Delo». 1997 g.
26. Lavrushina O.I., «Osnovi bankovskogo menejmenta» Moskva, izd. «Infra-M» 1995g.
27. Lavrushina O.I., «Upravlenie deyatel'nosti kommerchekix bankov» Moskva, izd. «Infra-M» 2003g.
28. Mullajonov F., «O'zbekiston Respublikasi bank tizimi» - T. «O'zbekiston» nashriyoti, 2001y.
29. Eriashvili N. D., «Bankovskoe pravo» Moskva, izd. «YUNITI DANA» 2004 g.
30. Shirinskaya Z.G., Nestrova T.N., Sokolinskaya N.E., «Buxgalterskiy uchyot i operatsionnaya texnika v bankax» Moskva, Izd. «Perspektiva» 2003 g.
31. Bunyanov V. P., Alekseeva D.G. «Analiz normativnogo obespecheniya bankovskix raschyotov» Moskva, 2002g.

32. Sherbakov G. N. «Bankovskie sistemo' razvito'x stran» Moskva., 2001g.
33. Tojiev R. R., Jumaev N.X. «Markaziy bankning monetar siyosati» o'quv qo'llanma – Toshkent, 2002 y.
34. Raxmonov Sh., «Foiz xatarini baholash va boshqarish metodlari», «Bozor pul kredit» oynomasi 2004 yil mart.
35. Davidov U., «Bank likvidligini taxlil qilish masalalari», «Bozor pul kredit» oynomasi 2005 yil mart.
36. Sh. Toshmatov «Tijorat banklarida korporativ menejment rivoji», «Bozor pul kredit» oynomasi 2004 yil dekabr'.
37. A. Qodirov «Kredit berish mexanizmini takomillashtirish», «Bozor pul kredit» oynomasi 2004 yil iyun'.
38. U. To'xtaboev «Muammoli kreditlarning oldini olish», «Bozor pul kredit» oynomasi 2005 yil iyul'.
39. SH. Ermatov «Muammoli kreditlarni undirish masalalari», «Bozor pul kredit» oynomasi 2004 yil aprel'.
40. X. Raximov «Perspektivi platyojnoj sistemi Uzbekistana», «Bozor pul kredit» oynomasi 2004 yil aprel'.
41. «Markaziy bank pul-kredit va monetar siyosatining 2007 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari», «Bozor pul kredit» oynomasi 2007 yil yanvar'.
42. T. Umarov «Banklarda vakillik munosabatlari», «Bozor pul kredit» oynomasi 2005 yil may.
43. G'. Romonov «Bank soxasini axborotlashtirish va to'lov tizimini rivojlantirish», «Bozor pul kredit» oynomasi 2005 yil may.
44. O. Ortiqov «Banklararo raqobat sharoitida kredit siyosati», «Bozor pul kredit» oynomasi 2006 yil iyun'.
45. M. Matkarimov «Tijorat banklari faoliyati samaradorligini belgilovchi omillar», «Bozor pul kredit» oynomasi 2005 yil avgust.
46. M. Safarov, M. Xamroev «Iqtisodiyotda qayta moliyalash stavkasining ahamiyati», «Bozor pul kredit» oynomasi 2005 yil may
47. Umarov L., «Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari likvidligi», «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» oynomasi 2003 yil mart.

«Internet» tarmog'i bo'yicha veb-saytlar

1. [www. banking. com](http://www.banking.com)–mintaqaviy banklar, assotsiatsiyalar va nashriyotlar bo'yicha bank sanoati resurslari direktorligi;
2. [www. banking. com](http://www.banking.com) aba–Amerika banklari assotsiatsiyasi.
3. [www. aradey. com /commerce/ JIBC/](http://www.aradey.com/commerce/JIBC/)- internet banking va kommertsiya jurnali;
4. [www. bankingtech. com](http://www.bankingtech.com)–bank texnologiyalari;
5. [www. bankeferatov. ru](http://www.bankeferatov.ru)–Rubrika Referati, kursovie, diplomi na temu «Bankovskoe delo».
6. [www. bankir. ru](http://www.bankir.ru)
7. [www. bankibform. Ru](http://www.bankibform.ru)

MUNDARIJA

1-mavzu:	Bank ishi fanining predmeti va metodi.....	4
2-mavzu:	Tijorat banklari va ularning tashkiliy tuzilishi.	14
3-mavzu:	Tijorat banklarini tashkil etish va tugatishning huquqiy asoslari.	22
4-mavzu:	Tijorat banklarining resurslari va bank kapitali.	26
5-mavzu:	Bank aktivlari, ularning mohiyati va tarkibi.	35
6-mavzu:	Tijorat banklarining daromadlari	48
7-mavzu:	Tijorat banklarining xarajatlari.	52
8-mavzu:	Tijorat banklarining foydasi va uni hisoblash.	55
9-mavzu:	Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi va likvidligi	60
10-mavzu:	Tijorat banklarining likvidligini boshqarish va baholash asoslari	69
11-mavzu:	Tijorat banklarining likvidlik ko'rsatkichlari	72
12-mavzu:	Tijorat banklarining passiv operatsiyalari, ularning turlari va tavsifi.	74
13-mavzu:	Tijorat banklarining depozit va nodepozit operatsiyalari.	78
14-mavzu:	Tijorat banklarining kreditlash usullari	81
15-mavzu:	Tijorat banklarining kredit siyosati va uning mazmuni	85
16-mavzu:	Tijorat banklarida kreditlash jarayonini tashkil etish asoslari	89
17-mavzu:	Kreditga layoqatlilik tushunchasi	97
	Fan bo'yicha tayanch iboralarning izoxi.....	105
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	123